

Uchinchi Bo'lim - Jazo, Rijo va Hidoyat
 Ajib Saodat (yoxud bir kechalik mehmon)
 Mahfuz xatlar davomiga. Jindek qissago'y izohi ila.

Qay vaqt bo'lib ketgan edi, bilmayman. Allamahalda ishdan kelib, divanda xayolparishon o'tirib edim. Keyin sekin uzanib, yonboshlaganim esimda. Shu holda shirin bir tuygb'u qamrab kelib, parqu qanotlariga indirdiyu allalay boshlad. Aftidan, uyqu elitib, ko'zim ilingan edi shekilli, ajoyib tush ko'ra boshlardim. Bunaqasi ilgari, bolalik kezlarim sodir bo'lardi: ko'zimni yumardimu ajabtovur - xuddi ertaknamo tushlar ko'ra boshlardim. Hozir ham o'shanday tiniqdan tiniq, sirlidan sirli, ammo qay bir yerlari o'zimga tanish diyorda kezib yurar edim. Chor taraf, butun atrof-javonib oppoq oydin mish-da, o'zim eski uylarimiz tomonda yurgan mishman. Oyning yerdagi olachalpoq nurlaridan ma'lumki, eshigimizning ro'parasidagi anhor bo'yida, yongb'hoqzorda turib, oy nuriga cho'mib yotgan tuproq tomla uylarimizdan, ishkomli bogb'hoqlarimizdan ko'z uzolmayman. Ular bagb'hoqlarni allatovur bir kumushrangga bo'yab-jilvalantirib, loysuvoq tomlarimizga oq jujun matoli yarqiroq bir narsalar yoyib, tarnovlarni devor sarxoklarini qirov qo'nganday oqartirib-yarqiratib, yerga, bo'gb'hotlar ostiga ajabtovur o'sma-soyalar tortib, butun hovlimizni sir-sinoatlarga ko'mib tashlaganki, u hov bir vaqtlar - akam Bo'zsuv bo'yularini qarorgoh tutib yurgan kezlardagiga o'xshab ketgandi. Men uni sogb'hoqning kezlarim, yarim kechalari turib, ana shunday anhor bo'yulariga chiqib olar, yo'llarini poylab o'tirib qolar edim. Nazarimda, togb'hamgilarning hov muyulishidan mana hozir so'ligb'hoq sho'lqillatib, bir otu otliq chiqib kelayotgandek bo'laverar edi...

Hozir esa (tushga hech taraf yo'q) ichkaridagi zinamizda yolgb'hoqdan yolgb'hoq, allaqachon azim yongb'hoqlardan oshib o'tib, bir kenglikka chiqib olgan va hamma yoqqa bearmon yogb'hoq sochib yotgan to'lindan to'lin oyga, uning goh dumaloq ko'zgudek, goh osmonning u yogb'hoqiga ochilgan oq bir darichadek ko'rinishiga mahliyo bo'lib o'tirkaranman, uning sathi-ko'zgusida ko'rinarotgan bir narsalar xayolimni o'gb'hoqlagan edi. Chindan ham osmonda suzib yurgan to'lin oy - oy emas, afsonaviy bir oina yoxud Jamshidning oppoq jomiyu uning yuzida shu vaqt-shu soatning o'zida qay bir yerda kechib turgan voqeal(!) akslanib turgan kabi edi.

Oy yuziga yaxshilab tikilgan kishi uni ko'rmay iloji yo'q edi!

Ana, Oyning sutga chayilganday tip-tiniq yuzi - sathida bizning Tegirmondan to Qo'shilishga qadar cho'zilgan Izzayu uning ikki betkayiga yastangan yerlar xuddi ochiq ulugb'hoq kitobning ikki betiga o'xshab, allaqanday kumushrang nuqra sepilganday yarqirab ko'rinarotgan bir narsalar xayolimni o'gb'hoqlagan edi. Chindan ham osmonda suzib yurgan to'lin oy - oy emas, afsonaviy bir oina yoxud Jamshidning oppoq jomiyu uning yuzida shu vaqt-shu soatning o'zida qay bir yerda kechib turgan voqeal(!) akslanib turgan kabi edi.

Hozir esa xuddi o'sha chiziq yoqalab go'yo bir otliq qir oshib-oshiqib kelar, bu nimadan belgi - aqlim yetmas, yetmasa-da, bu go'zal kechaning sirla oinasida akslangan narsaga sehrlanib qolgandim.

U nima, chindan tushmi yo o'ng? Tush bo'lsa, bunchalar aniq-taniq? O'ngim desam, nega sarxushman? Go'yo aqlim to'ngib qolganday, qaerdaligimni to'la anglay olma-yotirman?

Unday desam, nega yuragim allaqanday hapriqib bor-yapti, go'yo ichimga bir gala qush qamalib qolgandek? Ular gurra-gurra uchib ko'tarilganlari sari nimadir bo'gb'hozimga tiqilib-tiqilib keladi! Shu bilan bir vaqt-da men turgan zinaning o'ng yogb'hoqida yarim ochiq derazaning ortidan (katta uyda shekilli) birov, nega birov bo'lsin, ayol kishi piq-piq yigb'hoq, ko'rpanimi, nimani ustiga tortib, xo'rligini yutishga urinadi, hiqillaydi. Ammo ovozi yo qudratingdan, shunchalar tanishki... otini atab chaqirgudekman. Kennoyi, devorgudekman...

Uygb'hoqni ketib, yonboshlagan joyimdan qaddimni ko'tarsam, xontaxtaning u boshida birov shishasiga qogb'hoz kiydirilgan lampachiroq yorugb'hoqda hiq-hiq yigb'hoq o'tiribdi. Tizzasida o'sha unniqsan sariq daftar, dam-badam burnini tortib,

ko'zyoshlarini artib qo'yadi. Qora duxoba nimchasidan tanidim. Xotinim. Meni uxlatib qo'yib, o'zi davomini o'qiyotgan ekanmi?

- Saida, o'zizmi? - dedim hayratlanib, - o'qirkansiz, uygb'hoqmaysizmi?

- Birpas mizgb'hoq qoling, deb o'qiy qolsam... bunaqa ekan.

- Qanaqa?..

Saida ichdan chuqur tin oldi:

- Ayol kishini nuqul musibatga yaratgan ekan: bechora kennoyingiz!..

- Nima bo'lgan ekan? - dedim yuragim toshib kelib. Endi turib o'tirib olgan edim.

- O'qiy qolaymi? - dedi u.

- Mayli, o'qing, - dedim intiqib.

U boshladi.

"...Kichigoyumlar vaqt allamahal bo'p ketibdi deb ichkaru uyga kiritib yuborgan edilar, shu qo'limdaguni tepchub qo'yay deb o'tirib qolubman.

Bir mahal lampachiroq o'z-o'zidan yorishib ketib, olov tili ichiga tushib bora boshladu. Nima bo'ptu, deb piligini ko'tarub ko'rdu, qirqib ko'rdu - qani jo-yiga kelsa. Moyi tugab bitgan ekan, axiyri o'chdu-qoldu. Na iloj, ishpechlarimni tokchaga olib qo'yib, o'girilsam deng... derazadan shunday bir nur to'kilub turibdi! Shunaqa oppoq, shunaqa shaffofki, o'n to'rt kunluk oyning ham eng yarim kechadagisi, eng tikkaga kelganu. Uyqularim ham qochub, yosh boladay deraza tagiga kelvolibman.

Chindanam tashqaru sutday oydin edu. Hovluda igna tushsa ko'rinar, ishkomlar harir govrapo'sh yopulgan beshiklarday nurga belanub yotar, bogb'hoqda daraxtlar qiygb'hoq gullab yuborganga o'xshardular.

Yulduzlar xira tortib ketgan ko'k toqida esa yolgb'hoz oy yangi tushgan kelinchakdek jilmayib turar, uning yuzuga qarab to'yub bo'lmashdu. Go'yo chirogb'hoqning moyi tugamasa - qaramaysanmi, o'tir birpas, holu qolayluk, dardlashayluk, demoqchi bo'ladi. Ginalar qilib, jilmayadu. Imolar qiladu har turlu. Ishvalaru ham o'ziga yarashgan.

Tavba, bu ne hol? Hech mahal oy ham ishvalar qiladumu odamga? Turlanib-tuslanadimu? Hozirguna chimildiqdan chiqqan kelinchakdek ibolu-ibolu boqmoqda edu. Endi o'sha kelinchakning kungira ko'zgusiga aylanub qoptu. Uning ichida bo'lsa, alomat-alomat narsalar oy nuriga cho'mub yotubdular. U kumush dalalar, soyalar nimasi bilandur juda tanish. Qolaversa, bir otluq o'sha soy yoqalab, ildamlab kelayotgandek. Tavba, bu qanaqasi? Oy ham hech mahal ko'zguga aylanadumi? Yerdagi narsalarni akslantiradimu?

Manum esum oqgb'hoq boryaptu. Go'yo jinmi, farishtalar aqlumni olib qo'yandeklar. Ammo ajabtovur narsalardan (oy bo'lib oy emas, ko'zgu bo'lib ko'zgu, tavba) ko'zimni uzolmayman. Unda ko'ringan narsaga sehrlanub qolubman..."

- Shoshmang-shoshmang, - men qulqlarimga ishonmay u o'qiyotgan narsaning ustiga kaftimni tashladim.- Nima deydi? Nima

ko'rindi deydi?

Saida cho'chib tushgan edi:

- O'zizmi, adasi? Nimasi tushunarsiz?
- Otluq ko'rindi deydi? - Men hayratimni yashirolmasdim.
- Shunaqa yozibdilar, nimasiga... ishonmaysiz?
- Bilasizmi, o'sha otluq, o'sha oyda ko'ringan narsalar, mening tushimga kirib yuribdi. Hali-hozir, endi esa, siz o'qib turibsiz.
- Subhonalloh, - dedi Saida va ko'ksiga tuf-tufladi. - Shunaqasi ham... bo'ladi ekanmi?
- Bo'lar ekan-ku, o'qiyvering-chi, - dedim davomiga intiqib.

Saida kimga ishonarini bilmay, daftarni o'ziga yaqinroq surdi.

"...Xayolumda o'ziz. Chegaradan o'tolmay qayoqlarda qoldiz ekan? Tangritogb'Tida inqilob bo'gb'Tilgan, sarboni o'gb'Turlab ketilib, lashkar tarqatub yuborilgan, xalq yetum bo'taday bo'zlab qolgan bo'lsa. Boturlar togb'Tlarga to'zib, har kim o'z joninu asrashga tushgan bo'lsa. Siz musofirlar qayga bosh urib boardingiz, qay diyorlarni oshiyon tutdingiz ekan?

Ozodlik nash'u namosi shunchalar qisqa, Ollohimning inoyati muvaqqat ekanmiki, Tangritogb'T tomonlardan xabar kelmayin qo'ydi. Qochgan qochdi, to'zgan to'zdi, hatto Siz Boturlardan bir mujda yo'q. Qay o'ngir, qay qoyalarda, qay dovon, qay qo'l yetmas muzliklarda qoldiz ekan? Yo hali ozod bo'Imagan viloyatlarda yuribsizlarmu? Nega biron xabar yo'q, mujda yubormassiz? Axir shu umidda bu diyorlarga jo'natubmu edungiz? Rizoluk bergen, Ollohning omonatini to abad saqlagayman deb, ahl u ayolumni, shariatumni har narsadan ustun tutgayman deb ontlar ichgan kim edu? Qaylarda qoldiz, Boturmurodum? Men istamasman siz qasamxo'r bo'lib qolivingizni. Ollohimning oldida gunohkor bo'lib turuvingizni.

Ana shu topda, Oy nuri uzala tushgan o'rnumga o'tirib ulgurmab edumki, deraza chertilub, qiya ochilgan tavaqasidan Oyning o'zi kirib-la kelmoqqa boshladu. Yo Arshul azim, bu nesi? Shu mo'ralab turgan Oyning-da ishimu, boshqaning?

q

Nafasum ichimga tushub qaltirablar kettum!.. Ne hol yuz bermoqda, anglab olmoqqa ojuz edum. Jonum, unga qo'shilib jon qushum bo'gb'Tzumda turar edu. Qo'rqib ketganum shunchalik!..

Shunda... derazaning ikkinchi tavaqasi-da ochilub, men sogb'Tingan, orzuqib kutgan kimsaning o'zi ko'rinub (azbaroyi Xudo, haligi qo'rquv, titroq qayooqqa ketti?!) yurakum dukurlab bersa deng - bo'gb'Tzumga issiq bir narsa tiqilup, ko'zlarimga achchiq yosh quyilub kelibdu. O'zum "u kishi, u kishi-ku!" deyman-u, sira ovoz bitmaydu.

Nihoyat, Siz-o'ziz:

- Mahfuz, men keldum. Ontimni ustidan chiqqali keldum, - dedingizu bir xatlab derazadan oshub o'ta qoldingiz.

Oymo'mada yurgan otliq, ko'zguda ko'ringan kishi - o'zingiz kirib kelgan edingiz!

Yo, Qodir Ollo! O'zing mehribonlarning mehribonisan. Karamingga ham, sinovlaringga ham taraf yo'q! Boyagi belgular chin ekan. Chin chiqdi, ey Ollohim! Bu ham bo'lsa, sening inoyating, karamingdir. Men Olloh yetkazgan kishimning quchogb'Tida o'zimni unutub, yo'qotub yigb'Tlardum. Shuncha sabrlarumning mevasiga yetishub turardum.

Qachon deraza tavaqalarinu yopub qo'yduk, men musofirginaning yupqa o'rnuada qancha so'y lashub-ginalashub o'tirduk, arazlarimuzni to'kishduk, taskinlar olduk, bilmayman, keyin shuncha judolikdan so'ng topishgan shar'an nikohdagi kishilarga paygb'Tambarimiz buyurganlaridek qancha suhbat qurdik, yolgb'Biz Oy guvoh edu. Ke-yin u ham hayo qilib, magb'Tribgami - qayooqqa ogb'Tub ketdi, mo'ralamay qo'ydi. Faqat ayoq tamonumizda, derazaning takkinasida namat ustida qizil tulki terusiday bir narsa cho'zala tushgan edu, xolos.

Keyin bilsam, bizning ishumizdan xijolatlarga tushub, allaqanday qizarub botayotgan oy ekan. O'zi uchrashtirub, o'zu xijolatlarga tushsa-ya...

Uni ko'rib, Siz shoshib qoldingiz.

- Suvingni olib kela qol, vaqtim bitibdi, - deb shivirladungiz.

Bu gapdan mening xushum ogb'Bayozdi:

- Qanaqa vaqt, Sultonmurod aka? Qayooqqa borgaysiz endiyam?

- Aka demagil, bunday buyurilmagan, - dedingiz Siz irim qilib. - Yaxshi niyat qil, adasi, adajonisi demoq lozim, - deb shivirladungiz qulogb'Timga. Menu yupatarmudingiz, avrarmudingiz - bilolmasdum. Lekin gaplariz moydek yoqib tushmoqdaydi. Bo'ynungizga osilub erkalandum:

- Qayon borgaysiz, qo'yub yubormasman bu gal. Endiyam aldab ketolmassiz. Aytasiz, qanaqa vaqt?

- Muhlatim bitadur, Mahfuz, tushun, - dediz sochlarumni silab.

- Qanaqa muhlat? Kim qo'yadur unu? Ko'rub-bilub turib?.. - Men xo'rligum tutub yigb'Tlamoqqa boshladum. Bo'ynungizga battarroq osilub olganmidum, yuzlarimni ko'ksingizga bosub qo'yvormasmidum Siznu - o'zum bilmasdum.

Shunda qulogb'Timga issiq nafasingiz urulib, shivirladungiz:

- Hoy, Mahfuz - ayasi, shunday turavergaymizmi, farishtalardan uyalmay? Tong otib boryapti.

Qo'lllarim o'z-o'zidan bo'shashdular. Siz haq edungiz. Bu turishimiz Ollohga ham xush kelmas edu...

- Men hozir. Faqat Siz miq etmay turgaysiz. Xo'p, - dedim-da, derazadan yengil tushub, oyoq uchuda oshxonaga yurindum. Suv chelak, togb'Toralar o'sha yoqdaydi...

Yuvinub-tarangunimizcha Oy ham bo'zarib bogb'T pastidagi katta tut ortiga o'tub turdi. Oldi xo'rozlar qichqurub, chaqirmoqqa boshladular. Anhor yoqalab ketgan ko'chamuzdan oldi bozorchi aravaning qitirlab o'tuviga oz qolmoqdaydu. Ko'k toqidan yumalab borib haligi tut tagida ko'ringan Oy tomlaru faqat daraxt tepalariga o'z ukparlarini qadar, hali ko'rinnay turgan yulduzlar endi baravariga charaqlab, ko'payishib ketgan edular. Balki mening o'zumga shunday ko'rinnmoqdadur, tuyulmoqdadur. Siz borlingizidanmu, negadur qushday yengilman. Atrofingizda uchub-qo'nub, gиргитон bo'lib-da yuribman. Agar ketaduron bo'lsangizam ortingizdan qolmasam kerak. Farishtaday uchub ketsam-da mumkun. Bu yerda qolmasligingizni hech-hech tushunolmayman. Tushungim-da kelmaydu. Axir qancha vaqtida - endi yetishdum. Yetishganda ayrilish...

- Endi menga javob berasan, Mahfuz. Shoshmasam bo'lmaydi, sheriklarimni ortiq kuttirolmayman xatarga qoldirib. Tushun, - dediz.

Qani tilim aylansa, termulaman, xolos. Bo'y-bastlaringizni, o'sha turishingizni ko'z qorachiqlarimga muhr-lab-joylab olmoqchi bo'laman. Tikilamanu miq etolmayman. Ich-ichimdan bir nimalar toshib kelutti, bilaman, tugb'Tyon, achchiq taqdirimizga qarshi isyon, lekin bu yozugb'Timiz Ollohdan ekanuni, bu bizga sinov ekanuni anglab turganum uchun ham unga shak keltrub qo'yushdan o'zumni tiymoqdamman. Lablarimni mahkam qimtib olganman, tishlab olganman. O'krab yuborishga qo'yma-yoturman.

Agar bir og'biy yupatishga boshlasangizmu qutulolmasdingiz, meni yig'biidan to'xtatolmasdingiz.

Shu tob ko'chamuzdan gb'birchillab birinchi bozorchi arava o'ta boshladiyu bedapoya tomonda allaqanday sergak ot uni sezib, kishnab yubordu. Va siz shoshilishga tushdingiz:

- Faqat sendan iltimos, men kelganimni ichingga yutasan. Xo'p?!

- Xo'p, - dedim men yig'biimni-da, ichimga yutub.

- Xolamgilarga-da, aytmagaysan. Tushunding?

- Tushun-dum, - deb bosh silkigan edum, ko'z yoshlaram bilagumga duv to'kildular.

- Bizni eson-omon yetib olsin desang - ichingga yutasan, keyin yig'bi lab emas, kulib kuzat meni. Qaytishum oson bo'lgay, - dediz qulogs'biimga shivirlab. Yelkamdan quchgancha deraza oldiga qadar bag'bi ringizda olib bordingiz. O'zingiz shoshib turibsiz-u, yana bir nimalarnu tayinlamoqchi bo'lasiz.

- Eshitding-a, bu diyorlarga qaytishimni istasang, yig'bi lab may kuzatasan. Bo'zlamaysan faqat. - Ke-yun shoshub tayinlay boshladningiz. - Uzoqni ishi qi-yin, agar bir gap bo'lib, uzoqib ketsam, qiyalib ketsang, eslab qol, bu diyorlarda yolgb'bi qiyomatli bir do'stim bor. O'shani topib bor. Xasti Imomdan o'tganda Kalkovuz suvi bor. O'sha tarafdan so'roqlaysan. "Oyo'tra buvining o'gb'bi Chaman akaniki qayda?" degaysan, ko'rsatib berishadi. Ogb'bi kunga qolsang, o'shani top. - Siz shoshgandanmu, mening yig'bi lab berib, hammanu uygb'botub yuborarumdan qo'rqqandanmu, derazaga oyoq qo'yib oglandingiz. Bir hatlashda hovliga tushib olgudek edungiz.

Men esam, Sizning o'z diyoringizdan bunday o'gb'bruncha chiqib boruvingizni istamasdum. Boturlarning ayoluday otingizni yonuda uzangungizni ushlab, kuzatub borarumi, buni butun Kattabog'bi, barcha-barcha qarindoshlaringiz ko'rib turuvini istardum. Ammo na qilay, ixtiyor menda emasdu, Xudoning xohlashi shunday bo'lmoqdaydi, chidardum.

Siz hovliga yengil sakramoqqa shaylangan kezda bir nimani eslab, yengil qayrildingiz:

- Ha, darvoqe. Ollo bugungi kechamizni xush ko'rib, iltijolarimizni eshitib, o'gb'bilmi-nima ato etgan bo'lsa... otini o'zing bilib, Yodgurmurod qo'ygarsan.

- Sultonmurod aka, nega unday demoqdasiz? - dedim o'krab yuborishdan o'zumni zo'rgb'ba tiyib. - Hali-veri...

Qani u yog'biini ayta olsam, so'ray olsam. Olovday kuydirmoqlaydi u so'z yurak-bag'bi rumni. Aytaman desamam ayta olmasdum.

- Bilmadum, Mahfuz. Hammasi Ollohdan. U dilimga soldi - aytdim, qolganini ham o'zi o'nglagay istasa. Sen duodan qolma.

- Qolmagayman, qolmagayman... Yaxshi boring faqat.

- Yaxshi qol, - dedizu men Sizni yo'qotub, huwillagancha qolaverdum. Endi o'zumni qarg'biaymanki, u yog'bi yo'q: topganumda nega qo'yib yubordum, deb!

Nega o'krab yig'bi lab, kichigoyimgilarni hammani uygb'botib yubormadum!

Nega jilla qursa, inshaalloh demadum!

Shunday desam, bu kunlarga, bu malomatlarga qolmasmidum. Hamma keladigani ortda ekan. Siz ketdizu men hech yerga sig'bi may qoldum.

Ikki oygina yayrab yurganlarum, o'sha kechani eslab bir yerga yetganlarum hammasi burnumdan buloq bo'lib chiqqa boshladu. Kasalni yashirsang, isistmasi oshkor qilganiday, Sizning u tashrifingizni bo'yimda bo'l-gan narsa oshkor etib borardu. Uni sirib ham, halfillagan keng ko'yaklar kiyibam yashirolmasdum. Zingilli ko'zlar, sinovchan nigohlardan qochub qutulolmasdum. Axiyri ostona hatlab chiqolmay qoldum, Kattabog'bi ga gap tarqab ketupti: anuv ko'hlik kelin bo'yida bo'p qopti, deb! Qani, tushuntirib bo'lsa Siz kelganingizni... bu ishlar shar'an ekanini. Hatto kichig-oyumlarga aytmagandum, endi qanday ogb'bi ochaman? Qolaversa, Sizga va'dam bor, bergen so'zim bor. Endi qaysi til bilan ochaman u tashrifingizni? Nega bu yog'bi o'ylamagan ekanmuz?

Boshimga qopmu - nima kiydirilgan odamga o'xshayman. Dunyo shunchalar zimiston, ertam shunchalar qoron-gb'bu. Ollo o'zi yo'l ko'rsatmasa, bilmam, undan qanday qutularman? Najot ko'rinnmaydu hech. Yo o'zingiz kelib qutqarib qolasiz, yo nolam Olloha yetub, O'zi ku-shoyish bergay - boshqa yo'l yo'q!

Faqat esumni yeb qo'yib, Ollo izn bermagan ishlarga qo'l urib, rahmimda ko'tarib yurganum - Yodgurmurodingizning onasimas, qotilasi bo'lib qoluvimdan qo'rqaman. Keyin nima qilaman? Ollohnning qoshida nima deb javob bergayman?! Uning qoshida xijolat bo'lgandan bu dunyoning har nechuk azoblari afzal! Shu andishami - nima, menu bu dunyoda tutib turibdu, ushlab turibdu. Qolgan barchasi - kechib yuborgulik! U malomatlar oldida o'tib yuborgulik! Bu yog'bi nima bo'ladu, bilmayman. Misoli ulkan choh - so'ngsiz qorong'biulik bir jar ro'parasidaman. Meni uning yoqasidan kim ham qutqargay? Kimga ogb'bi ocha olgayman? Axir, o'zingiz tayinlagansiz. Yo'l ko'rsating, bir imdad bering, Sultonmurod aka? Mahfuzam omon bo'lsun, Yodgurmurodim tirik qolsun desangiz - jilla qursa, Olloha iltijolar eting. O'zi yo'l ko'rsatsun, kushoyish bersun. Boshqa kimdan madad tilay?! Izlay, qidiray?..

Ey, Parvardigorim! O'zingga iymon keltirganman. O'zing yorlaqa va bir yo'l ko'rsatgil. O'zing sabru jamiil ato et yo shu musulmonlik holumda bu omonatingni ol. O'zing qo'lla"...

* * *

Endiyam ishonmayinmi, Sultonmurod akang kepti, degan gaplarga? U tushlarimgacha bundayin kirib yursa?

... U nimadan belgi, imdad beryapti? Endi qaytishidanmi? Qachon qaytadi ekan? Chaman akam bilanmi? Buni ham bilmasdim... Kutamiz, intiqib-intiqib kutaveramiz.

Ilon Qachon Po'st Tashlaydi (yoxud "Ko'k To'nli" nimadan ogoh etmoqchi?)

Yana hikoyachiga ma'lum tarixlar davomiga.

Kattabog'biimizda boshim borib-oyogs'biim kelgancha sandiroqlab yurgan kezlarim edi.

Men soyma-soy kezib, bedapoyama-bedapoya oshib, Ergash cho'loqqami, boshqagami to'r sudrashib yursam ham, bolalar bilan kechgacha Izzada qolib ketib, baliq tutsam ham hech kim hech narsa demassi. Chunki biz - pakana pari Maqsudxo'ja janoblariga Hoji do'xtirdan shunaqa ruxsat tekkan: tepalarda varrak uchirib, qo'ziqorin terib, Bo'zuvlarda yovvoyi kaptarlarning potirlab uchishiga mahliyo bo'lib, jarma-jar, tepama-tepa oshib, qamishzorlardan o'rdagu moshak-qushlarni quvib yurib, bosh ogb'brig'biimni o'sha jaru jurlarga, qamishzorlarga tashlab kelishim kerak.

Lekin bugun uyda qolgan, supamizning tepasidagi katta qari tolga chiqvolib, toqqaychi bilan istak terayotib edim. Goho-goho

3 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

yonginamdag'i qo'shnining devoridan oshib o'tib, qizil marjondek bo'rtigan o'rik shoxlariga, uning endi, onda-sonda lab ochgan oq-pushti gullari ustida parvona bo'lib g'buvillayotgan asal-arilarga mahliyo bo'lib qolaman-da, yana istar-istamas istak terishga tushaman.

Bugun oyimlar bilan toklarni ko'tarib bogb'Thamoqchimiz. Tol ustiga chiqib o'tirmay Izzadan shunaqa tok bogb'Tlaydigan o't (u botqoqda o'sadi, sovuq ham urmaydi, faqat mollardan omon qolganmi-yo'qmi?) o'shani o'rib kelsam ham bo'lardi, erindim. Tol xivich-istikda bogb'Thoshni oyim qotiradilar, bahanada o'zim ham qarab turib, o'rganib olaman.

Qolaversa, tol ochilib kuchini xodalariga bersa, kelasi yil ishkomga ham, bagb'hzatlarga ham yaraydi. Shu bois supa yuzi tol chiviqlarga to'lib ketgan bo'lsa-da, men tushishni o'ylamay istak terayotib edim, shu vaqt eshigimizga bir otliq kelib, egardan tusha boshladi. Men uning qizil shapkasini ko'rganimdayoq etim jimirlab, damim ichimga tushib ketdi. Tol ustiga berkinish mumkindek, sekin pusib o'tirib qopman. Uning yuzi juda tanish ko'rinar-u, eslay olmasdim. Milisa bekorga tashrif buyurmasligini bilsam-da, (balki bilganim uchundir!) xavotirga tushib, ich-ichimdan qirindimi - nima o'tib borar, zo'r berib, "Nimaga kepti ekan, bu go'rso'xta?" deyar edim.

Bu orada u otini devorga yonboshlab o'sgan bukri jiydamizga bogb'Tlab, bu qishdan xiyla tob tashlab chiqqan yakka tavaqali eshigimizni itardi. Eshik chindan ancha ogeb'Birlashib qolgan shekilli, g'b'Tijirlab zo'rgb'a ochildi. Kelgan odam unga sigb'Tmay yana itarib edi, eshik kesakisiga qo'shilib, usti lopilladi. Bu ham yetmagandek, shuvillab sarxoki to'kilgan edi, u yelkasini qisib, yarim qadam chekindi vaostonada turib, zulfinni qoqdi:

- Hoy, kim bor? - Go'yo qochadigan hech kim yo'qmi degandek u tomoq qirib, yo'talib qo'ydi.

Men ang-tang qopman: milisaning bunaqasini endi ko'rib turardim! Anuv shaharlukka o'xshatib adashibman shekilli! Tavba, birovning ichkarisiga ko'z qirini tashlashdan tiyilib-tortinadigan odam... qandoq bu fo'rmani kiyib opti?

Ammo qay ko'z bilan ko'rayki, u ijozsatsiz ostona hatlay olmay turar edi. Men o'tirgan yerimdan qaddimni ko'tarib, ovoz berishga shaylangan joyimda... oxona ortidagi jiyda tagida oyimning qorralari ko'rindi. U kishi paxsani buzib opamlarnikiga ochilgan yo'lidan chiqib kelar edilar.

- Hozir-hozir... - Oyim shunday deb ovoz bergancha, orqalaridagi Mahfuz kennoyimga "keting-keting"lab jiyda tagidan hovliga chiqib keldilar.

Ostonadagi odam oyimning qo'l silkishlariyu o'rta yo'lkadagi kennoyimni ko'rdimi-yo'qmi, bilmayman, oyimning ovozlarini eshitib, qaytdi. O'sha yoqda turib, javob-muomala qiladigan odamdek eshikni o'ziga tortib edi, u boyagidek g'b'Tijirlab yana sarxoki to'kildi.

Oyim supadan o'tib, ro'mollarining bir uchini tishlagancha yarim o'girilib to'xtadilar.

- Aytavurning, nima ishingiz bor edi, kimsiz?

Oyim tanishlarning oldiga chiqib boraverar edilar, qochmasdilar, buning ovozidan begonasiradilarmi - yarim yo'lda - ovoz eshitiladigan joyda to'xtagan edilar.

- Xolamoyi, menman, Zokirjon uchastkovoyiz: taniysiz. Gapim bor edi, Sulton oshnamizga tegishli.

Oyimlardan oldin mening tepe sochim tikka bo'lidi: bu dogb'Tuli nimalar deyapti? Oyimlarni avrab, nimani bilib ketmoqchi?

- Oyi, - dedim o'tirgan joyimdan shipshib.

Ammo oyim akamning nomnii eshitgandayoq o'zlarini yo'qotib, ko'cha eshikka chiqib bora boshladilar:

- Voy, shunaqami? Kiravuring, nimaga qarab turibsiz? Shundan shu yoqqa kelasiz-u, kirmay ketasizmi?

Hay-y, esiz, o'zim chiqib bormaymanmi, darvozadan qaytarib yubormaymanmi!.. Oyim ham qiziqlar, kennoyimni opamlarnikiga chiqarib yuborganlari nimayu, buni "kiring"lab qistashlari nimasi? Milisa zotiga ishonib bo'larkanmi! Ammo endi kech edi. U ichkariga kirib bo'lgan, engashib - oyimlarga yelkasini tutib turar edi. So'ng qaddini ko'tarib, kamiga shan-gb'Tilladi:

- Tanidizmi, xolamoyi. Men o'sha Zokirman, hozir bu yoqqa o'tganman. Shu yoqlar hammasi menga qaraydi, tinchligini mendan so'rashadi. Shunday-shunday. Anuv kuniyam kelgan edim. Qo'shniznikiga kelganlarni opketgani...

O-la, maqtanchoq! Ahad akalar tutib, xabar berguncha qaerda edingiz? Tayyoriga keldingiz-ku!

Men g'b'Tashim kelib, azbaroyi chetga qarab, chirt tupurdim: xuddi o'zi ko'rgandek ogeb'Bizini to'ldirib maqtanganiga o'lasizmi?

- Umriginangizdan baraka topinglar, yaxshiyam sizlar borakansiz, bo'lmasa, qo'shminginamni naq tuyoqlay deb turgan sigirini gum qilib ketishar ekan, - dedilar oyim alqab.

- Sigir ham gapmi?!- dedi mehmon sirli qilib, - ularning niyatini hech kim bilmaydi, ha.

- Shunaqami?- dedilar oyim uni ichkari boshlab.

- Ha-da. Ammo-lekin birovga aytadigan gapmas! Yo'liga shunday kelib, tekshir-tekshir qilib o'tirishgan. Amakini surishtirgan kishi bo'lib, mehmondorchilikni quyuq qilib... maqsadlari esa boshqa...

- Voy, kishi ko'ziga ekanmi?

Oyim tezroq borib, zinadagi suv chelagu jomni yo'lidan ola boshladilar. Men esam, bu izquvar ipi-risqiga (xolamlarnikida surishtiraverib ensalarimni qotirgani hali yodimda turibdi!) ko'ringim yo'q, tol tepasida miq etmay o'tiribman. Ko'zi tushmay o'tib ketsayu - qutila qolsam...

Ammo hammaning ko'zini shamgb'Talat qilish mumkindir-u, milisaning nazaridan qutulish qiyin. Supayu hovli yuzi bilan bitta bo'lib yotgan chiviqlarga ko'zi tushgan zamoniyoq menga qaradi va eski qochqoq "do'sti"ni ko'rib ishshaydi:

- Iya, istudent, bugungi dars nima bo'lidi, tol tepasiga chiqib opsiz?

Men tushuntirish bergim kelmayinqrab, toldan devorga o'tish harakatiga tushaboshlagan edim, oyim zinadan javob qildilar.

- Bu damda, akajonisi.

- Dam? - Milisa shubhalanib, bir menga, bir oyimlarga qaradi, - hamma bolalar o'qib yotibdi-ku?

Men hamon javob berishni o'zimga ep ko'rmay tushishga imillardim.

- Bir yilga chiqdi, akajonisi, Hoji do'xtir qogb'Toz qilib berdi, - dedilar oyim.

U ham rosa qovoq-miyalardan ekan:

- Qogb'Toz? Qanaqa qogb'Toz? - dedi oyimning orqalaridan ergashib.

Mening g'b'Tijinim kelib turibdi. Hoji do'xtir degandan keyin hammasi tushunarli-ku! Ijikilashiga balo bormi?!

Oyimlar-ku, menga nima bo'lganini aytib, uning rahmini keltirish bilan ovoralar:

- Voy, Xudo bir qaytib berdi-ku. Shamollab deng, ko'zini ochmay esxonamizni chiqarvordi-ku...

- Shunaqami? Men bilmapman, uzr-uzr.

U menga achinib qaragan mahal opamlarning yo'lagi tomondan otilib chiqqan Bo'yognogb'Timiz o'qdek uchib kela boshladi. Milisa

chindan hushyor ekan, Bo'ynoq irillash u yoqda tursin, damini ham chiqarmay uchib kela-yotgan, shu kelishida uning to'pig'i Tidan olishi tayin edi. Ammo Zokir milisa qay ko'zi bilan ko'rib, qay sezgisi bilan bildi, kuchuk zinaga yetmay o'girilib, kesak olayotgan kabi yerga engashib ulgurdi:

- Yot, esi yo'q! - deb po'pisa qildi kamiga.

Buning ustiga oyim ko'rib qoldilar:

- Qayt, Bo'ynoq!

It irillaganicha to'xtadiyu, ammo oyimning ra'yalaridan o'tolmay g'bazabini ichiga yutib, nochor orqasiga qayrildi.

Bir talab, o'takasini yorsa, toza xursand bo'lар, o'sha tirg'bзalgnarning armonidan chiqar edim-ku, afsus, it itligini qilmagan edi.

Zokir milisa rangi o'ziga kelib, zo'rma-zo'raki iljaydi:

- Iting yomon-ku, a?

Yomonga yomon degim keldi-yu, oyimlardan hayiqdim.

U shunda ham itdan ko'zini o'zmay (chalgbзisayoq oyog'bзiga tashlanib qolishidan hayiqib) zinaga ko'tarildi. So'ng ikkala oyog'bзini baravar tapillatib edi, qaytib keta-yotgan it irillab tashlanmoqqa hezlandi.

- Bo'ynoq, qayt! Esingni yedingmi?! - deb urishib berdim.

Zokir milisa gurji kuchugimizga ishshayib qa-radi.

- O'zi zibg'bзirdek ekan-ku, bunda es nima qiladi?!

- Shu gapiz esingizda tursin, qaytishda ko'rasisz, - dedim.

- Ie, shunaqami? Uzr-uzr, men yomonlamoqchi emasdum, - deb u ham kului.

Bo'ynoq bunga javoban irillab, tishini ko'rsatib qo'ydi-yu, noiloj nari ketdi.

Men oshxona ustunidan sirgbзalib tushib, zinada kutib turgan "eski tanishim" bilan yo'liga ko'rishib qo'yib, ishimga qaytaverdim.

Uyga odam kelganda shuncha istak hovli bilan bitta bo'lib yotsa, yaxshimasdir? Oyim ko'rpacha yozib bo'lilar shekilli:

- Keling, opovsi, kiravering, tortinmang, - deb chaqirdilar.

Ular o'tirib, duoi fotiha qilishgan, hol-ahvol so'rashgan bo'lischdi. Oyim hamma qolib, shahardagi opalarini, pochchani, ularnikidagilarni so'rab-surishtirar edilar. Xuddi bu u yerga har kuni kiradigandek.

O'rik bo'rtiqchalarini bo'rttirib, g'bunchachalarini anor donachalaridek qizartirib yuborgan ko'klam oftobi asalarilarga ham jon baxsh etib yuborgan, ular chor-atrofni tutib, - g'buvillab-vizillashar, shohdan shohga qo'nib, ko'z yora boshlagan g'bunchalar ustida namoz o'qishar, o'rik gullarini joynamoz etmoqchi bo'lishar edi. Biz ham bugun uyning qishi bilan o'tirib qolgan zahlari, mogbзoru ko'mir hidlari ko'tarilsin deb eshik-derazalarni ochvorgan edik. Shuning uchun dahlizdag'i barcha gap-so'zlar menga jangillab eshitilib turar, kirmaganimdan pushmonda emasdum. Nimaga kepti ekan bu go'rso'xta, deb ichim qizib turgan bo'lsa-da, qo'lim ishda - o'zim istak terish bilan bandman-u, qulogbзim ding, o'sha yoqda edi. Hech bir gapni qoldirmay suvdek simirib turibman. Zokir milisa bo'ladiyu bekorga keladimi, u quv!

Ammo oyim shundan shu yoqqa kelgan mehmonni bir piyola choyu qaymoq bilan siylamay jo'natgilari yo'q edi. Tanchadagi choy, chambarakdagi qaymoq bilan qoniqmay ichkari uyning to'sinidan cho'pga ilib uzum olib chiqdilar, paqidagi suvda chayib oldiga qo'yidilar. Uni ham kam bilib, yongbзhoq chaqib opkirdilar. So'ng churrak non ushatib, katta tokchadan durda olib qo'yidilar.

- Oling, qishloqning ne'matlari. Nasibangiz qo'shilganakan, tortinmang.

Oyim uning qaysi bir so'ziga iyib ketaqoldilar, hech aqlim yetmay turibdi. Milisa zotini ko'rsalar tepe sochlari tikka bo'ladijan odam buni opalarining o'gbзlidek ko'rib, aylanib-o'rgilar edilar. Sultonga tegishli degan bir ogbзiz so'ziga shunchalik erib, iyib ketibdilarni, tavba. Yo yuz-ko'zidan bir narsani sezib siperishlayaptilarmi? Bularga ishonib bo'larkanmi? Hech birovni ayaganmi bular? Avrasa mumkin, lekin o'la qolsa, sir bermas.

- Oling, aylanay, qaerdan kelgansiz! Har qancha nonushtangiz bo'lsa, yarim yo'lida tushib qolgan. Oling, opovsi, osh bo'lsin, - deb ora-chira qistab, choy uzatardilar oyim.

U esa Xudo berib, avval qaymoqni paqqos tushirdi. Keyin durda bilan uzumni.

- Voy, xolamoyi-ey, ammo-lekin durdani qotirbsiz. Manman deganlaram bunaqa durda qilolmaydi! Maska bo'p ketipti, maska!

Hov-v, sigir ko'p yaxshi narsa-da! - derdi u. Nihoyat, u kekirib orqasiga yastandi. Shu yastangan kuyi choy ho'playturib, men tomonga ko'z qirini tashlab qo'ydi. Meni supada istak terish bilan ovora ekanimni qo'rib, o'zicha xotirjam tortib, uzoqdan gap boshladi:

- Xo'sh, Kattabogbзda nima gaplar, xolamoyi?

- Nima gap bo'lardi, tinchlik, - uning muddaosini anglamayinqirab javob qildilar oyim. Zokir-quv gapni mish-mishlarga burdi:

- Sulton qaytipti, yana anuvlarning xo'b adabini beryaptimish, degan gaplar-chi? Shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamas?

Oyim, qo'l silkidilar:

- Hammasi bekorchi gaplar! Keladiyu qorasini ko'rsatmaydimi? Shunga ishonib o'tiribsizlarmi?

- Bo'lmasa, kim... o'gbзrilarning dodini berayotgan? Bir emas, qanchasi adabini yeb, pusib ketdi-ku, axir. Yo noto'gbзrimi? - dedi u. Sinayaptimi-rostdan so'rayaptimi, bilib bo'lmashi.

- Yo'q, - dedilar oyim qat'iy qilib, - Sulton bo'lsa, qo'rqib-netib o'tirmsadi, kirardi.

- Demak, uning nomidan birov... shundaymi? - dedi milisa.

- Shundan bo'lagamas. Uni bu yoqlardan izlab ovora bo'lmay qo'ya qolinglar. U sizlardan qo'rmasdi, bilasizlar-ku.

- Bilamiz, lekin... - Zokir milisa ovozini past-latdi, men qo'ltingbзim tagidan uning oyim tomonga engashib bir nimalar deyayotganini qo'rdim, - lekin Siz kechagilar bekorga kelgan deb o'ylamang.

- Ularni atay... yuborishganmi?.. - dedilar oyim.

- Buyam... kishi ko'ziga, - dedi u ovozini yana ham pastlatib.

- Voy, tuzoqmid?

- Ha-da.

- Voy, o'lmasam, - Oyim yuzlarini changalladilar,- Hali shunaqqibam tutadilarni?

- Tutadilar, - dedi u.

- Boyaqish jarimiz. O'z yurtiga qaytishga ham ruxsat yo'qmi?

- Siz nima deb o'ylovingiz, gunohlari kechirilganmas, - dedi u o'sha-o'sha past ovozda nimadandir hadiksiragan kuyi. Ora-chira hovliga ko'z tashlab qo'yadi. Mendanmi, kimdan hadiksirayapti.

- Voy, xudoyim, tutsalaroq qamaydilarni? - dedilar oyim o'takalari yorilib.

- Qamash ham gapmi, omonlik yo'q unga. Shuning uchun, - dedi u yana ovozini boyagidek pastlatib, - esi borida...

Oyim hayron qoldilar:

- Nima, esi borida?... O'zi yo'q odam qanday etagini yopadi? Unga biz qanday yetkazar ekanmiz bu gapni? - deb tikildilar. Hatto men bir quchoq istak qo'ltingimda yerga cho'kkalaganimcha qolgan edim: nahot uning kelgani rost? Biz bilmagan narsani bular qaydan bilaqolbibdi?!

Milisa tomoq qirib, men tomonga alanglab oldi. Bunga sari men hech narsadan xabari yo'q odamdek ishga mashqibulman.

U boyagidek shipshidi:

- Siz menga ishoning. U chegaradan o'tdi degan gaplar bor. Bo'lak odam bo'lsa kelib yurmasdim, ichim ham achimasdi. Shuncha mardliklar qilib yurgan odam... bekorga tuzoqqa tushib yurmasin. Bilib oling: bu gapni mendan eshitmadiz! Umuman, men bu yerga kelganimam-kirganimam yo'q. Qoramni ham ko'rmasidiz. Xo'p? Anuv o'gbilchangiz ham... eshitdiz-a?

Oyim allaqanday garangsib, shoshqich bosh silkidilar:

- Xo'p, opovsi, xo'p. Shu gap shu yerda qoldi.

- Xo'p bo'lmasa, men turdim. Mehmondorchililingiz uchun rahmat. Qaymogib durdalarining esdan chiqmaydi. Sogib binsam kelaveraman, maylimi?

- Voy, maylisi nimasi? Qaymoq sizdan aylansin, eshigimiz hamisha ochiq.

U allaqanday oshiqib, oyimning duoi fotihala-rida ham qaramay o'rnidan tura boshladi.

- Rahmat, endi orqamdan chiqib yurmang, - dedi u boshqa gapga o'rinn qoldirmay. - Men tekshirgani kelgan odamman. Har kim har xil tushunib yurmasin.

Oyim nochor dahliz o'rtasidayoq to'xtadilar.

- Xayr, Ollohnning panohiga, - dedilar xijolatlanib.

- Xayr, - deb u zinamizga chiqib keldi. To'xtab o'sha yerdan keng hovlimizga, ochib qo'yilgan-u, toklari ko'tarilmagan ishkomlarimizga, devor bilan bo'y talashib o'sgan behilarimizu yana bu yodda bo'rtib yotgan ertangi gilosimizu govmichchadek qizarib, gibilchabal kelayotgan o'rikka suqlanib-havaslanib qoldi. Negadir ko'zini yumib, (huzurlanibdir balki) yuzini ishqab qo'ydi.

Va men - quchogibimda bir dasta istak, uni ko'ksimga bosgancha hayratlanib turganimni ko'rib, issiq jilmaydi. Va shu issiq jilmayishida o'zimga judayam tanish-boshqa birovga o'xshab ketib, meni yana ham hayratda qoldirdi. Subhanalloh! Ko'z oldimda tamomila boshqa birov - bizga yaxshilik sogibinib kelgan ko'k to'nli, bo'ydon odam turar, u akamning qay bir yigitlaridan biriga juda-juda o'xshab ketar edi. Bunday hushqad, istarasi issiq kishini qachon, qaerda ko'rgan ekanman?

Esladim.

U nimasi bilandir rahmatli Haybat akamga juda-juda o'xshab ketgan edi. Tavba. Qanday qarindoshchiligi bor ekan ularning? Balki hamma mard, tanti yigitlar ham vaqt kelib, shunday ko'rkam, xushqad tortib ketarmikanlar? Yuzidan nur yogibilishini ko'ring buni. Kim aytadi uni Zokir milisa deb, hech kimga el bo'lmaydi, deb? Boya kelgandagisini ko'ringu hozirgisini ko'ring. O'zi nima voqeja yuz bera qoldi?

Hushim o'zimga kela qolmasdi.

Va shunda birdan ko'zimga nima ko'riniq ketdi deng?!

Mol boqqani tushganimizda tepalarning yonbagibirlarida, eski chaldevorlar kavaklarining shunday takkinasida piyoz po'stidan ham yupqa, lekin bor bo'yicha yarqiroq etini tashlab ketgan - ilon po'stini ko'rib, "voh, buni qara"lab yuborar edik. Hozir shu ko'z oldimga kelib ketsa-ya, tavba. Nega, tushunolmasdim: ilon-ku po'st tashlashi mumkin, lekin odam ham... o'zgarib qola olar ekanmi?

Sabru Jamiil (mahfuz xatlar davomiga)

Kunlarning suvdek oqub o'tushini ko'rung. Kecha Maqsudxo'ja qaynum ilinib, bir hovuch oq o'rikning gib rasinu terib keptilar. Jonivor dumbul bo'lib qoliptu deng. Voy, qayuttan topdiy, qayutta oqaribtu, - deb quvonub kettim. Xalutdan bir ajoyib oqara boshlab, danak qoraytubdi. Kichigoyumlar bilan omonluq-somonluq qilduk. Keyun hovludagu gilosnu uzduk. Huzurini qush ko'rguncha biravlarning ogibaziga tegsun, dedilar. O'zi ikkinchi yil gullashi ekan-u, mush-mushakon qiptu, bargidan mevasu ko'p. Ollo barakasini yogibdursa, shunaqa bo'larmush, Kichigoyum aytalar, ogibazum ochilub qoluptu. Maqsudxo'ja erinmay gilosniyam, barginiyam sanab edular - ko'p chiqdu. Yeganimuz, qo'shniga chiqorganimuzdan tashqaru yana bir paqur bozorluq chiqdu. Bir chiroylu o'tirib eduk, qaerdan keldi balo ertalabdan?...

Ular bozorga ketishgan, men hovlu supurar edum. Hali kun yoyilub, hovluni o'pmay turib, kim ko'chadan chaqirub kelaverdu:

- Hov, Salompa?! Kim var?! Bir jan varmu?!

Birov eshik zulfunu uzgudek taqullatsa, jonus tovonumga tushub ketuptu. Ovozidan dala qorovuli - anuv chulchutga o'xshardu. (Uvatga yaqinlashgan molnu dumini kesub, o'zini otxonaga haydab ketadurgan). Xoxolmu, chunchutmu, ishqilub Xudoning boshlu-ko'zlu bir balosi. Nega kelibdu, zo'r berub kichigoyumlarni chaqirub yotibdu? Aqlum yetmasdu...

- Varmu javap, yo'qmu javap?! - Eshiknu itarsa deng, sarxoklari duv to'kildu-tushdu. - Qani u ishga chiqadugan kelun?

Voy, halu shunga ekanmu, deb qalturab kettum.

- Apkettum malinu!

Oyoq-qo'lim bo'shashub tok tagiga o'tirub qopman. Qalt-qalt titrayman faqat. Menu deb bularga shuncha zugibum! Qayoqdanam keldum?

Hoy, to'xtang, deb orqasudan chopgum boru... qani ovozum chiqqa qolsa, o'rnumdan tura olsam!..

Xudoning gibazabi ekan-ku, bulariz. Hajjoji zolum nimayu bular nima!

- Shoshumang, opketumang, - deb chopgan joyimda... qo'shni devor rahnasidan Rixsi opoqi ko'rinxub, jovullab berdilar:

- Hoy, noinsof, hoy, yashshamagur! Molga tegma, egasi kelmasdan tegma! Bir mushtiparga kuching yetdimi sanlarni! Tort, harom qo'lingni! Hoy, Umar, qarang anavi chulchutga. Yetaklab ketyapti, yashshamagur.

"Voy, manu deb opketyaptimu, nimaga opketadu"lab yugurgilab chiqsam, u yoqdan Islom amaku, bu yoqdan bosh-qa qo'shnilar yetub kelishibdu. Qo'rqnaskan-a! Molnu tashlab, ketishuniyam, ketmasuniyam bilmaydu! Shuning ustiga past ko'chaning qayrilishidan boshqa bir otluq chiqub kela boshladu. Unu egarda qiyshuq o'tirishidan tanub (U o'sha qorayaloq - cho'loq odam edu!) ichum sidirilub, bir xil bo'lub ketubman! Sizga yolgibon, Xudoga chin, nazarumda u mana bu chulchutni yuborib qo'yib, orqasudan o'zi kelmoqdaydi. Ichum shuvullablar ketdu. O'lumbiz, sigirdan ajrabmuz, menu deb olib ketishadu, ularni shu kunga

qoldirishadu deyman-u, nima qilarimnu, nima deyarimnu bilmayman. Bir qaltiroq bosub, kichkina tortub ketyapman. Yo'q, u yetib keldiyu... (voy, nega osmon uzulib tusha qolmadu, nega yer yorulub, yerga kirub keta qolmadum! Ko'rmasdumam, kuymasdumam!) shuncha odamning ichida uyatlarga qoldirub, bizni himoyamizga o'zi yuborgan chulchutni so'ka ketsa deng! So'kkanda ham bo'ralab so'kar, hammadan uyatlusi - atrofdagilar, qo'ni-qo'shnular uni nimaga so'kayotganini anglab, hech narsa bilmagandek jim-jim, burilub ketmoqdaydilar, tarqab ketmoqdaydilar.

U esa, qorayaloq esa:

- Hov, it chulchut! Senga kim buyurdi, bir beva, bir boyaqishni zor qaqqhat, molini yetaklab ket deb?! Harom burningni suqmagan shularnik qoluvdimi! - deb ustiga ot solib, qamchulab ketgudek bo'lar edu.

Chulchut bo'lqa, xushi uchub serrayub qoptu. Qani tili aylansa, kim buyurganinu ayta olsa. O'zi buyurib o'zi so'karini qaydan bilsin. Axiyri bir nimalar deb g'b'bo'ldirab edu.

- E, "var"lamay ket! Yo'qol! - deb so'kub tashladu.

Qo'shnular oldida nima degan odam bo'ldum? Menu deb, o'zicha nimalarnu o'ylab, shu yergacha keptu? O'rtaga tushib yuruptu. Ko'rganlar endu nima deydu? Kichi-goyum nima deb o'laydular? Kelsangiz kela qolmaysizmu, Sultonmurod akajon? Qanday kunlarga qoldum?! Shularnuyam pardai ismatdag'i qizu, kelinu bormukan? Yuzini sidirub tashlab kelaveradumu?

Qanday sharmisorlik?! Jiyaru orqali so'ratgani kamday, o'zinu xomiy ko'rsatub, oraga tushub keptu. Yer qanday ko'taradu bundaylarnu?

Ichkaru kirib ketub, yig'b'bladum-siqtadum, o'zumdan o'tganuni o'zim bildum. Qani bosh urub boradurgan bir yerim, bir suyanchuqlarum bo'lqa, bir kun ham turmasdum bu yoqlarda. Ilojsizman, benavo-bevatanman, qaerga ham borardum? Yoki Olloh shunday sinayaptimu?

Oyum aytardilar, chiroylu sabr etganlarga chiroylu ajr bor, deb. Ilojum qancha! Sizga yetishmoqning boshqa yo'lini

topolmayuturman. Tishumni tishumga bosub, sabr etsamgina Siz kirub keladigandeksiz. Ungacha barchasi imtihonga, mening sabrums, nomus-orumni sinashga o'xshaydu. Hammasini Olloh ko'rib-bilib turgandur. Pokligumniyam, sidiqligumniyam, barcha xo'rliklarga miq etmayun, chidab o'tirganumniyam.

Kichigoyumgilar kun yoyilganda kelishdi. Yo'lda bir uchini eshitibdilarmu:

- Nima bo'ldi, nimaga kepti, Ollohning qahriginasiga yo'liqqr? - dedilar.

To'lib turgan edum, quchoqlab olub, shu yig'b'blab berdum, shu yig'b'blab berdum. Negaliginu aytolmay: "Menga javob bera qoling, kichigoyujon, keta qolay, qoramni o'chira qolay shularning ko'zidan. Sizlaram tinchigaysiz, menam" derdum. "Jon kichigoyujon, shahargamu, bir yoqlarga jo'nating. Kasrum urmasun, jadumga qolmangiz", deb uvvalo yalinardum, o'tinardum. Ammo u kishi menu siltab tashlab, urishib berdilar:

- Qanaqa kasriz, qanaqa jadiz?! Sizda kasr nima qilsin, kelinposhsha? Qayoqdagi gaplarni gapiryapsiz? Men sizni xo'rlatib qo'yarkanmanni! Yana bir marta oyog'b'ini bossin shu yoqlarga, o'zini qaerda ko'rarkin! Sultonmurod ketib, bosar-tusarini bilmay qoptimi! Shoshmay tursin hali.

- Qo'ying, kichigoyujon, o'shalarga teng kelmang. O'chakishmang. Javr sotub olub, jadumga qolmang, - deb yalinardum men.

- Qanaqa javr?! - dedilar u kishi, - hech yoqqa ketmaysiz. Sultonmurod kelguncha qum-toshdek o'tirasiz shu uyda. Dalasiga ham chiqmaysiz, ishigayam bormaysiz! Ordonalar qolsin dalasi! Kelsa, mana men turibman, menga uchrasin. Boring, uyizga kiring. Behuda xayollarni boshizdan chiqarib tashlang. Bitta kelinimni asrab o'tirommasam, men kimman?

Tilla xolanguz borakanlar. Aqlu hushimni joyuga keltirub qo'ydular. Rostdanam shularga uchramaganumda holim nima kechardu ekan?

- Keling, choy ichovuz. Maqsudxo'jam bilan zo'r churrak nonlar opkelganvuz. Unuting hammasini. Orqaga tashlamasa, bu dunyoda yashab bo'larkanmi, - deya qo'yarda-qo'ymay choyga olib chiqdular-da, choydan keyin esa Maqsudxo'jaga bir ish buyurub, xoli olub qoldular.

- Aytmoqchi, anuv namoz nima bo'lyapti? Turyapsizmi? - deb so'rab qoldilar.

- Qaysu? - dedum dabdurustdan anglab yetmay.

- Yarim tundagi-chi?..

- Unimu, qodir qilgancha... o'qiyapman, - dedim uyalub.

- Yo'q, siz uzmay, bo'lmay o'qing. Har kecha o'qing. Sizga eringiz kerakmi - o'qiysiz! Yig'b'blab so'raysiz O'zidan. Bir kecha emas, o'n kechamas, qirq kecha turib so'raysiz. O'z oyog'b'ini bilan kirib kelmasa - aytung! Olloh bo'ladi-yu, yig'b'blab so'raysiz-u, yetkazmaydimi?!

Shu gaplar bilan o'sha namozga turadurgan bo'ldum. Yarim kechadan o'tganda tahoratlar qilub, o'zumnu tayyorlab, sakkiz rak'at namoz o'qiyan-da, joynamoz ustuda Ollohumga munojotlar qila ketaman. Qaerda bo'lsangiz ham hifzu himoyasiga olishunuyu ko'nglingizga yurt sog'b'inchinuyu bizlarning sog'b'inchimuznu solub, bu yoqlarga otlantirishinu, aziz boshingizni toshdan etub, omon-eson yetkazishinu so'ray boshlaymanu yig'b'hi ham ich-ichumdan toshub kelavuradu, toshub kelavuradu. Tepamasjiddan azon chaqirgunlarucha shu o'tirishum - o'tirish. Shu yig'b'bum - yig'b'hi.

Keyin turib, yuz-ko'zlarumni chayub, qayta tahorat olub, kichigoyumlar bilan bomdod o'qiymiz.

Shunday kunlarning birida yana ertalab, yana ular bozorga ketushgan mahal eshigumiznu bir paranjuli xotin chaqirub keldu.

Ichkaru kirib boshidan paranjusunu olub edu, judayam ko'hlik, kelishgan juvon ekan. Bizdan ulug'b'rog'b'bu, lekin yasan-tusani joyida, aynuqsa, duxoba nimchasi qarg'b'ashoyi ko'ylagi bilan yig'b'blab ko'rishgan edu.

- Kelung, opajon, - dedum.

- Yaxshimisuz, opovsi, - dedi u ham yelkamga qoqib-ko'rishub, - siz adashmasam, Salom xolamlarni kelinlari bo'lasiz, shundaymi?

- Shunday, - dedim iymanib-tortinub.

- Tabibchilikdan xabariz borakan, - dedi u o'sha-o'sha tusmollab.

- Biroz... Lekin men bu ishnu bo'ynumga olgan emasman, opajon, - dedim rostiga ko'chub.

- Mayli-da, kelinposhsha, so'radi-m-da, - dedi taskinmi-tasallumi berib, so'ng yana qaytarub. - Aybga buyurmaysiz, qaerdan bo'lasiz, - dedu.

Men aytub edum, to'gb'hi topib kepman, rost aytishgan ekan, deb qo'ydu. Nimaga bunday deyaptu, kim yuborgan, so'rashga til qanu, lekin ichum toshub ketmoqda. Nazarumda, biz uchun bir suyunchilug'b' xabarlar, chiroylu mujdalar olub kelganday.

- Adashmasam. Iqbor otinnikiga Marg'b'bu qizining suvratida borgan ham o'ziz, shundaymi? - dedi u hamon shirin jilmayishinu qo'ymay.

- Iltimos qilishub edu. Men bu ishlardan bexabar borub qolubman, - dedum.
- Qaytaga savobga qopsiz, kelinposhsha, - dedu o'zinu yaqun olub.
- Kelung, - dedum niyatuni bilgum kelub. U boyagudek shirin jilmaydu.
- Sizga bir yumush chiqib qoldi, kelinposhsha, - dedu haligudan ham o'zinu yaqun olub. Ilojuni topsa, qulogbhumga aytsa. Men ham uni yoqtirub qolgan edum:
- Zarur bo'lsa, jonus bila, - dedum.
- Borasizu qaytasiz.
- Qaerga, uzoqmu, - dedum.
- Yo'q, shu yerda, shu tapaning orqasida. Hovlimizga o'tavuzayu o'zim opkeb qo'yaman.

Tavba, nimagadur ichum tushib, borgum kelub turibdu.

Chindan o'ziz chaqirtirgan bo'lsanguz-chi? Yo chopar yuborubsizmukan? Qani, so'ray olsam?!

Oldinma-ketin borayapmiz ikki paranjiluv. Juvon oldinda, men ergashub. Ko'chada zogbhum yo'q. U sochvonini bir chiroyluv orqaga tashlab olgan. O'zi ham yuzi ochiqqina, jilmaysayoq kulgichlari o'ynab bir chiroyluv tortub ketadikan. Bir ko'rgandayyoq yoqtirub qolubman, ham ishonub ergashub borayotganumni aytning. Men unga maftun, u menga maftun. Har qadamda o'girilib:

- Kelyapsizmi, kelinposhsha? - deb qo'yadu, bu ham yetmaganday shirin jilmayub, tasallular beradu, - hozir yetovuz. Boravuzayu qaytovuz. O'zim opkeb qo'yaman.

Aytganday, Tepamasjiddan oshub, pastga ketgan yongbhum qo'chaga burulduk. Qachon ekilgan ekan, har yon-gbhum qoqlarki, osmonu haftumda ishkomday tutashub ketgan. Bu yongbhum qanday qoqib olishadu - aql bovar qilmaydu. Ularning ustida zargbhum qoqlarlar bir chiroyluv biyov-biyovlab sayrashub yotishibdu. Bogbhum hovlularning etagidamu, qaysibir chakalakda bulbul chah-chahlab qo'yadu. Qushlar shunaqa emin-erkin, bogbhum shunaqa soya-salqin. Jannatmu bu yer, deysiz.

- Yetduk, kelaqoling, - deb yo'l boshlovchum yakka tavaqali pastak eshik ostonasida boshidan paranjusini oldu.

Yurakum bir orziqdiyu yana o'zumni bosib oldum: nimaga yuzini ochyaptu, sizlardan qochmaydumu? Kim bo'lsa ekan u Sizga? Xayol qurgbur har yoqlarga olib qochedu. Axir Sizga tegishluv bo'lmasligi ham mumkin-ku. Bu ko'hluk juvon menu avrab olub kelutgan jin bo'lubi ham mumkin-ku. Men laqma laqqa tushub kelub o'tirubmanmu?

Yurakum taka-puka bo'lub, yana bir qadam bossam bo'yra tashlangan chohga tushub ketadugandekman. Or-qaga qochub-qocholmayman, uchub-uchub ketolmayman.

- Voy, o'z uyizday kiravuring, qo'rwmang. Sizdan ikki ogbhum tizgina gap so'rashadi, xolos. Keyin o'zim oborib qo'yaman, tortinmang, - deb qistardi juvon.

Men esam, kim so'raydu, nima so'raydu, bilsam o'lay, boshum gbhum qo'rovlab, esum ogbhum boryaptu. Bir kami so'roq berushim qolgan ekanmu! Kimga, nega - bilsam o'laqolsun agar.

- Kelavuring, tortinmang hech, - deb tasallular berib, juvongina meni ayvonga boshlab ketyoptu. Kuraklarumni silab, yelkamga qoqub qo'yadu, daldalar beradu, - yuzizni ochmasangiz ham mayliga. Shunday, eshik oldida tursangiz, bas. U kishi ichkarida, parda ortidalar. Yuzizniyam, o'zizniyam ko'rmaydilar. Faqat ikki ogbhum o'zingizdan eshitmoqchilar. Juraqoling.

Nihoyat zinadan ko'tarilub, aytulgan eshik oldida to'xtaduk. Men paranjuga o'ranub, sachvonumnu tushurib olganman. Birov ko'rib, tanub qoladigandek bandagimnu tortub, juftlaganum-juftlagan.

Juvon eshiknu qiya ochub, ostonada turgancha ichkariga ovoz berdu. Men shift barobar tortilgan oq surpdan bo'lak hech narsa ko'rmasdam. Parda ortida kim bor - uni ham bilmasdum.

- Adasi, biz kelduk. So'raydiganizzi so'ray qoling.

Bu gapni eshitub hushim uchdi: Kimning ayoli ekan bu juvon? Hali erining topshirugbhum bilan borgan ekanmu?

Ichkarudan qiroatlu ovoz keldu:

- Yaxshimisiz, yanga? Uzr, bezovta etub qo'yduk.

Begona erkak ovozidan kapalagum uchub, sapchub tushdum. Xuddi u kishi menu ko'rib turgandek edu, eshikdan nari tisarilubam kettum.

Juvon dalda bo'lsin debmu, men tomonga chiqub kelarkan:

- Voy, adasi, kelinimiz hali yosh, popuvdek ekanlar, kelinposhsha deyavering, - deb tushuntirish bergan bo'ldu.
- Uzr-uzr, ming bor uzr. So'rang-chi, Sultonmurod oshnamizdan qanday xabarlar bor ekan? Bilganlarini aytunlar, xotirjam tortayluk, - dedi u.

Men Siz haqingizda biron mujda eshitamanmu yo biron chopariz borakanmu deb o'pkamnu qo'lqulab kelub edum. Bu kishi mendan so'rayotganuni eshitub, tarvuzum qo'lqulab humdan tushdu. Va shu zahotu uning gaplaridan boshqa hikmat, boshqa taskin topganday bo'lum. Oshnamiz deyapti, begona emaskan-ku. Oqibati borki, hamiyat qilub chaqirubdu. Odam yuboribdu. Shunisiga-da, shukr.

- Aytning, aytavering. Sizni ko'p ushlagmaydilar. Eski tanishliklari haqqi so'rayaptilar, - deb tushuntirar, shivirlar edu ayoli.

- Nimayam dey? Kelushlari kerak edu - sarhadlar berkilub o'tolmay qoldularmu, - deya oldum.

- Ollohar kishining mushkulini o'zi oson etsin. Oshnamizning yo'llarini ham ochsin, ilohim, - deb duo qildi avvaliga. Duosidan juda mutaassirlandum. So'ng dedi: - Kelin, Siz ko'pam gbham yemang, u tegirmonga tushsa butun chiqadiganlar xilidan, xudo xohlasa, kelibam qoladi.

Ko'pdan hech kimdan bunday shirin so'z eshitmagan edum, ko'nglum bo'shashub:

- Rahmat, mulla aka. Farishtalar omin degan bo'lsunlar, ilohim, - dedum.

O'rtadagi begonalik ko'tarilub, qayqqadur chekilgan edu. U kishi otalarcha mehribonlik ko'rsatub bir nimalarnu so'rар, men baholu qudrat javob qilar edum. Nazarumda parda ortida oq soqolli, yuzlaridan nur yogbhum bilgan bir mo'ysafid o'tirgandek edi.

Faqat tushunmasdam: nega meni boshlab kelgan bu ko'hlik juvon adasi demoqda, cholga tushgan ekanmu deyman. Balki otasidur chalkash eshitgandurman. Yana ishtibohga tushaman: Unda nega oshnamuz demoqda Siznu? Hech tushunuksiz. Parda ortida qay holatda o'tirubdu yo turibdu - unisiniyam bilolmayman. Faqat qiroatluv ovozidan o'sha suvratda - mo'ysafid suvratida ko'z oldumda turibdu.

- Salomxon xolanikida ekansiz. Ishonchli joyda. Qalay o'tiribsizlar? Xola bardammilar, haliyam mashinachilik qilyaptilarmi? - dedi u.

- Qilyaptilar. O'tiribmuz bir navi, - dedum. Nimanu so'rarkan - hech aqlum yetmaydu.

- Bemahalda ayol kishini chaqirib keltirish - o'ng^Baysiz. Tushunarsizlar, deb o'ylayman,- dedi to'r-dagi odam.- O'zidan so'rasangiz, inkor etolsa - etsin.

Shu barobar birov uning biqiniga nuqidi. Qarasa, Azlar tog^Bha. Kamiga qulogs^Biga shipshir edi:

- Odamni uyat-malomatlarga qoldirmay gapir. Seni deb... bo'lgani rostmi shu gaplar?

- Zo'rlamang, tog^Bha. Belda belbogs^Bi bo'lsa, aytadi rostini, qistamasangiz ham, - dedi kutilmaganda bularning valene'mati, o'sha sharti ketib, parti qolgan odam. Yana uning xontaxlit so'roqlariga o'lasanmi!..

- O'z og^Bzi bilan aytisin, gunohini bo'yniga olib,- bidirladi imom buning betiga qarashni ham o'ziga or bilib. Ana, pokdomonlik! Hammalari alag^Bda - u nima derkin deb. Yolgs^Biz sochli domla hurpayib o'tiribdi. Hamon o'z fikrida sobit. Hatto ko'z qirini ham tashlab qo'ymaydi. Unga osmondan tushgan anuv kitobning aytgani muhim, o'sha - qonun. So'zi so'ziga, sharti shartiga to'gb^Bri kelishi kerak. Likillamaydi mana bunisiga o'xshab. O'ldirsa ham shunday bir so'zlilar o'l-dirgani...

Akmal cho'loqni birdan vahm bosdi. Gunohi aniq, suykalib borgani rost. Lekin bunchalik og^Bbir gunohga bosh suqayotgani tushiga ham kirmagan bo'lsa-chi, jazolayveradilarmi? Bilib turib qilgan bilan, bilmay qilganning farqi bordir, axir? Bular bilmasa, Xudo bor-ku, biladi-ku. O'zi asrar manavi johil, muta-assib bandalaridan?

- Nima qilib qo'yanini o'zi bilmaydi shekil, bu Xudo bexabar, - dedi imom ko'k do'ppisini boshida aylantirib qo'yib va ham bilags^Bonlik qilib.

- Nega bilmaydi, baloni biladi bu enag^Bbar, - deb so'z qo'shdi Azlar tog^Bha irshayib: uning do'st-dushmanligini ajratib bo'lmay qolgan edi.

- Bilsa, allaqachon yer o'pib, kechirim so'rashi keragiydi-ku, - dedi imom.

Sochli domla imomga o'tli nigohini tashlab, norozilik bildirdi:

- Bizga uning tavbasi nega kerak? Tavbani Allohg^Ba qiladi. Kechiruvchi ham O'zi, jazo berguvchi ham O'zi. Biz kim bo'pmiz?! - dedi ovozi guldirab.

Akmal cho'loqning nazarida allaqayoqdan kun chiqib kelayotgandek, hozir unga javob bergizib yuborishadigandek edi: zo'r ekan-ku, bu sochli domla deganlari! Qolaversa, nega hamma unga yopishib qoldi? Kecha unisi, bugun bular? Agar hammalari adolat taraf bo'lsalar nega undan so'ramayaptilar? Kecha seni kim hafa qildi, g^Bbassolni taxtasiga tortib ketdi deb? Qozilik shularga qolgan bo'lsa, nega u nobakorni topib keltirmaydilar? Mana bu yerda tikka qilmaydilar?

Shu asno baland kelmoqchi bo'ldi:

- Olamni buzgan karnaychiyu baloga qolgan surnaychimi? Menga kechagisi ham yetib ortadi, - dedi to'rsayib, kamiga qo'shdi, - sen boyaqishni kim o'sha alpozga soldi, demayapsizlar-ku. Qozi bo'lsanglar, baravar odil bo'linglar-da.

- Nima gap, darvoqe? Nega biz bexabarmiz? - deb sheriklariga alanglatdi sochli domla.

Kulishni ham, kulmasini ham bilmay, kechagi voqeani tushuntirgan bo'lischdi.

- Qotirib ketibdi-ku, azamat. Hech kimning tushiga kirmaydigan tarzda. E, jiyan, o'lganlarimiz yaxshi bu kunimizdan, - deb chistonga olib, yarasiga tuz sepdi Azlar tog^Bha.

- U shovvozniyam chaqirtirmabsizlar-da shu yerga. Toza bo'lardi hangoma! - deb kului navkar yigit, o'sha Sa'dulla deganlari.

- Kerak bo'lsa chaqirtiramiz ham, - dedi bularning valene'mati, - ammo bu kishining foydalariga bo'lmaydimi, deb qo'rqaman. Qolaversa, shunaqa bejo harakatlarizzi evaziga olgansiz sazoyu jazoni.

- Men e'tiroz bildiraman, - dedi kutilmaganida Akmal cho'loq "somon parchasi"^Bga yopishib, - sizkim, adolatli qozi bo'lsangiz, aytинг: kishi gunohiga necha qayta jazolanmogs^Bbi mumkin? Shariatda bormi shu?

- Yo'q, - dedi sochli domla turqini buzmay, - bir jinoyat yolgs^Biz jazoni taqozo etadi, ortigs^Bbi ortiq.

- Menga ham kechagisi bir umrga yetadi, - dedi Akmal cho'loq. U nazarida adolat tarozusini o'z tarafiga og^Btdirolgandek edi. Uy ichida birdan g^Bb^Bovur qo'pib, kim hayratini, kim nafratini yashirolmay qoldi. Shu asno valene'mat atalmish haligi odam xontaxtaga shappalab:

- Shoshmang, taqsirlar, - dedi va shu bir og^Biz so'zi ila hammani tinchlanira oldi. - Bizning bu kishiga savolimiz bor: marhamat etib aytisinlar. Yo behuda chaqirilgan, deb o'ylayotirlarmi?

Akmal cho'loq noiloj qoldi:

- Yo'q.

U yana ajab bir bamaylixotirlik bilan davom etdi:

- Demak, o'zingizni oq-oppoq deb ham bilmagaysiz?

- Yo'q.

- Yaxshi. Endi bizga aytинг-chi, - dedi u yana, - o'z qizingiz yo jufti halolingizni o'sha mushfiqaning o'rniga qo'yib ko'rganmisiz hech?

U bo'lak javob topa olmadi:

- Yo'q.

- Uning otasi yoxud jufti haloli o'rniga-chi? - dedi u.

Akmal cho'loqning boshi tag^Bin-da, tushib ketdi.

- Xo'p, mayli, adashibsiz,- dedi u o'sha-o'sha sokin xotirjamlik ila,- bilmay, gunoh ko'chasiga kiribsiz. Lekin shular uchun bir kun kelib so'ralishingizni, Bosh qoziga ro'baro' bo'lishingizni bilmaysizmi?

- Kimga?! - dedi Akmal cho'loq tushunolmay.

Yarimta odamning yupqa labiyu oftob ko'rмаган yuzida achinish alomatlari zohir bo'ldi:

- Demak... demak, Bosh qozi mavjudligidan tamom bexabarsiz?

- U kim, qaerda?

Cho'kkalab olgan imomning ham yuzlari allaqanday qorayib ketgan, sochli domlaning esa boshlari tushib ketgan edi. O'rtaga cho'kkan sovuq jimlikni o'sha yarimta odamning o'zi buzdi:

- Taqsirlar, kechirasizlar, bu javobdan keyin mening yigb'Tlagisim keladir. O'zini hoynahoy musulmon sanab yurgan bir odam erta birisi kun o'larini, shu o'lgancha nomai a'moli berkilib, qiyomatda tirilarini, Mahshargohda esa hamma qatori Bosh qoziga ro'baro' bo'lарини unutган. Barcha qilmishlari uchun javob beradigan kun borligini hech kim esiga solmagan. Biz qanday qilib uni hukm eta olamiz? Uni Ollohnning o'ziga havola etmakdan bo'lak qanday choramiz bor?
 - Bor, - dedi kutilmaganda ovozi guldirab sochli domla, - Ollohnning Kitobi ila hukm etamiz. Pokiza bir mo"minaga tuhmat qilgani uchun sakson darra urmoq joiz. Ana shunda Ollohn taniydi, - dedi u.
 - Shariat ustivorligi uchun ham joiz, - deb bidirladi imom.
 - Isboti-chi? - deb yubordi jon achchigb'Tida Akmal cho'loq turib ketgudek bo'lib. Nazarida, hoziroq opchiqib, darra ostiga yotqizishadigandek edi.
 - Yuzlashtirilur, - dedi imom.
 - Topib kelsinlar, o'sha da'vogarni, - deb yul-qindi Akmal cho'loq. U endi esini ham yo'qotayozgan edi.
 - Yaxshi, - dedi kutilmaganda to'rдagi haligi chakmonga o'ralib, yostiqlarga ko'milib o'tirgan bedavo kimsa, kaftini xontaxtadan tushirib. Tizzasiga oldimi desa, tizzasi chakmon barlari ostida bilinib-bilinmas edi. Shunaqa kichkina tortib ketibdi, - Tan olmasa, olmay tursin. Hech kim zo'rlab tan oldirmoqchi emas. Lekin gunohini, hukmini bildirib qo'ymoqdamiz. To'gb'Tri yursa - yurdi, bo'lmasa, qaltis qadam bosgan kuni oyogb'Tini yerga tekkizmay bir karra tutib keltirmoqб'Timiz va shu kungi hukmni ijro etmogoб'Timiz ta-yin. Qolaversa, ul ojizaning xasmi, pushti panohi Sultonmurod qaytmoqda degan gaplar bor. Jazoni o'ziga qoldiramiz.
- Akmal cho'loqning boshidan olov chiqib ketdi.
- Sulton? Qachon, qaerdan? - deb yubordi o'zi bilmagan holda.
- U tiz cho'kib o'tirgan joyidan sapchib ketganmidi, boshqami, vujudini bir yomon, to'xtatib bo'lmas titroq bosib kelmoqda edi. Unga hech kim javob bermadi.

Moshaalloh!

- Shoshmang, shu yerda to'xtang, Saida,- dedim sab-rim chidamay. Men bir narsalarni anglagandek, o'sha Adolatpeshaniyu uning Bonusini tanigandek edim; bu anuv ko'hlik juvon - erining gunohini so'rab kelgan poshsha kelin emasmi axir? Va shosha-pisha o'rnimdan tura boshladim:
- Oyim yotib qolmadilarmikan?
- Vой, adasi, allamahal bo'lib ketdi-ku. - dedi xotinim
- Shuncha voqealar o'tib, oyim bilmaydilarmi! Bilishlari kerak. So'rab borgan u juvонни ham, erini ham! - deb uydan chiqaverdim. Chiqsam... oyimning uylarida chiroqlari yonuq. Ba'zan shunaqa yarim kechalarda turib ko'zoynakni qiyshiqroq taqqancha, otinoyilaridan qolgan Qur'oni hij o'tirgувчи edilar. Hozir ham... borib qarasam, o'sha kitobga chippa yopishib o'tiribdilar. Men esam, eshikni ocharimni ham, qaytib ketarimni ham bilmasdim. Ochay desam, chalgб'Titishdan xijolatdaman, ochmay desam, ichim гб'Turmishlab yotibdi. Nahot o'sha yarimta odam o'zi qolib - birov larning tashvishi bilan yashay olsa? Buning ustiga Sultonmurod akamning nomidan ish ko'rayotgan bo'lsa?! Muddaosi nima? Jilla qursa, oyim bilsalar kerak bu tarixlarni? Nogoh qayrilaturib, oyogb'Tim ostonadagi jomga tegib ketdi. U esa daranglab zinaga, undan hovliga tushiib, dumalab ketdiyu bir yerga yetganda o'nglanib, lapanglay-lapanglay tindi. Tingani ham bor bo'lsin, shovqini yetti mahallani tutgan edi. Ichkaridan oyimning ovozlari chiqdi:

- Kim, kelinposhsha?
- Men, oyi, - deb ovoz berib kirib bordim. - Yotganiz yo'qmidi?
- Kel, tinchlikmi? - deb u kishi ko'zoynaklarini olib, kitob betini yopdilar. Men ko'rпacha ustiga tiz bukdum.
- Esingizdami, oyi, Sultonmurod qaytibdi, falonchini unday qipti, pistonchini bunday qipti, degan gaplar chiqqan-u, ammo o'zi qorasini ham ko'rsatmab edi? - dedim.
- Oyim kitobni jildiga sola turib, ilkis qaradilar, qo'llari jild ichida qotdi:
- Nima, chindan o'zi ekanmi?
- Qayoqda! Tamomi boshqa birov, aytSAM ishonmaysiz, - dedim hamon hayratimni ichimga sigb'Tdirolmay.
- Qo'y-e, shunga ishonib o'tiribsанми? Kim yurak yutib u ishlarga bosh qo'sharkan, - deya o'tirgan joylaridan uzalib, jildni tokchaga qo'ydilar.
- Esingizdami, bir ko'hlik juvon erining gunohini so'rab kelib edi, eski uyimizda?
- Qachon? - Oyim xotirlay olmay, yuzimga tikildilar.
- Akam shu yerdaligida. Bahriдин oshnasining qotillarini topib, jazosini berib yurgan kezlar.
- Parpini aytasanmi? Uning xotinidan bo'lak kim kepti?
- O'sha-o'sha, otning qashqasiday tanish o'gb'Tri. Topdiz, oyi.
- Yo'gb'T-e, yarimta holiga-ya? Akang uni qay holga solib, Bahriдинning janозасига olib borganini ko'rмаганмисан?
- Ko'rganman, - dedim men.
- Qaytib, qanday odam bo'pqopti? Asta'firullohil azim, qayyoqdagи gapni gapirasan? - Oyim ko'ksilariga tuf-tuflab qo'ydilar.
- Shuni aytинг, hamma Sultonmurod qaytibdi, deb o'trsa, u ekan...
- Sen qaydan bila qolding? Uyga kirib o'tirib qolgan, deb eshitardik-ku uni.
- Yana nima deb eshitar edingiz, oyi? Qaerda turishardi? - Men sandalga ko'ksimni berib, qistay boshladim. Keyin kirib kelgan Saida ham bu gaplardan esi oгb'Tiroq bir chekkaga cho'kdi.
- Qaerda bo'lardi, o'sha tepaning ortidagi ko'cha ichida-da. O'rikzorga yetmasdan edimikan. Lekin birov o'shandan beri ostona hatlab, ko'chaga chiqqanini ko'rgan emas, bolam. Hatto mushtipar onasi qazo qilganda ham bel bogb'Tlab turolmagan, holi ma'lum-ku. Faqat eshik-derazalariga parda tortigb'Tliq bir chillaxonaga o'xshagan uyda kitob ko'rib o'tiradi emush.
- Qanaqa kitob, balki Qur'ondir? - dedim tusmollarim to'gb'Tri chiqayotganidan hovliqib.
- Balkim. Shayxim qori aka kelib, ibodatga tushirib ketipti, savobga qopti, degan gapni ham eshitganmiz. Qiyin-qiyin - o'sha ko'hlik xotiniga qiyin bo'lgan. Ayol boshi bilan o'sha yarimta erni shuncha yil oq yuvib-oq tarab kelyapti.
- Keyin-chi, oyi, keyin nima bo'lgan?
- Nima keyin?

- Zilziladan keyin-da, qayoqqa ko'chishgan?
- Qurbaqaobodga bo'lsa kerak, - oyim yaxshi eslay olmay yuzlarini siypab qo'ydilar, keyin xotirlab qolib, tushuntirdilar, - Ha, darvoqe, ko'chishga qudrati yetmay do'mga chiqqanakan, eski oshnalari eshitib, uchastkasini bitirib berishganmush. Ko'chganmi-ko'chmaganmi, bilolmadim.
- Ko'chgan bo'lsa, qaerda bo'ladiyu, ko'chmagan bo'lsa qaerda, oyi? - dedim ichim yorishib kelib. Men uning izini topgandek, topayotgandek edim.
- Bilmadim, bolam. O'tirib qolgan odam ertasini o'ylasa, uchastkaga ketsa kerak. Do'm yoqib qolmagandur. Sen yaxshisi pochchadan so'ra, bilishlari kerak. Hammalari o'sha tomonga ko'chishdi-ku.
- Yaxshi aytdiz, surishtirib ko'raman, - dedim-u, boshqa yangilikni - o'sha yarimta odam Mahfuz kennoyimni chaqirtirib, ba'zi narsalarni surishtirganiyu akamning ayolini o'z himoyasiga olmoqchi bo'lganlarini aytolmay turibman. Yo'zlari bilarmikanlar? Tepamizdag'i chiroq hamma yotib bo'lgan bir kechada yana ham yorug'bo'rtib, oppoq nurini ayamay sochar, jumit kechada nur o'lchagichmi, nimadir shig'billab aylanar edi. Tashqarida esa, uyqu bilmas ko'klam shamoli huvillab, bo'gb'otlarga urilar, hovlidagi yalang'boch shotutlaru gilos tuplarini chayqatib, o'pib o'tar edi.
- U kishi bir sira bizga-da hamiyat qilmoqchi bo'lgan ekan, Mahfuz kennoyim shu yerdaligida, eshitganmisiz?

Oyim bosh to'lg'badilar:

- Xabarim yo'q. Lekin anuv baloginaga yo'liqqur Akmal cho'loq tirg'balib yurgan kezлari shunga o'xshash bir voqealar bo'lganmidikan?
- Eslang, oyi, eslangu, o'sha qanday voqeа edi? - dedim qistab.
- Kimdirmi, kmlardirmi juvonnimargning o'zini Tepamasjidning tovutxonasiqa qamab ketgandi. Men akangni yigitlarimi, deb o'tirardim. Shuncha voqealar o'tib bizga miq etib qo'yungan kennoying o'sha kezda... shaharga tushib chiqaman, deb yo'q bo'lib qolib edi-da, bolam.

Oyim shu gaplarni aytayaptilar-u, men ichim toshib o'tirgancha goh Saidaga im qoqib, goh aytavuraymi, deb shivirlayman. U bo'lsa, bir menga, bir oyimlarga qarab, yelka qisadi.

Axiyri o'zlarini sezib qoldilar:

- Ha, Maqsudxo'jam, nima gap? Nimani aytolmay turibsizlar?
- Rost, aytolmay o'tiribman, - dedim yorilib, - suyunchi bering, o'sha keliniz topildi!
- Moshaalloh! Qaerda ekan? - dedilar oyim bir yerga yetib. - Otasining yurtiga o'tib ketgan ekanmi?
- Yo'q, oyi, shu yerda, qo'l uzatsa yetgudek joyda ekan! Ishonasizmi?
- Qanday? Kimni qora tortib borib qolibdi?
- Akamning hov bir oshnasi bo'lardi, pochchanikida turganda topishgan, Chaman degan...
- Anavinda senga xat tashlab ketganmi?
- Ha, o'sha. O'shanikiga borib, turib qolgan ekan.
- Uni qaydan bili? Qanday topib boribdi?
- Bilmasam, - dedim hammasini aytib, yuraklarini yorib yuborgim kelmay, - Qolaversa, anuv kungi bolakay - shirintoy uning o'gb'li edi.
- Voy, o'lmasam! - dedilar oyim yuzlarini kaftlari orasiga olib. - O'gb'li deysanmi?
- Ha, oyi, ularnikida boloxonada turishadi ekan.
- Akang Sultomurod... biladimi shularni?
- Bilmadim, oyi, bilmadim, - dedim u xo'rlikmi, nima, menga ham yuqa boshlab.
- Oshnasi-chi? - dedilar anchadan keyin o'zlarini hiyla bosib olib, - xatida nima debdi ekan?
- Akamning daragini topgan mish, shunga jo'nab ketibdi ekan, - dedim bo'shashibroq.
- Voy, qancha bo'ldi-ku?! Kelmadimi haliyam?

Men yerga qaradim: ichimda nimagayam aytdim, deb afsus chekardim:

- O'sha ketgancha ketib boryapti.
- Illohim, yaxshi xabarlar bilan kelsin bu yoqda Mahfuz kelinuvzaning daragi chiqqan bir kezda. Ilo-oy, O'zing shularga ham xotirjamlik ato eta qolgin. Tup qo'yib, palak yozishlariga imkon bera qolgin.

U kishi duo qilyaptilar-u, men kaft ochgancha ignaning ustida o'tiribman. Duo yaxshi. Lekin u yog'bo'ni so'rab qolsalar-chi, nima deyman?

Nihoyat, turdik. Ular ham mammun edilar, biz ham.

Yaxshiyam u kishi o'zi qaerda, deb so'rab qolmadilar.

Yaxshiyam: shoshma, jujug'bo'i-chi, jujug'bo'i qaerda, nega sen olib kelgan joyda yana olib ketishdi, demadilar.

Yaxshiyam Olim o'zi nimaga kepti, u qaerdan paydo bo'lib qoldi? Akasi Sultonmurodning qaerdaliginiyu mana bu to'zib qolgan oilasini bilmaydimi, deb qolmadilar.

Yaxshiyam sen o'zing qanaqa jigarsan, shunday gazetalarda ishlab Tangritob'bo'dek bir yurtlarga chiqolmasang, akaginangning daragini o'zing izlamasang, seni kim aytadi Ulug'bo'xo'jaboylar avlodidan deb, past-balandni tushungan deb! O'zingga en bo'lomaysanu bosh-qaga qanday yeng bo'lassan, deb qolmadilar.

Shunday deganlarida, miq etib og'bo'z ocha olarmidim?

Yaxshiyam bu gaplarni keyinga qoldirdilar.

Oshyonidan Ayrilgan Qushlar

I

O'z uying - o'lan to'shaging. Saharga yaqin yotib ham bir mizgb'ib olsang olam-jahon orom topib, tiniqib turasan. Sa'valarmi, sariq yoxud qizilbosh jimit qushchalarmi, biri olib, biri qo'yib, derazamiz ortidagi ko'ksulton tepasida (balki o'rikdadir) chiv-chivilab chuldirishar, men tepamga ko'chib kelgan qushlar bozoridan uygb'onib ketgan edim.

Voh, ko'klam nafasi bu mitti qushchalarming barini mast etib, daraxtlarning oftob ingan shoxchala-ri - qir uchiga o'tkazib ulguribdimi! Ular qorin gb'hamini tamom unutib, bir-birlariga roz aytisharmidi, sayrab-quvnasharmidi yoxud ko'klamga yetkazgan Alloha o'z tillarida tasbehotu hamd aytisharmidi, ajratib bo'lmasdi. (Balki har ikkisi hamdir). Olam shunchalar munavvar, chah-chahlarga to'la ediki, daf'atan qay oshyondamiz - eski hovlimizdami, yangisidami, anglay olmay qolgan edim.

Turib, azza-bazza ko'chaga boqdim. Yangisida ekanmiz. Oftob ko'ksultonning yarmiga qadar tushib qolganiga qaramay hali bolakaylar uy-uylaridan chiqib, gb'bo'ra qoqishga tushishmagan edi. Tushishsami, bu jimit qushchalar qayga ham qochishar ekan? ! Ungacha yayrab olmoqda edilar. Faqat darvozamiz tagida yilt yangib'bo' qora olxo'ridan ham qoraroq bir mashina turibdi. Men uning orqa yarminigina ko'rdim xolos. Olam shunday go'zal va shodumon, ruhim ham shunday tiniq va yengil ediki, qanot chiqarib uchib ketsam-da mumkin edi. Hatto mashina kimni ekanini o'ylab qo'yish xayolimga kelmasdi.

Yuvinib-taranib kelib, salom bergani oyimlarning oldilariga kirsam, voh, kim o'tiribdi deng?! Bir vaqtlar akamning Bo'zsuvdagi qarorgohiga osmondan oyogb'ini uzatib tushganlar alam-achchiq ustida ushlab ketgan kichkina akam - Olim akam o'tiribdi!

- Ie, o'zizmi? Voy, sizni, - deya bir ko'rinish yo'qolib qolgan xolavachchamni quchoqlab oldim. - Xabar bermaganizzi qarang! Eshikning tagidagi yilt yangi gb'biroti ko'rib ham(!) payqamaganimni qarang!

- Ey, mirzo, seni ham tutar kun, topar vaqt bor ekan-ku! - deb Olim akam ham kuraklarimni silar, quchogb'bindan qo'yib yubormas edi. So'zlar bir samimi, ichining tub-tubidan otilib chiqmoqda edi. Tavba, u ham samimi bo'la olar ekan-a! Jigarlarning qadri endi bilinibdimi?! Qolaversa, men uning quchogb'ida o'zimni jimit bolakaydek his etar, yo'q bo'lib ketgandek edim. U bo'lsa, o'sha qiltiriq Olim akam bo'lsa, yillar o'tib, Sultonmurod akamdek norgb'bul tortib ketgan, katta kishi nusxi urib togb' balarimizga o'xshab qolgan, hammadan ham burun undan bir turlik - eng yaqin jigarlarning hidi ufurib, men dovdirab qolgan edim.

- Nechuk-nechuk, qarang, qanday yarashib turibdi.

- Mana, izlay-izlay, surishtira-surishtira... topib keldim - dedi u ham to'liqib.

- Shunaqa, zilzilalar "sharofati" bilan sochilib ketdik har yoqlarga.

- Tagb'binam tariqday sochvormabdi, do'mlarga chiqarvorsa, nima qilardingiz? Bizga o'xshaganlar qaysi toshqo'rgb'bonning qaysi katalagidan topardi?! Bir parcha bo'lsa ham hovli-joy nasib etibdi-ku. Uzoqqa tushmabsizlar-ku tugs'hib o'sgan diyorlarimizdan. Ich-ichimdan hayratga tushaman: shu Olim akammi, a? O'sha jigarimizmi, a? Odam shunchalar o'zgarib keta olar ekanmi? Yo bular hammasi vaqtincha, sinashta bo'lib ketgunchami? Unday desam, oyim ham chippa-chin ishonib, mutaassirlanib o'tiriptilar. Ro'mollarining uchini damba-dam mijjalariga bosib, bizga qarab-qarab qo'yayaptilar. Kamiga shivirlab duolar qilyaptilar: Iloy, hech kimni bizchalik uzilishtirmagin deb.

O'tirdik. Oyim duo qildilar.

- Illohim, ot aylanib qozigb'ini topgani rost bo'laqolsin. Akaginang ham qaytib, bagb'birlaring to'laqolsin, o'z diyorlaringda otalaringni chirogb'ini yoqib o'tiradirgan kunlar ham kelaqolsin. Qanday odamlarning farzandi edingiz - Ollo Sizlarga ham bir qo'nim beraqolsin. O'zi to'zim ato etsin. Omin.

- Ollohu akbar, - deya yuzlarimizga fotiha tortdik. Nazarimizda oyimning duolariga hamma xolalarimu togb' balarim qo'shilishib turgandek edilar. O'zimni bir yengil his etardim, bir yengil his etardim...

Suhbatimizga o'z-o'zidan fayz kirib, mehrlarimiz iyib kelmoqda edi.

- O'shandan beri qo'ngb'irogb'bingni kutaman, daraging yo'q, mirzo,- dedi Olim akam gina qilib, ginasi sa-mimiy ham begb'ubor edi.- Axiyri o'zim kelaverdim.

- Undan gina yo'q, akasi, ishiga tuzukroq joylashib olsin, bormay qayoqqa boradi. Borsa-kelsa, oqibat ulanadi-da, - deb jonimga oro kirdilar oyim.

- Uzr, chindan alahsib ketibman, xizmatchilik, - deb uzrimni qalashtirdim. Ammo keyingi voqealardan (kennoyimning topilishi yu Yodgorni bexavotirroq joyga olib ketishlari, Chaman akamning omonati, hali u yoqqa o'tishim zarurligidan) ogb'biz ochmadim. (Ochganimda ham nima derdim, unga aytadigan gaplarmi?!)

Olim akam siperishladi:

- Yolgb'bizlik Allohg'a yarashadi, bu dunyoda hamma bir-biriga suyanib yashaydi, derdilar adam rahmatli, endi bilinyapti, - Olim akamning ovozida allaqanday mahzunlik bor edi. (Aytmoqchi, u o'shanda yolgb'bizman, devdi).

Men choy uzatib, dasturxonga qistadim. Oyim esa hech narsadan xabarları yo'q, astoydil ginaxonlik qilar edilar:

- Bir yo'la kelinni, bolalarini opkelavurmabsan-da, tanishib olishardi. Sizlar kelardinglar, bular borishardi. Bu dunyoning ziynati shu-da.

Olim akamning tomogb'biga o'ksuqqa o'xshash bir narsa kelib-tiqilib, chuqur tin oldi:

- Ey, xola-ya! Mening bu yurishim, bu savlatlarimga ishonmang, - dedi chapanilarcha qo'l silkib, - xizmatchilik deb yuraveribmiz yurtma-yurt, buyurgan mamlakatiga ko'chib. Ko'ch ham nima - ikkita jomadonusariq xotinning sariq-suruq bolalari! Hammagini samolyotga o'tkazib, chiqqan shahriga jo'natvorganman, xola. U befotiha, benikoh ortirganlarimni. Yurganakanmiz bizam musulmonmiz deb...

Oyim yuzlarini ushlagancha, tillarini tishlab qoldilar, o'rtaga hech gap sigb'hamaydigan bir jimlik cho'kkani edi. Axiyri o'zlari yumshatdilar:

- Voy, xolang aylansin, shunday ekan, ha, kelavurmaysanmi? Sigb'hamagan joyingmi?

Olim akam xijolatomuz jilmaydi:

- Unchalik deb tushunmang, xola. Judayam ko'chada qolganim yo'q. Ishxonam, oqg'aynilar bir xonali uy to'gb'brilatib berishdi. O'shatdaman.

Oyim ko'nmadilar:

- Baribir-da. Erkak kishining yotari bor, turari bor. Qolaversa, sochingga oq oralaganda salti-svoy yurishing yaxshimi! Haliyam bo'lsa, kel. Qancha uylar huvillab yotibdi.

- Himmatizga rahmat, xolajon. Hali hamma narsadan voz kechib, tarki dunyo qilib qo'yganimcha yo'q. Niyatlarim katta, - dedi u gapni yarim hazil-yarim chinga burib.

- Ha-a, ana endi esing kiribdi, - dedilar oyim ayab o'tirmay. - Shariatni nimaga chiqargan?! Ko'chadan topgan-xotun bo'lmas, xotun bo'lsayam-zotun bilmas, deganlar. Tagb'bin sen kimlarning farzandisan-a! Väqtida qutulibsan. Hay-hay, falokating aribdi. Haliyam kechamas. Topilar o'zingga yarashasi. Ollo rozi bo'ladirgan turmush qaydayu halol-haromni ajratmaydigani qayda! O'zim bosh bo'lib topganim bo'lsin.

Olim akam xijolatlarga botib qizarindi, to'lgb'bondi, axiyri "hay-hay"lashga tushdi.

- Hay-hay, xolajon. Indamasam, to'yni ham boshlab yuborasiz shekilli, - dedi hazilga yo'yib.

Oyim bo'sh kelmadilar:

- O'zing pushmondamasimisan, ishqilib?

- Nimadan, xola?

- O'sha sarigb'T-moshagingni jo'natvorganingga-da.
- He-he! Yelkamni chuquri ko'rsin. Umrning egovini...
- Shuginami? - dedilar oyim.
- O'z diningga bo'lmagandan keyin... mahliqosi ham tatimaskan.
- Ha-a, ana bu gaping doda gap bo'ldi! Qaysi qavm-ga yaqin yursang, o'sha qavmdan bo'lib ketasan, deb bekorga aytmaganlar. Bollarin-chi, ular ham onasiga tortganmidi?
- Olim akamning boshi solinib ketdi:
- Sekinroq aytasizmi?..

Oyim yomon to'gb'Triso'zlar-da: ayab o'tirmasdilar, mehmon-ku demasdilar:

- O'zingniyam ko'zing qayoqdaydi, aqling qayoqdaydi? Shayton tuzogb'Tiga ilinibam sezmadingmi? O'sasan desalar, qilaveribsanda buyurganlarini? Qoshdan qovoq qaytarmay?

Olim akam qorayib qora-qizil tortib ketdi, oyimning betlariga qaray olmasdi. U hurpayib olgan, nazarimda mana hozir portlar, portlab: "O'zlariz me- ni qaerga joylab qo'yib edingiz? Kim qilmochi edinglar?!" deb yuboradigandek edi-yu, yorila qolmasdi. Axiyri ham... yorilmadi. Ichiga yutib, mardlik qil-di.

- Nima bo'lsa-bo'ldi, bo'yogb'Ti yitdi, xola, - dedi bo'gb'Tiq ovozda.- Ko'rgulik ekan - ko'rdik, kami bo'lsa... chidaymiz. Qarangki, men uni... shu turishi, shu gapi uchun... yaxshi ko'rib ketdim. Uni shunday deb... ayblarini mardonan tan ola biladi, deb (!)... hech o'ylamagan ekanman. Shu hurpayib o'tirishida hammadan ko'ra ko'proq Sultonmurod akamga o'xshab ketgan edi. Balki men adashayotgandirman, navbatdagi ustamonligi, hiylasi, artistligidir bu. Lekin menga boyagiday tuyulib, yoqib qola boshlagandi. Balki bu akamni judayam sogb'Tinganimdan, unga hech kimni o'xshata olmay yurganimandir. Hozir uning anuv gaplarini (xatida tayinlaganlarini!) haliga qadar bunga aytmaganimni eslab, ochigb'Ti, bir gb'Talati tortdim. U omonat gaplar xususida chindanam ogb'Tiz ochish mavridi endi kelgan, kelayotgan edi. Ammo Xudoning xohlashini qarangki, bunga hojat qolmaganini ko'rib turardim, ko'rganim-sezganim sari yengil tortib borardim. Illohim, hojat qolmagani rost bo'lsin!

Olim akam esa, ich-ichida oyimning hukmlarinimi, nimani kutar, u kishiga zimdan qarab-qarab qo'yar (chindan-da, maslahat solib, qora tortib keladigan yana kimi bor?! Qo'ldosh togb'Tamlarning tergashlaridan bezganmi, u kishini uncha hushlamaydi, harqalay borganini eshitganim yo'q), jim edi.

Oyim sezgir edilar, uni alqab kuragini silab qo'ydilar:

- Umringdan baraka top, to'gb'Tri qilasan. Bunaqa vaqtida sabrdan chiroylisi yo'q. Sabr Ollohga ham xush keladi. Lekin sen endi maslahatga ham quloq sol. Bunday yurtma-yurt yurishlaringni qo'y. Qavatimizga qayt. Uy qilsang, joy qilsang, bir mo'minaga uylantirib qo'ysak, otalaringni chirogb'Tini yoqib o'tirsang qanday yaxshi!

Olim akam "hov, mening eski dardlarimni, yaralarimni qo'zgb'Tab nima qilasiz, hamma siz o'ylagancha bo'lsa, qani edi!" degandek oyimlarga qarab qolgan edi. So'ng sovub qolgan, qahrabodek choyni bir sipporib, piyolani kaftida tutgancha o'zi sezmagan holda tizzasini ezgb'Tilashga tushdi.

- Uni demasang, ana, narigi ko'chalarda nechta joy bo'sh turibdi, shaharga chiqsang berishar. Shuncha joylaringizni tortib olgan hukumat bir parcha yer bersa beribdi, haqi ketmas. Butun olam - o'risam, chulchutam Toshkandga kelib yotganda, nima, sizlarga mumkinamasni? Haqsiz degan joyi bormi yo?

Rosti, oyimlardan qozi chiqsami, olam-guliston bo'lib ketar edi. Olim akamning yuziga nur yugurib, o'zingiz zo'rsiz-da, xolajon, deganday suyib tikildi.

- Bo'lmasa, harakat qil. Nimadan uyalib qisinasan? Ular uyalib qisinsin, kim-kim - Sizlarni unutib qoldirganiga. Joy ajratmaganiga, - dedilar oyim hovurlaridan tushmay. - Endi Xudodan qo'rqlaydiganlarning zamoni bo'pqoptimi? Shoshmay tursin, Olloham ko'rsatib qo'yar. Yo Ollohga qiyin ekanmi, ularning o'rniga boshqasini keltirib qo'yish?!. Olim akam u kishini yumshatishga urinib uzandi, kiftlariga qoqib "xolajon"lagan bo'ldi. O'zi esa, oyimning bu hollaridan ich-ichidan zavqlanib ora-orada menga himo qilib qo'yar, "qara, qanday xolam, oying borlar" demoqchi bo'lar edi.

- Siz nima desangiz - shu, xolajon, - deb yubordi axiyri iyib ketib. - O'zimam odamlarga o'xshab qo'nim topib, urugb'Tim deb, aymogb'Tim deb, bordi-keldilar qilib, yashashni sogb'Tingaman. Yetar, shuncha tentiraganlarim. Shuncha topib-topib - nima ko'rdim? Qolgani o'sha ko'chadagi moshinmi? Sotsam, yetib qolar bir boshipana qilib olarga?

- Mashinangni qo'y, - deb urishib berdilar oyim.- U ham bu dunyoni ziynati. Sen bir uy tiklayman, vatan tutaman deysan-u, qarindoshlar qarab turarkanmi! Hashar bilanam tiklab berishadi. Ana, Usmon togb'Tang, binoyi o'tiribdilar. O'zlariga qolsa, bir gb'Tisht qo'ya olarmidilar! Undan ko'ra, sen kirib, duolarini olib chiq. Keyin hamma ishing o'ngidan kelib, yurishib ketaveradi. Duoda gap ko'p.

Olim akam u kishining tanbehlarini olib, bosh silkigan bo'ldi, so'ng qo'lini ochib, izn so'ragancha qaradi:

- Endi duo qiling, xola. Men Maqsudxo'jangizni bir yetga opketgani kelganman. Buniz vaqtiz qiz qadam, hali ishga boramanga tushib qoladi.

- Mana shunaqa-da, kelmaslaringdan ketamanga tushib qolasanlar, - oyim azza-bazza xafa bo'lib, ters qaradilar.- Ha, kelin bitta ovqat solsin, tuzuk-quruq dasturxon yozsin...

- Kecha jujur edim, shoshadigan joyim yo'q, - dedim men manzirat uchun bo'lsa-da. Aslida boradigan yerlarim qalashib turibdi! Olim akam qo'lini tushirmasdi:

- Qaytaga yaxshi. Qaytib kelamiz. Osh dam yeguncha qaytishga harakat qilamiz, - deb qistadi.

- Kelasan-a, kelmay qolmaysizlar-a?.. - u kishi obdan ishongach, javob berib, duo qilishga tushdilar. Undan ko'ra qayoqqa borasanlar deb tergasalar-chi, so'rasalar-chi, menga shu avloroq edi. Negaki, men vaqtimni qizgb'Tanib, ichim halak, lekin mezonlik nomim bor - andesa saqlab, inday olmayotirman. Hali qayoqdagi sayru sayohatga yo bo'lmasa arxivgami, surishtisurishtirgami, boshlamasa edi. O'zim boradigan yerlarim kamday. Qani aytolsam...

II

Xayrlashib chiqib, Ovruponing uchqur, ammo bizning ko'chalarga xayf "Volva"sigi o'tirdik ham, (tavba, ular bu nomni bizdan ko'chirganmi yo biz ulardan? O'xshashligini! Volva-Volga! Egizak-ku!) ko'chamiz bolakaylarining ko'zini o'ynatib gb'Tuvillatib ketdik ham Olim akam qayoqqa otlanganimiz haqda ogb'Tiz ochib qo'ymasdi. Ichimni toza pishirmoqchimi, tushirmoqchimi, bilib bo'lmaydi. Buning kasbi-da, o'ziyam shunaqa ichimdagini top xilidan. Boshqa odam allazamon sir berib, gullab qo'yardi.

Men ham atay so'ramayapman. U qani parvo qilsa, qora qirgb'Tiyini ta'rifini keltirish bilan ovora:

- Ho', o'sha yoqning kaftdek yo'llarida bu o'qdik uchsin-da. Yuz saksondayam qilt etmaydi!
 - Suv tekinga olmagandirsiz, axir? Bizning ko'chalarini bila turib? - dedim.
- U ogb'Tbzini bir ajoyib to'ldirib, tilini "toqil"latdi.
- Qayoqda! U yoqda suv tekin. Hamma qimmatchilik bizda. Qolaversa, shundan boshqa nima qopti menga? Hammagini shipirib ketdi-ku anuv yuxo.
 - Nechuk bunga indamadi, tishi o'tmadimi? - dedim kulib.

Olim akam chekayotgan bir ajoyib sigaretini chapanichasiga nazokat bilan (jimjilogb'Ti uchi ila) oynadan chertib yubordi.

- Qayoqda! Payqamay qoldi olganimni! Orqamdan yetib kellarini bilsa, yamlamay yutardi-ku.
- Siznimi, mashinanimi? - dedim hazil aralash.

Akamga bu xush yoqib o'tirgan yerida irgb'Tishlab qo'ysi:

- Topding, mirzo, naq ikkimizniyam yutib ortidan chiqavorardi.
- Tirik yuxo ekan-da, unda?

Olim akam qosh uchirdi:

- Ha, barakalla. Olim akangga ham oson tutma sen. Ana o'shanaqa jodugarlarining qolidan omon chiqib kelib turibdi. Bilding. So'ng... bir ajoyib o'yinqaroqlik ila (go'yo barcha o'sha noxushliklarni) "Volva" oynasidan chirt etkazib tupurib tashlab, qo'shib qo'ysi:

- Bu gb'Tirotu qolgan umr - foydaga qolib turibdi-ku.

- Buyursin, - dedim.

- Rahmat, - deb minnatdor qarab qo'ysi u. - Le-kin rostini aytsam, ko'zları kuyib ortimda hiqillab yurgan ko'zirchalar ham allaqancha. Bilmaydiki...

- Soting debmi?..

- Ha-da, dardi xarina deganday...

- Chindan ko'z qiymaydigan xili ekan, - dedim.

- Qiymaganda nima, bir temir-da, - dedi meni hayron qoldirib.

- Unda, nega "loylab" yubora qolmaysiz?

Olim akam quvlik ila kulib qo'ysi:

- Menam anoyilardan bo'lib qolmoqchimasman.

- Tushunmadim.

U endi sharaqlab kului:

- Hozircha bozorga solyapman! Ko'z-ko'z qilib, tarang qilib yurippan. Obdan ko'zları kuyib, o'pkalari shishsin, ana undan keyin... pul topib, aql topmagan bir laqmasiga o'tkazvoraman.

- Ie, hozir nima devotuvdziz? Shundan boshqa nimam bor deb... - Men halitdan ichim achib, mashinaning momiqdan-momiq o'rindiqlariga, yilt yangi (ular chindan bu olamniki emasday edi!) anjomlariga qarab qo'ydim. O'ziyam poshshoi mashina ekan, yurgan sari bir lazzat topasiz. Bizning shu almisoq yo'llardaki bir tovus, bir erka kiyikday suzib boryaptimi, u yogb'Tini qo'yavering!...

Akam xo'rsindi:

- Ochigb'Ti, xolam haqlar. Dunyoga kelib, bir oshiyon tiklamagan, boshiga bir boshpana qurib, bir yerni vatan tutmagan odam - odammi! Men hov ilgariyoq niyat qilib qo'yanman, eson-omon qaytsam, Yakkabogb'Tdagagi qo'rgb'lonimizdek bir qo'rgb'lon solay, joy qilay, deb. Nomimiz qolmasayam, nishonimiz qolsin, avlodlarimiz qolsin! Qolaversa, otam rahmatli yurtga qaytinglar, yurtni vatan tutinglar, jigarlardan ajramanglar deb... vasiyat etganlar.

Ikkimiz ham jim qoldik.

Mashina katta tuproq yo'lida ortidan bir olam oq to'zon qoldirib, o'zi o'sha to'zondan qochgancha gb'Tizillab borarkan, akamni bilmayman-u, mening ko'zlarim yoshlanib kelib, ichim ostin-ustun bo'lib ketdi. Ko'z oldimda esa, o'sha o'zim bilgan, bolalikdan tanish vayro- na - xolamgilarning Yakkabogb'Tdagagi valongor qo'rgb'lonlari - tomlari ochiq, devorlari qor-yomgb'Tirlarda nurab-emirilib tugayozgan o'sha uylar turardilar. Bu ular tashlab ketgan oshiyon edi...

Ochigb'Ti, sabrim yetmadi.

- Qayoqqa boryapmiz, o'zi? - deb yuborganimni sezmay qoldim.

Olim akam o'girilib qarab, jilmayib qo'ysi. Lekin javobga oshiqmasdi. Top-chi, topolmadingmi, shahar berasanmi, deb hazillashadigan bir alpozda edi.

Men esam, ichim qizib, shahar berishga-da, tayyor edim.

U tushundi:

- Avval anuv - ko'chaga tushgan qayragb'Tochli yolgb'Biz mozorga, so'ng sutchinikiga o'tamiz. Zo'r yangiliklar bormish.

- Qaysi, bogb'Tlaringiz pastidagi o'sha qayragb'Tochzorgami? - dedim yuragim bir orziqib, - shuncha joy turib... o'sha yo'lga tushibdimi?!

- Kimdan xafa bo'lasan, dudi-figb'Toning chiqib? Balo kelsa ho'l u quruq barobar yongay, bu yer mozor, bu yer bozor deb o'tirmagay hech kim. Xudoning xohlashi. Qolaversa, dunyo ko'rsang - bilasan, bu yerning mozor o'tmagan biror joyi qoptimi? - dedi u.

Men uni tushungim kelmay qizishdim:

- Qanday xalq edik? Kim bo'lib boryapmiz?! Otalarimiz non ushoq tushgan yerni o'rab, mozorot etib, oyoq bostirmagan xalqning bolalari... bugun kim bo'lib o'tiribmiz! Tomoshabinga o'xshab?..

Olim akam o'girilib, yuzimga sinchkov boqdi:

- Tuzuksanu, - dedi, - gazetangga ham shunday deb yozavurasanmi, o'tkazishadimi?

- Bilaman, o'tkazishmaydi, - dedim to'ngb'Tillab, lekin tilimning uchidagini yuta olmadim, - Indamas ekan deb... toptayveradilarmi... aziz joylarni?

- Nimasini aytasan, bu yerning yetti qavatigacha aziz-ku, teginib bo'lmas joylar-ku, - dedi u ham.

- Ular esa, xor qilib kavlab yotiptilar, kimgargadir shahar qurib...

U yo'ldan ko'zini uzmay allatovur xo'rsindi:

- Adam rahmatlining har gaplari bir hikmat ekan. Bu yerga kelib, manavi alg'b'ov-dalg'b'ov qurilishlarni ko'rib, tushunganday

bo'yapman. Avliyo ekanlar.

- Shu haqdayam... gapirib edilarmi?
- Bashorat qilgan ekanlar, tavba, - dedi u hamon menga qaramay.
- Nimani? Shu zilzila, buzilish-ko'chishlarni-ya?
- Ha-da. Ollohdan qo'rqish kerak, qo'rqlar qo'yiganlarning o'rniga butunlay boshqa qavmni keltirib qo'yishi hech gapmas. Bizning ham to'zib ketganimiz bejizmas, o'gbTlim, der edilar, tavba...

Bo'ladi-ku shunday mahal: o'rta hech gap-so'z, yurakka esa qil sigbTmaydigan kezlar - hozir shunday bir holga tushgan edik. Allavaqt jim qoldik. Bu orada mashinamiz ko'cha yoqasida omon qolgan katta bir sadaqayragbToch (nimaning kasofati urch - u qurib qolgan, changaldaraxt kabi turardi) tagiga kelib, sekinladiyu o'z to'zonida qolib ketdi. Bu oppoq to'zon xuddi qiyomat belgisiday birpasda bizni kulrang soyasi bilan o'rab, bir mav-humot olamida qoldirgan, hatto quyosh yuzini to'sib qo'ygan edi. Ol-a, yilt yangi mashinasi o'ldi desangiz-chi! O'n kun yuvganda o'z holiga kelmas. Yana uni sotarmish. Bu yo'llardan uch marta o'tsin, keyin kimga sotarkin!..

To'zon tarqab, qulrang soya ham ustimizdan ko'tarildi.

Bor ekan-ku yorugbT olam!..

- Sen o'tirib tur, men hozir, - degancha Olim akam mashinasidan tushib, qayragbToch tagida baqqolsupa qurib olgan odam tomonga keta boshladi. Sigareti tugabdimi deb o'ylab, men tushmay qo'ya qoldim. Ko'rib turibman, u hech narsa olgani yo'q, lekin ikki o'gbTizgina bir narsa so'radi yoxud iltimos etdi. Chol ham ko'na qoldi. QayragbToch tagidagi ariqdan hatlab o'ti-boq qaybir yangi uyning handagbTi yoqasiga borib cho'n-qayishdi. Baqqol yuziga fotiha tortdi-da, nimadir o'qiy boshladi: bildimki, tilovat qilyapti. Etlarim o'z-o'zidan jimirashib kela boshladilar! Olim akam o'z qo'rqbTonlari o'rnini bosib o'tib ketolmay... otalari haqqiga bir kalima Qur'on tiloat qildirmoqda edi. Shunchalik eslaganiga shukr, insof bergeniga shukr, yodga olib qo'ymaydiganlar qancha-ku...

Keyin cholga qo'yarda-qo'y may qogbTozga o'ralgan bir narsa tutqazib qaytarkan, u Olim akamni alqab duo qilib qoldi.

"Eshonpochchamning arvochlari qo'llasin... Sen siylabsan, Alloh siylasın seni" degani yarim-yorti eshitildi.

U eshikni keng ochib, joyiga yengil o'tirdi va mashinasiga kalit solaturib:

- Tanidingmi? - dedi allaqanday kamgap tortib.
- Sho'tmi? - dedim men ham yuragim jiggT etib.
- Sho't, - dedi u qo'porib, handaqlardan bir chetga surib tashlanganacha na arralab olingen, na kesib joylangan daraxtlar mozorotiga o'kinchla qarab (Qoralari o'rik, kumushranglari bahaybat yongbToq tuplari ekani shu yerdanoq bilinib turar edi!).
- Esiz yongbToqzorlar, - dedi keyin, - biz bolaligimizda shundoq edi, ekilganiga qancha bo'lgan ekan?

Men bu yongbToqzor oralab o'tgan anhor yoqalaridan qo'ziqorin terganlarimni eslab, gBTalati bo'lib ketdim: hammasi ko'z o'ngimizda yo'qlikka ko'chib bormoqda edilar.

- Qo'rqbTonlari ziyam... surib tashlab bo'ptilarmi?- yodga soladigan hech narsa qolibmadimi, demoqchi bo'ldim.
- U sassiz-nesiz bosh silkidi, lekin o'zi o'sha yoqdan ko'z uzolmasdi (axir ko'z ochib ko'rgan-tanigan vatanining suvratini kishi ko'z o'ngi - xotirasidan o'chirib tashlab bo'larkanmi! Bir tuman ortida bo'lsa-da, turavergay-ku o'ziga chorlab!).
- Hatto anhorni ham-a? Ko'mib yuborishibdimi?- dedim men azza-bazza tushishga intilib.
- Yetti avliyoning yettita mozoridan bittasi qolmabdi-ku, - dedi u.

- Shoshmang, - dedim men uning yelkasidan silkilab, - o'sha bogbTingiz pastidagi yolgTbiz mozor, qayragbTochli mozor yetti avliyoning biriniki edimi? Unda kitoblar-chi, eshon buvamning kitoblari-chi? Chiqmabdimi? Anuv gaplar... bekor ekanmi?

Olim akam mening soddaligimdan kului. Mashinasiga o't oldirib:

- Men seni nimaga opketyapman?! O'sha xazinani ko'rsatgani-da! Qolaversa, Tozi togbTcha qaqiranlar, - dedi iljayib.

- Qanday togbTcha? - dedim tushunolmay.

- Tozilarning tozisi, o'zing bilgan sutchi, - dedi u "Volva"sin jildirib.

Mening kallam aylanib, esim teskarib bo'layozdi: qanday tozilarning tozisiyu qanday sutchi? Kimni aytyapti u? Anqovsirab qolibman.

U xatosini fahmlab, shoshib siperishladi:

- He, biz togbTani shunday ataymiz. Azbaroyi suyb! Xizmatlariga besh ketib!.. U kishiga yetadigani yo'q bizda. Hozir pensaga chiqib, paqir kishi panada deganlaridek sutchilik qilib yuribdilar-da.

- O'sha odam-a? Ilhom sutchi-ya? - dedim tasavvur eta olmay.

Olim akam ochilib kului:

- Sen u odamning odamoviligi kigiz shinliga ishonma. Birovlarga tarki dunyo qilib, oqliqdan topganiga yashab yurgan darvesh bo'lib ko'rinar. Lekin u asli - zo'r odam. Olim odam. Shu miq etmay gBTimirlab yurishida ham qilgan ishlarini ko'rsang edi. Hech kimning xayoliga kelmagan, hatto olimlarning tushiga kirmagan ishni qilib, bir uy kitob yigbTib qo'yibdi.

- Kitob? - Kitob mening jonim-ku, hayratlanib qaradim.

- Ha-da. Har biri gavharga tong nodiru noyob kitoblar... Tillaga alishmaydigan xillari.

- Yo'gbT-e, kitobfurushlik ham qiladilar ekanmi?- dedim xayolim qo'chib.

- Aytdim-ku, bu odam butun bir institut olimlari qiladigan ishni ado etib qo'yibdi. Shu ko'ch-ko'chlarda chiqqan eski kitoblarni so'rab olib, sotib olib, qidirib topib, bir yerga yigbTibdi. Tirnoqlab de-ganday... Ishonasanmi, bir uy gavhar yigbTib qo'yibdi!

Endi mening ichim gBTurmishlab kela boshladi:

- "Quv-quv", "berkit-berkit"da devor ichiyu toqilar ustiga yashirvorilgan, kigizga o'rab ko'mib tashlangan kitoblarni-ya? Unda... unda Sizlarning kitob-laringiz-chi? - dedim vujudimga tushunuksiz bir titroq tushib. Nazarimda shuning daragi bilan kelgandy ko'rindari Olim akam.

- Bo'lmasa-chi! O'shalaram QangbTlidan topilgan-da. Kitob to'la sandiq chiqqanini xabar qilishgandayoq borib sotib opti.

Sandiqlarimizni ko'rdim, kitob-larimizniyam. Qilt etmabdi. Bir qavat namati to'kilib tushibdi-yu, o'ziga jin ham urmabdi.

- Qaerdan chiqibdi? O'sha yolgTbiz mozorotdanmi?

- Ha-da, Olloh shuncha yil o'sha mozorotda saqlagan ekan. Gard yuqtirmay.

Shu tob Sultonmurod akamning xo'v anuv xati, menga tayinlagan gapi beixtiyor yodimga tushib, gBTalati tortib ketdim: e, voh, toza gBTaflat bosgan ekan-ku bizni! Axir ko'milgan kitoblar qaerdaligini yozgan edi-ku akam. Men bilardim-ku! Uylar buzilib, hamma ko'cha boshlagach, o'rniga do'mlar tusha boshlagach ham nega gBTulgBTulaga tushmadim? Tamom unutdim? Nima bo'ldi

menga? Nima chalgb'titdi? Qaysi shayton yozgb'birdi meni? Omonatlar bir yoqda qolib, qay o'tkinchi ishlar, hoyu havaslar ketida chopib yuribman? Aslida uni topish mendan lozim emasmidi? Im-m...

Menga alam qilardi. Yo'q, uni qayyoqdagi bir sutchi chol, ishiga puxta chol topgani emas, qarab turib, burnimning tagidagi narsani oldirib yuborganim, u xazina birovlarning qo'liga tushib ketgani, o'zim mas'uliyatsiz odam bo'lib chiqqanim alam qilar edi.

Tagb'binam Xudo asrabdi. Iymonli bir odamning qo'liga tushibdi. Bizning iymonimiz shunchalar sust ekanmi?

- Undanam burun sen zo'r yangilikni eshit. U kishi shajara qogb'hozimizni topib qo'yanlmish. Yetti pushtimiz bitilgan narsani, - deb u qalay, mirzo ukam, deganday qarab qo'ydi.

- Togb'ham aytganlaricha borakanmi, - deb yubordim men, - yo'qolib bitmagan, birovlarga o'tib ketmagan ekanmi?

- Yana kelsangiz ko'rasisiz, ko'p narsalarni aniqlab qo'ydim deyayapti. Shunga ketyapmiz, - dedi Olim akam maqtanib. Chindan u gb'bururlansa, maqtansa arzirdi. Men uni xushlamay yuribman, eski qilmishlarini eslab, necha vaqt yo'q bo'lib ketganidan hadiksirab... U bo'lsa, toza omadi chopgan chiqib qoldi-ku!

- So'radizmi, u bizning o'sha Ulugb'xo'ja buvamizdan qolib kelayotgan shajara ekanmi? Qozilar muhrlari bosilgan, hujjat o'rniga o'tadigani ekanmi? Yoki?.. - dedim ijikilab.

Olim akam bir narsadan shodumon bo'lgan kezлari yo'nga qaramay qo'yadigan, hali yonidagi odamning yelkasiga qo'lini tashlab, hali mashinasining gb'bir-gb'bir shabada urib yotgan oynasiga yastanib olib, gap sotishga tushadigan odati bor ekan, hozir ham shu holga tushib borar edi.

U tilini bir ajoyib toqillatdi:

- Yoq, so'ramadim. Borsagoq ko'ramiz. Balki o'shadir, balki boshqa. Lekin shajara qogb'hozlarmish, bir-biriga ulanaverib, yopishtirlaverib sargb'bayib ketgan.

- Qaytarib beradi ekanmi? - dedim ichim qurib.

Olim akamning yuziga bir nima soya tashlab, so'nikib qoldi. O'zi chuqur tin olib:

- He, - dedi allaqanday o'ksik tarzda, qolaversa, o'z ustidan kulganday. - Koshki biz o'sha narsalarning chin qadrini bilsak. Bugun quvonib, ertaga unutib yubormasak. Tayin oshiyoni yo'q menday odamning qo'lida yo'qolib-netib ketganidan o'shanaqa fidoyilar qo'lida bo'lgani ham tuzuk. Nima deding?

- Nega, oborsak oyim yeru ko'kka ishonmay asrab berar edilar, - dedim izlaganimiz topilganda qo'ldan chiqib borayotganiga yuragim achib.

- Ha, darvoqe, bu gaping ham to'gb'ri, boraveraylik-chi. Lekin chol osonlikcha bera qolmas. U shunaqa ko'hna narsalarning jinnisi bo'pqopti pensaga chiqib, - dedi u nimagadir xayoli qochinqirab.

Bu orada ilgarigi fayzining urvogb'i ham qolmagan Cho'lpon ota guzariga yetib borgan edik. Mastuba opaning do'konni ochiq, tol tagidagi anhor bo'yidagi choyxonalar, bozor joyida, baqqolu attorliklar yopilmagan, faqat hech zogb'T ko'rinsasdi.

Kimsasizlikdan hatto soyalar mudrardi. Faqat daraxtlar uzra gb'Tuvlab uchgan asalarilarga tashlab ketilgandek edi bu guzar. Na egasiz bir it, na adashgan bir kimsani uchratardik. Rastalar ostida yolgb'biz musicalargina (go'l bo'lib!) rizq izlab yurishibdi.

Hatto bir vaqtgi bozorgohga o'rgangan gala chumchuqlaru so'fito'rgb' Baylar ham guzarni tashlab ketgan edilar.

- Ie, - dedi Olim akam xushi birdan joyiga kelib, - men oshning xarajatini shu yerdan olaman deb yuribman, bu yerda guzar o'lib bo'lgan-ku.

Esiz, ilgarigi guzar deb o'yagan-da. Chindan ham ilgari bu yerda uchta choyxona bo'lib, uchalasiga uch toifa odamlar yigb'bilishar edi. Mirto'xta amakinikiga qariyalar kirib, qaymoqxo'rlik, naxotsho'rakxo'rlik qilib, gaplashib o'tirib ketishsa, anhor bo'yidagi choyxonaga satta ziyolilar, shahdan chiqqan mehmon-izlomlar kirishardi. Qodir boyvachchaning choyxonasiga esa tamomi oshxo'rlar, norinxo'rlaru xasipxo'rlar to'planib, ertadan kechgacha anuv shayton suvini xush ko'runguchilar arimasdi. O'sha shayton suvlarning kasofati urdimi yo boshqa voqeа sodir bo'lganmi (anigb'Tini hech kim bilmaydi!) bir kecha shu choyxonada xizmat qilib yurgan yugurdak bola devday odam - choyxonachi Qodir polvonni uxlاب yotgan joyida chopib tashlab, o'zi gum bo'pti. Nima olgan, nima qaysi bo'lgan - hech kim bilmaydi. Jinqarcha o'spirin shunday ishga qanday dov etgan, qaysi yurak bilan jazm etgan - aql bovar qilmaydi. Lekin ertalab kelishsa, polvon chopiqliq, bolta ham o'sha yerda yotgan mish. Shu-shu choyxonadan fayz ketuvdi. Endi bu ahvol...

- G'izza Novzag'a o'tib kela qolayluk? - dedim.

- Yur, o'tsak o'tib kelayluk, ikki birdek odam sho'ppayib kirib boormayluk qariyanikiga, - dedi u ham.

Ketdik. Endi uning bir qariyaling ko'nglini olaman deb oshning masalligb'i izlab yurishi, hamma tashvishlarini (yolgb'bizligini ham, bevatan-beoshiyon ekanini ham) unutib, o'tganlarning shajarasini izlab qolgani meni ajablantirmoqda edi: Tavba, tiriklar turib, nechuk bu o'tgan ajdodlari bilan qiziqib qopti? U qogb'hoz unga nimaga kerakki, vaqtini ham, yilt yangi "Volva"sinu ham ayamay manavi o'ydim-chuqur yo'llarga solib yuribdi? Undan ko'ra, yolgb'biz jiga-ring - akangni surishtir! Oshnalari, tovkasidagilarini top! Kimi bor, kimi yo'q, jilla qursa, mendan so'ra! Yuzing kuyuk, tiling bogb'qliq bo'lsa ham... Chindan-da, nega gb'biq etmaydi u haqda? So'rab qo'yaydi?

Mening esa, qanday gap ocharni bilmay - ichim toshib boryapti, gupirib boryapti. Gapning mavridi ham, qalovi ham kela qolmaydiki, o'zim so'z ochsam... Kallamda nuqul bir so'z, bir hikmat aylangani aylangan (qaerdan keldi bilmayman): shajarangni ulugb'biligidan gb'bururlanguncha, ularga nima bo'lgan - bilsang-chi, kim qoldi, kim yitti - surishtirsang-chi, ulasang-chi rishtalariningi!

Men ba'zan o'zim hayron qolaman, yoshi bir yerga yetgan qariyalarga o'xshab, (xuddi Nusrat pochchadek!) mushohada qila boshlayman. Go'yo ichimda oq-oppoq, mitti bir mo'ysafid o'tirgandek, voqealarga u hukm chiqarayotgandek. Hushim joyiga kelib, ba'zan etlarim jimirlab ketadi: nahot ruhim shunchalar qari?..

III

Etni oldik, o'sha temir mezanali tepaning orqasidagi yolgb'biz xonadonga yetib bordik ham men bu haqda so'z ocholmasdim.

Rosti, andishadan ham burun nomus kuchlilik qilmoqda: bu-shunday akangizga xiyonat qilib, o'zingiz qayoqlarda yurib edingiz, degan bilan barobardek tuyular edi. Koshki o'sha tarixlarni bilmasam!

Sutchi jigarlarini ko'rgandek, boshi bir yerga yetib (!) azbaroyi to'lqinlanganidan kalovlanib qoldi.

- Ey-y eshon bolalar, xush kepsizlar, xush kepsizlar, bizning kulbai vayronamizga, - deb quchoq ochdi, so'ng bizni qo'yib, oyimlarni so'ray ketdi. - O, u Yakkabogb'bu Kattabogb'ning xonadonlari. Hamma har yoqlarga ko'chib, Cho'lpon otaning sut bozorlari o'lub, men ne eski mijozlarimni yo'qottum! Kim qayoqqa tushti - qaerda oshiyon tutti - bilmasman! Bizni bozor

birlashtirib turgan ekan, oqlik rishta bo'lib turgan ekan! Dalalar o'ldi, soyalar ko'mildiyu ne-ne govmushlar sotilib, so'yilib rishtalar uzildi, oqibat ketdi, vodarigib! Shu sut, shu otliq qancha xalqni bogbTlab turib edi-ya. O'rtaqa qaerdan shu zilzila tushdi, qay gunohlarimizga Olloh u kunlarni ko'p ko'rdi, xotirjamlikni o'rtadan ko'tardi? Shuning o'zi bo'lsa koshki edi: o'nimizga kimlarni opkelmoqda, qanday qavm kelmoqda? O'z yermizda o'zimiz begona bo'lib qolmasak edi!

Qariya (yoki mening ko'zimga shunday ko'rinoqdadir) ilgarigidan xiyla cho'kkanday, cho'kkan sari xushro'y tortib, nurli bo'lib qolgandek edi. Ammo qani uning ilgarigi davrlari - jun chakmonu jun qalpoqda, yelkada obkash, obkashning ikki ilgi to'la qo'sha-qo'sha sut bonkalar, ularni ko'rdim demay yurganlari! Yillar u haybat, u salobatni olib, o'rniga oq yaktakli xushro'y bir qariyani qoldirib ketgandek edi. Umr shunaqa ekanmi?

U duoi fotihadan ham burun to'rdagi qoziqda Qur'on jildi bilan osigbTliq turgan allaqanday yo'l-yo'l matoga kiydirilgan naysimon bir narsani (surnay desam, tekis tesha dastadek, boshqa narsa desam, bir tomoni puchqoq) kursi ustiga olib qo'ydi-da, biz qistab qo'yimagach, o'z o'rniga cho'kdi. Duosi ham qadam yetdi, balo yetmasin qavlida, qisqa bo'ldi. So'ng:

- Yaxshi, keldinglarmi? Yo'llar ochilib qopti-mi?- dedi hol-ahvol so'rab.
- Ochishibdi-ochishibdi, bu gal tepadan o'tib yalang-da qoldirdim, hech kim tegmaydigan joyda, - dedi Olim akam.

Qariya tinchib, ma'qullagan bo'ldi.

- Haytovur-haytovur, qanday o'tasizlar, qanday ketasizlar, deb xavotirda edim. - So'ng haligi olgan narsasining siqma bogbTichini bo'shata boshladni. - Taniyapsizmi, eshon bola, mana bu mato, mana bu tabarruk narsani?.. Ko'zingizga issiq ko'rinnmayaptimi? - dedi Olim akamga quv nigoh tashlab.

Olim akam ko'zi chaqnab (shu ekanmi, degandek), ichi hapriqib qarab turibdi-yu, bir nima deya olmayapti.

- Eslay... olmadim,- dedi nihoyat xijolat chekib.

- Balkim-balkim...- dedi qariya taskin berib, - u paytlari yosh bo'lgansiz.

Olim akam yutindi:

- U kishi rahmatlini olib ketishganda... men oyimlarning qo'llarida ekanman. Bu narsalarni... o'sha voqeordan bir kun oldin ko'mib kelishgan ekan.

- Olloh hafiz-da, dunyo necha aylanib, qancha joylar tekislanib bitdi. O'zi saqlayman degan narsasi qilt etmay turibdi! Va'dasi haqda Ollohnning. Qur'on kitoblaru tafsirlarning orasiga qo'yvorilgan ekan, bir chekkasi sal ezilganini demasa... mana, torting Maqsudxo'jam.

Men bir boshidan tortib boryapman, uzun uyning taxmoniga yetdi ham (o'rtadagi shalldiroq qogbToz har varogbTi bir-biriga shunaqa tekis ulangan, shunaqa nozik sirachlangan ediki, sanab adogbTi yetolmasdim) tunganmas, hali yarmi sutchining qo'lida nayga o'xshab turardi. U ko'rdiki, bu bilan ish bitmaydi.

- Yo rabbim, - deya o'rnidan turib, Olim akamga buyurdi, - endi siz bu yoqqa qarab torting, hovliga tushavering-chi.

Akam eshikni ochib yuborib, hovliga tushib bordi va ulkan quroq varraklardan qolishmaydigan, lekin bir-biriga tutash, hammasi ikki yon boshidan tushgan chiziqlaru gir aylanachalar bilan, jimjima yozuvlar ila to'lgan narsani ocha ketdi. Ular orasida bo'sh halqalar ham, tugamagan chiziqlar ham ko'rinar, bu nimasi - aqlimiz yetmasdi biz gumrohlarning.

Sutchi esa kovshandoz tepasida o'ng qo'li belida, o'zi yarim bukchaygancha Olim akamga:

- Ha, torting, ehtirot bo'lib torting. Quruqshagan narsa bu, yirtilib-netmasin, hiyla ko'taring, - deb buyurib turardi.

Nihoyat shajaraning boshi ham chiqdi. Uning avvali akamning qo'lida, adogbTi menda edi. Olim akam hovli o'rtasida, barra piyozmi, bir narsa sepilgan gulxonaning bir chekkasida majhul alpozda turibdi. Hayratining adogbTi yo'q. Men esam, ikki taxmon o'rtasidagi tokchaga tiralib, qo'lizmida salqi matodek lopillab turgan narsaga, uning bir-biriga ulanib ketgan halqalariyu bitiklariga qadalgancha qolganman. Qarab turib, vahm bosib kelyapti: shular bari - pushtimizdan o'tganlar ekanmi? Kelib-kelib endi bizga qadalibdimi? Biz ham shulardek yo'qlikka qarab ketguvchilar, o'tib bitguvchilarmizmi?

Shajaraning adogbTi idagi bo'sh qogbTozni ushlab turgan qo'llarimdan bir gBTalati jimirlov-titroq turib kelyapti: shu yo'qlikka ketish uchun chopib-ulqib... yelib-yugurib yuribmizmi? Bu dunyoga kelishmizdan murod nima ediyu nimalarga bino qo'yib yuribmiz? Maqsad shu shajarani to'ldirish - halqani davom ettirish xolosmi yo o'tganlarga tenglashish, bir qarich-to'rt enlik bo'lsada ulardan ilgarilash, bu hayoti dunyoga kelib-ketuvning ma'nosini anglashmi? Nega kelib-ket- moqdamiz - shuni anglab yetmoqmi? O'zi o'tganlarning tirmogbTi arzirkamanmiz? Nogohon shu savoldan - titrjab ketdim. QulogbTim ham tom bitgan ekan, ochilib - atrof-javonib, dunyoning turfa ovozlaridan shangbTillab ketdi!

- Hoy, Maqsudxo'jam - Salompamning yolgbTiz toyları, esingiz ogbTmasin. Vahm ham bosmasin, - derdi sutchi qo'lini sermab, meni imlab. - Bu sizlarning shajaramas, necha pushtingiz ham emas. Bu yoqqa keling, men tushuntiray, namatning ustiga tashlab ke-lavering, - derdi u o'zi kovshandozdagi kavshini ilib, ostonadan bir amallab, shajara qogbTozga teginmay o'tishga chogbTlanarkan, menga nimanidir ilinmoqdaydi.

"Tavba, - deyman o'zimdan o'zim xavfsirab, - bu bizning shajara qogbTozimiz bo'lmasa, u bizni nimaga chaqirtirdi? Olim akamni nimaga hovliqtirdi? Nimaga kelib o'tiribmiz?"

Men borib qariyaning qo'lligbTi dan olgunimcha, o'zi ostonadan o'tib, zinaga tushib bordi. Keyin akamning oldiga qarab yurdik. Chol o'zida yo'q darajada ochilib ketgan, kaftlari-la sargbTayinqiragan, shirachu mogbToru qadim kitoblar hidi o'tirib qolgan qogbTozni tekislab, uni o'pib-tavof qilgudek bir holatda akam tomon oshiqarkan, hammadan burun uning qo'lidagi - bosh qogbTozdag'i narsani tushuntimoqqa shoshardi. Sandiqdagi ulugbT kitoblar orasidan chiqqan bu narsa - Eshon pochcha, u kishining muridlari yomon ko'zlardan asrab, kigizlarga o'rabi berkitgan narsa - bizning shajaramiz bo'lmasa, nima ekan? Nimaga azizlab yashirishdi ekan? So'ragim kelib, tilimning uchida turibdi, lekin cholning haybatimi, nimasi bosib, tashimga chiqara olmayotirman. Uning mana shu o'ngdan chapga qarab o'qiladigan, ochqichi hammaga ham nasib etavermaydigan yotiq harflarni ham o'qiy olishidan, eskichaga katta olim ekanidan hayiqibmi, tortinib turibman. Uning oldida menday muxbir odamning ham tili tushovlanib qolgan edi. Ammo akam mendan oldinroq o'ziga kelib ulgurgan ekan:

- Ajab gapni aytdiz-ku, taqsir? - dedi endi u ham qariyaning shunchaki tarjimon emas, katta olim ekanini tan ola boshlab.
- Ajablanmang, bo'tam. Bu undan ulugbTiroq narsa, - dedi chol qosh qoqib. Uning qoshlari o'sib dikkaya borganini va unga-da oq oralaganini yaqqol ko'rdim.

- Uzr, biz o'zimizga tegishli deb... - dedi Olim akam u yogbTi ni ayta olmay.

- Balki narigi sandiqdan u ham chiqib qolar. Lekin bu... undanam ulugbT narsa: silsilai sharif! - dedi chol o'rtta barmogbTi ni ko'kka allatovur nuqib. - Tushundiz?!

Olim akam yelka qisib, bosh to'lgbTadi va xijolatga botib dedi:

- Biz omilar nima - sharif, nima - ulugb^h - qaydan bilaylik! Sizdan eshitib turibmiz.
 - Eshitib, ko'rib turganiz - shuning o'zi katta davlat. Bilmay o'tayotganlar qancha, g^bhofil yurganlar qancha. Shukr qilinglar Ollohgaki, ko'rsatibdi, bildiribdi. Balki Sizu bizni to'zitib qo'ygani, o'rnimizga tamomi boshqa qavm kelib vatan tutayotgani, yolgb^hiz mozorotlarimiz ustidan-da yo'llar tushib, unda-bunda mana bunday xazinalar, hikmat kitoblari chiqib qolayotgani bejizmasdir. O'ziga yarasha hikmati bordir bularning ham, - dedi chol va xayoli bir yoqlarga qochib borayotganidan o'zi ham ta'sirlanib, bosh to'lg^bhab qo'ydi-da, maqsadga ko'chdi. - Ha, darvoqe, mana bu ulugb^h halqada kim turganini bilarmisiz? Albatta, bilmagaysiz. Yaqinroq kelinglar, - deb u mening tirsagimdan tutib, o'zi tomon tortib qo'ydi. Chindan silsilai sharif deb atalmish narsaning boshlanishi ajoyib edi: o'rtada katta halqa, undan to'rt yoqqa to'rt chiziq chiqib, to'rt halqaga borib tutashgan, go'yo o'rtadagi tengsiz quyoshu chor tarafida to'rt to'lin oy undan nur olib turgandek edi. Usiz bular hechdek, u bilan tirikdek edi. Ana shu ikki chekkadagi halqalardan ikki yonga qarab, chiziqlaru halqalar tushib borgan va behisob halqalarga ulanib ketgan edi. Bu nimasi, yolgb^hiz sutchi bilmasa, biz angrayib turar- dik. Xuddi gung-soqovdek, Ollohning omi bandalaridek...

- Hammasi mana shu zoddan boshlanadi. U Ollohning so'nggi rasuli va elchisi, bizning paygb^hambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamduurlar. Bular choryorlari, bunisi Hazrat Ali kuyovlari, bunisi Abu Bakr qaynotalaridir. Bu tarafdagilar u kishidan tarqagan zoti shariflar, bunisi esa Hazrat Ali karramallohu vajhahu zuryodlaridan chiqqan ulamoi shariflar, avliyolardir. Shu bois silsilai sharif atalgay. O'sha asri saodatdan buyon shu ulugb^h shajaran dan o'tgan kubro zotlar, valiyalar, karamli shariflar kiritilgan ekan bu silsilaga. Ne baxtki, unda men o'zim ko'rgan bir zotning tabarruk nomlarini ham topdim, o'qidim. U kishi bu silsilaning so'nggi halqalarini to'ldirib turibdilar, vallohi a'lam. U zot Sizning padari buzrukvorin giz Abdurahim eshon pochcham erurlar, ukam, - dedi u ovozi allatovur o'zgarib kelib, ham ko'zlarini bir g^bhalati tusga kirib. Aftidan sutchining ko'zlarida yosh halqalanib borar, qiyiq ko'zi yoxud kipriklari qilt etsayoq u tomchiga aylanib, duv to'kilgudek edi.

- Yo rabbiy, - dedi akam o'zini tamom unutib, - shunday ekanmi?! Bor ekanlarmi?! Qani, qaerida, bir ko'rsating, ustoz. Biz gumrohlar-da ko'rib qo'yaylik, bilib qo'yaylik, - deya iltijo etishga tushdi, o'zi ixtiyorsiz ravishda shajara qogb^hozni-da o'rashga, cholga qo'shilib o'sha halqani topishga oshiqardi.

Chol ham mutaassir bir holda:

- Ha, o'rang. O'raganda ham ehtiyojlab o'rang: bunaqasi har kuni topilavermaydi, - deb tayinlar, bizga o'xshab shoshib qolgan edi.
 - Balki olimlarda-da yo'qdir bunday to'ligb^hi, barcha valiyalar terib kiritilgani. Ha, ha, u kishi quyi tomonda, so'nggi qogb^hoz, so'nggi halqalarda bitilganlar. Maqsudxo'jam, siz ham qarashib yubora qoling, eshikkami, bir narsalarga, ilashib-netmay qo'ya qolsin. Ayagan ko'zga cho'p tushganday, shuncha asralgan narsa yirtilib-netmasin.

Nihoyat o'rab-o'rab, o'sha halqaga yetdilar. Sutchi (xotirasi zo'r ekan) aytgan halqani bir qarashdayoq tanib, "mana, u kishim" deb ushlab oldi va qarangki, halqa ichidagi yozuvni binoyi o'qiy ketdi:

- Abdurahim xo'ja qozi Abdurazzoq eshon o'gb^hillari, ming ikki yuz yetmish sakkiz hijriyda tavallud topmishlar, mudarris, qozikalon, Beshogb^hoch dahasi.

Olim akam ham, men ham sutchiga yalt etib qaradik. Nom o'sha, nisb o'sha edi-yu, mavze o'zgacha edi!

- Beshogb^hoch? - dedi akam qaddini shajara qogb^hozdan ko'tarib. - Qanaqasiga?

- Shunaqasiga, - dedi qariya ham miyigb^hida sirli kulib, keyin hujatning qolganini ham o'rashni buyurib, xontaxta yoniga - boy a'rib engil fotiha qilgan joyiga qarab yurdi. - O'zingga shukr, ko'rsatgan kunlaringga, bildirgan hikmatlaringga shukr, - degancha oyoqlarini yozib o'tirgachgina javobga ogb^hiz justladi:

- Hayron qolivingiz tabiyyi. Siz asli tagi - kelib chiquvning Qoratoshdan ekanini, zamonning zayli bilan Yakkabogb^hga chiqib qolganiningizni qaerdan bilasiz. Siz ko'z ochib o'sha qo'rgb^honni qo'rgansiz, o'sha yerda tugs^bilgansizlar. G'arib esa, bu tarixning bir chekkasini eshon pochchamni Sibiriyadan ola kelaturganimda, Tangritogb^hga o'tkazib qo'yimasimizdan burunroq o'zlaridan eshitganman. Umrlarining so'nggida sanga u kishimi ko'rish, jilla qursa, xizmatlarini qilish nasib etgan bo'lsa, aytmabdilar-da? - dedi kutilmaganda u akamni sensirashga tushib va uning tosh qotib turuvidanmi, nimadan shubhaga borib.

Chindan hayron qolarli edi: oyogb^hidan o't chaqnab, belida kuch qaynagan kezlarini qay dargohlarda ishlab, ne mamlakatlarni kezib chiqqan, paydar-pay topshiriqlarni ko'rdim demagan, kerak bo'lsa, o'limlarga tikka borgan, sarhadlardan ne nomlarda, ne qiyofalarda o'tib yurgan odam... qarib pensaga chiqqach, til o'girguvchilikni ham qo'yib bizning tomonlarga kelib qolishi, birovning tashqarisida turib, sutchilik qilib yurishi, halol peshona teri - oqlikdan qolgani bilan umrguzaronlik qilishi, bularga o'xshab urugb^h-aymoqlarini izlab qolmasligi g^bhalati edi. Mana endi bilsa, kitob jinnisi ekan. Sutchilikni ham qo'yib, buzilayotgan qo'rgb^honlardan (kimning tomidan, kimning urib yuborilgan tokchasi orasidan) chiqqan qadim kitoblarni yigb^hib yurgan ekan. Shunaqqib bir uy kitob yigb^hib qo'yibdi. Ustiga ustak yo'lga tushgan qayragb^hochli yolg^bhiz mozordan chiqqan sandiqlar daragini eshitib, quruvchilarni yeng uchida xursand etib, hammasini o'z uyiga tashitib olibdi. Mana endi bittalab saralab, ro'yxatga olib o'tiribdi. Yana uning orasidan chiqqan mana bunday narsalarni sharhlab o'tirishi, egalarini topib xabar berishi qiziq edi. U kim? Olimmi, darveshmi yo esini yegan chol? Shunchaki umr o'tkarargami bu ishlari yo jiddiy? Hamma eshon pochcha kabilarning nomini atashdan hayiqib yurgan mahalda u nima qilibdi? Sibiriyadan olib kelib, Tangritogb^hga o'tkazib qo'yigan mish. Qay yurak bilan u shu ishni qildiyu qaysi jur'at bilan mana bu silsilai shariflarni topib, yigb^hib yuribdi? Joni nechta bu cholning - bilolmasdim. Olim akamday odamga qanday ishonib bu gaplarni aytmoqda? U axir sotib qo'yishi ham mumkin-ku?..

Yo men o'lgudek vahimachiman, yo laqmaman.

Sutchi chol bizga qarab miyigb^hida kulimsirab o'tirar, Olim akam esa, esi ogb^hib, silsilai sharifning boyagi halqasiga tikilib qolgan edi. Men uning ko'zlarida yosh ko'rsamgina uning sofligiga, pokligiga, ilgarigi yo'llardan qaytganiga ishonmoqchiday unga tikilardim-u, nimagadir o'sha yoshni, halqa-halqa yosh bosgan ko'zni ko'ra olmasdim, tavba.

Bu qo'tir dunyo, bu serg^balva, hech narsaga arzimas hayot uni shunchalar so'qir qilib qo'ygan ekanmi?!. Yo men, yo u - ikkimizdan birimiz adashuvda edik. Chol esa, go'yo keksa hakam edi.

Hojim Nimaga Intiq? (yoxud muallifga ayon tarixlar davomi)

Yenglari tirsakka qadar shimarilib, ariq bo'yiga cho'nqaygan Mirzaxo'ja hojimning xayoli qirgb^hoqdagi maysalaru sambitgullarning oqish-ipiltiriq ildizchalarini o'pib o'ynoqlagan suv ham qolib, tamomi bo'lak narsaga qoqhan edi.

Suvdan ham togb^h-toshlardagi muz-qorlarningmi, quyun-izgb^hirinlarningmi zahri kelib turgandek, ufurmoadedek. Lekin hojim buni sezmasdi. Qolaversa, qachondan buyon oftobda turgan jo'mragi turna bo'ynidan-da uzun obdastasini ham unutgan. Tomlari nokzorni oshib o'tib, bogb^h adogb^hidagi devor sarxokiga mingashgancha qolgan g^barib quyoshdan... (g^barib ham deyish mahol, niyatiga-da yetganidan yal-yal yonmoqda balki!) ko'z uzolmaydi. Bunga sari ko'zlarini yoshlanib-yoshlanib keladi, quyosh

ham chaplashib, ming bo'lakka bo'linib ketayotir.

Hatto osmonda qanot qoqqan qushlar-da ko'zlagan manzillariga yeta olgaylar: sarhad osha bilgaylar. (Albatta, Ollohnning izni bilan). Hatto tog'blarda suv ichgan bulutlar-da, pastga enib vodiylarga suza bilgaylar: sarhad osha olgaylar. (Albatta, Ollohnning izni bilan: shamolga buyurilmasa, shamol haydamasa, qayoqqa ham bora olgaylar?!)

Hatto o'sha ko'hna quyosh-da o'z nizomidan chiqmay sarhad osha biladi, u diyorlarga yeta oladi. Albatta, Ollohnning izni bilan... "Bizda asr vaqtı tugab, shom tushmoqda. Ularda-chi? Choshgohdan o'tib, peshinga yetgandir?.. Bir vaqtning o'zida ular ham, biz ham kundan vaqtning hisobini olmoqdamiz. Lekin qani dardu hasratlarimizni aytolsak, bildirolsak. Biz ularga, ular bizga. U yoqlar tinchroqdir deb qaerdanam jo'natdilar uni? O'zimizning musofirligimiz yetmasmidi? Qizimizni-da, otalar yurtida musofir qilmasak? Holi nima kechdi ekan?..."

Qariyaning ichi sidirilib, o'ksig'i bo'g'b'ziga keldi. Ko'ksining allaqaeri achishar edi.

Nogahon kafti obdastaning iliq bandiga tegib, ariq bo'yiga nima uchun cho'nqaygani yodiga tushdiyu o'zidan o'zi uyalib xijolatlandi: darvoqe, noshukr-lik nechun? Hammasini O'zi ko'rib-bilib turibdi-ku. Hammasi imtihon-ku? Bandasining sabrini sinamoq-ku!

Har galgidek shahid xalifaning farzandi arjumandlariga vasiyati yodiga tushdi: "...Tahoratni chiroyluv-chiroyluv qilib, kamoliga yetkazing. zero, namoz tahiratda". Shunday kezda nimalarga chalgb'ziganidan uyaldi (Uyalganda ham o'zining holini ko'rib-bilib turgan zotdan uyaldi). Va shu xijolatpazlikdan qutulmoq qasdida ham bismilloh ila kaftiga suv oldi. O'zidan ham ko'hnaroq (mushtdek qorinchasiga yarim kosa suv ketib-ketmaydigan, bo'yndan jo'mragi uzunroq) obdastadan oftob taftini emgan jonbaxsh suv tushib, vujudiga tasvirlab bo'lmas bir huzurmi, nimadir yugurdi! Beixtiyor:

- O'zingga shukr, shu kun, shu soatlarga yetkazganingga, yurgizib-turgizib, o'zingga bo'yin qo'ydirib qo'yganingga, shularning barchasining fahmiga yetkazib, kerakli amallaringga andarmon etib qo'yganingga shukr, - deya tili duo-shukronada ekan, tahirat amallarini kamoliga yetkazib ado etishdan o'zi huzur ola boshladi.

Chindan ajoyib. Buncha huzur qaydan? Ixtimat ila kaftiga olgan suvdanmi va yo uning bilagi bo'ylab chopqillashidan? Balki oftob taftimi emgan ajoyib suv ko'kishtob tomirlariyu tagidanoq sargb'zimtil tus ola boshlagan etlarini o'pishidan kelmoqdadur?

Rostdan ham o'sha bilaklarini o'pib-poklab kelaturgan suv... tirsagiga yetganda yana baholi-qudrat jamlanib so'ng ariqdagi o'ynoqi suvga sakramoqda edi. Go'yo gunohlari ham o'sha tomchilar yangligb'z oqub ketmoqda ekanlar, u qushday yengil tortib bormoqda edi.

- G'aq! - Tashqi hovlidan uchib chiqqan ola hakka o'rtadagi devorga qo'nar-qo'nmas shuvillab sarxok to'kildiyu u o'takasi yorilib, boqqami-qayooqqa uchib keta boshladi. Uning uzun qaychi dumiyu chiroli ola qanotlaridanam burun bo'ynidagi to'tiyoga moyil qora barxat "halqasi" ajoyib edi. Kechki quyosh nurida gavhardayinmi, allaqanday tovlanar edi. U shu hurkib uchib ketuvida ham nimadandir imdod berib, sayrab borar edi.

Hojimning nazarida hatto shu shaqildaq olahakka ham o'zi zagr'bz'bon atalmish yurtlarni esga solib, kelmoq bor-u, ketmoq yo'qmi, ketganlardan kim xabar olgay, demoqchi bo'lar edi. Chindan unga nimadir bo'lmoqda: yo Yodgormurod nevarasining daragini eshitgandan beri o'zida yo'q ichikib bormoqda, yo bo'lmasa, bu nimadandir imdod-belgi. Ishqilib, mohpora-Mahfuzaginasini sogb'z-omon bo'lsin.

U yuz-qollarini artib, belbogb'zini yelkasiga tashlarkan, o'shal yurtdan dovon oshib kelib, hozirda oyoqyzdi tariqasida jindek mizgb'zb'ib ketgan aziz mehmonlarini esladi. Axir hazilmi, kimsan nevaraginasining akachasi, bir hovlida o'ynab katta bo'layturgan toy bola - Akbaralini ola kelishibdi! Bagb'zriga bosib, boshlarini silay-silay, bo'ylarini hidlay-hidlay esi ketdi. Danagidan magb'zzi shirin degandek tomirining tomirchasi - nevarasining hidlarini tuygandek bir yerbarga yetdi! Endi o'zini bir rov ko'rsa, ko'rib o'lsa, armoni yo'q edi. Axir o'zlarli judo bo'lgan diyor - ota yurtda ulardan ham bir urugb'z paydo bo'pti-ku! Iloy, tup qo'yib, palak yozsin! O'zlaridan ko'payib, u diyorlarda ham chiroqlarini yoqib o'tirishsin. Iloy, to qiyomatga qadar shajaralarini bardavom etdirishsin. Bir kalima-bir kalima bo'lsa-da, Qur'on o'qib, or-qalaridan savob yuborib turishsin.

Ishqilib Olloh mohporasini qo'shgani bilan qo'sha qaritsin. Botur kuyovining ham u diyorga yo'llarini ocha qolsin, mushkullarini oson eta qolsin.

Zagr'bz'bon behuda sayrab o'tmagan ekan, bogb'z devoriga mingashgan kun uning ortiga cho'kib ulgarmay (uning bir chekkasi qon talashgan ko'zdek qizarib turar edi, tavba!) tashqi darvozada birov chaqirdi.

- Boy buva? Hoy, kim bor?

Hojimning yuragi bir orziqib tushdi. Nazarida kelguvchi bejiz eshik qoqmayotgandek, bir mujda ila darvoza tagida turgandek edi. Yo uning fe'li shunday nozuk, yo botin ko'zi bor: ba'zi narsalar oldindan belgi berib qolgay. Mana hozir ham darvoza tagida turgan odam... o'sha botin ko'ziga avvalo oqliq bo'lib, qolaversa, tog'bz-tosh oshib kelgan safar kishisi bo'-lib ko'rinoqda edi. Nega - o'zi tushuntirib berolmasdi.

- Labbay-yov, mana, boraturnizov, - deb tashqariga shoshilgan eshik ogb'zasi hechqancha o'tmay qaytib, qarshisida qo'l qovushtirdi.

- Duoi-salom ekan, hoji buvo, - ellikni qoralab, yoshi bir yerga yetganda shu tashqarida uy-joy, bola-chaqa qilib, ro'shnolik topgan bu odam sadoqatda tenggi yo'q edi. Sidqidillikda hech kim uning oldiga tusholmasdi.

- Xushvaqt bo'lgb'zay, kimdan deding? - Mirzaxo'ja boyning xayoli salom egasiga qochdi: kim bo'luvi mumkin?

Qay pushtidadir qozoqlar bilan tutashib, yana ajrashib ketgan eshik ogb'zai ikki gapning birida "hov-hov"lab, ba'zan "oy-bay"lab qo'yardi. U so'rashni-da unutganidan azza-bazza xijolat chekib, egildi. Kepchik yuzi chechak toshgan kabi qizarib-bo'zardi va rostiga ko'chdi:

- Faromush etimbangb'zo'y...

- Mehmon-chi? - dedi boy hushyor tortib, - Opkirmadingmi? Non-choy qilardinglar, qutlugb'z uydan quruq qaytmasdi.

- Unamadibg'zo'y, taqsir. Shoshib turgan ekangb'zo'y.

- Esiz, - dedi qarigan sari kichkina tortib, chuvaklashib boraturgan boy, boshini saraklatib, - avvalo nasiba qo'shmagan, lekin Alimat uka, bizning eshikka kelgan odam... esingda bo'lsin, quruq qaytmasligi kerak, barokat ko'tarilgay, biling.

Alimat ikki bukildi:

- Xo'p bo'lgb'zay, o'tags'zasi.

- Keyin kelgan odam yaxshi surishtirilgb'zay: kim, qayqoqdan, qay tomon boradir.

Alimat bosh ko'tarmay o'sha so'zini-da qaytardi:

- Xo'p bo'lgb'zay, o'tags'zasi.

yig'bblayverib shishib borar, shishib borgani sari o'zi kichkina tortib ketmakda edi.

Chunki u o'zidan o'tganini o'zi bilardi. Bu ishda yolgbiz o'zi aybdor edi.

Ha-ha, o'zidan o'tdi. Bir haftalik kelinchakni eriga topshirib qo'ya qolmay eldan burun bir ishonchluv kishiga qo'shib, ota yurtga jo'natmakka shoshdi. Bu notinch diyorda bir kor-hol bo'lismidan ko'ra o'sha yoqni avlo ko'rdi, tinchroq bildi. Kuyavi o'tolmay qolovi tushiga kirish tugul, o'ylab ham ko'rmangan edi. O'sha o'ylamagan oldiga kelib turibdi. Endi dodini kimga aytsin?! Nolai afgb'onini kim eshitsun?! Qaerdan ham o'sha Botur ularning qo'rgb'onini qora tortib keldi? Shul yerto'lada jon saqladi? Kirmasa, saqlamasa, shu ko'rgiliklar yo'qmid? Ne qilsin, Allohning xohlashi, yozmishi shu bo'lsa? Peshonasi shu qadar sho'rekan- mu?

O'zing kechir, ey buyuk egam. Hammasini O'zing ko'rib-bilib turibsan. Ne hol ro'y bergan bo'lsa, O'zing voqifsan. Biz gumrohlar neni ham bilgaymiz? Hikmating ne - qaydan anglab yetayluk! Faqat qizimizga-da yaxshilik sogb'binub topgan gunohlarimizni magb'firat etsang, bas, kechirsang, bas. Uni-da shar'iy nikohidagi bandangga yetkazib, qovushtirsang, xotirjamliklar ato etsang, bas. Bizga bundan ortiq inoyatlarining na kerak, karaming na kerak!

U birdan bir lahma, bir soniya ichida vujudida allaqanday tinch-sokinlikka monand xotirjamlik tu-yib, xushyor tortib qoldi.

- Darvoqe, Mazluma dedimi, Margb'Tuba dedimi? U shifoxonaga tushgan musofirginani? Birovning zaifasi, yaqin-yuqunlarining yo'lini kutib yotgan mushfiqani? Anuv mehmon bola - dovon oshib kelgan toychoq bilsa kerak, tanisa kerak axir uni?

Kasalvandligi, shifoxonalarda yotishinimi, nimani gapirayotib edi-ku?

Chaqirtirmakka sabri chidamay karavotdan tushib, tashqi hovliga, undan yo'lakay ovoz berib mehmonxonaga dovur yetib bordi:

- Hoy, toy bola, mehmon bolam, qaydasan, menga qara?

- Shu yerdaman, boy buva, - deb kemshiktoy - Akbarali chopqillab tushib kela boshladi.

- Shoshma, ehtiyyot bo'l. Qoqilib-netib yurma. Senga gapim bor, xolos.

- Mana, keldim, - dedi bolakay quchogb'Tiga iymanib kirib.

- Ayt-chi, bo'tam, - dedi bolaning kuraklarini silab-siyalab, - sen bilgan Yodgortoyning ayasi... qaerda deb eding? Nima bilan ogb'Trigan, deb eding?

Saritoy uni bir ogb'Tiz gapidanoq tushundi:

- Anuv oq mashinada bannisaga olib ketishgan edi.

- Nega oq moshin? U qanday moshina?- dedi qariya allaqanday vahima bosib kela boshlab. Qay bir sezgilar u o'sha bo'lsa-chi, mohporamiz bo'lsa-chi, derdi.

- G'izillagan mashinami, o'zi kasal olib ketadigan-da, - dedi Saritoy.

- Chaqirishib edimi? - dedi qariya uni sal tushuna boshlab.

- Togb'ham chaqirtirib edilar.

- Shunaqa ogb'Tirmidi kasali? Nima bo'lган edi? - Qariyaning o'zi titray boshlagan edi. Lekin titragan qo'llari bilan-da bolaning kuraklarini silashdan to'xtamasdi.

Bola bo'yinini qisdi:

- Bilmasam...

Hali xorijdan kelgan mujda xat ta'siridan qutulmagan qariya tusmollashga tushgan edi:

- Ancha bo'lib edimi, ko'pdan yotarmidi?

- Ko'pdan edi, - dedi mehmon bola birdan unga qo'shib. - Yodgor sogb'biniblar ketgandi.

Qariyaning ojiz yuragimi - nima, titramoqqa boshlagan edi:

- Oyoqqinasiga-chi, nima bo'lib edi, bo'tam?

- Kimni?- deb durustdan tushunolmadi Saritoy.

- O'sha opoqingni-da. Yodgorni ayasini? - dedi qariya kalavaning uchini topgandek bo'lib.

Bola ko'zini yumib eslashga urindi va sakrab-o'ynoqladi:

- To'gb'Tri-to'gb'Tri, bir yara chiqqan ekan. Opoqbuvim ko'zyara deb edilar. Keyin oqadi ekanmi?

- Subhanalloh, - deb shivirladi qariya ko'zlarini yumgancha, yaxshiyam mehmon bolani quchogb'Tidan qo'ymay turgani, orqasiga ketsa, nima tutib qolardi. So'ng o'zini o'nglab, o'midan turdi. Eshik kesakisiga orqa qilib, uni o'ziga tortdi:

- Oti-chi, oti, nima edi? Eslay bilasanmi, bo'tam?

- Kimni... oti? - anglay olmadni bolakay. - Kimni aytasiz?

- O'sha... Yodgortoyni ayasini-da? Margb'Tubamidi, Mahfuza edimi? - deya oldi qariya.

Bola chindan bilmasmidi, boyagidek yelka qisib, jim qolgan, bilmaganidan o'zi xijolatga tusha boshlagan edi.

Qariya tin olib, nafas rostladi: savolni bu gal boshqacharoq qildi:

- Esla, bolam, uni qanday chorlashur edi? Masalan, o'sha opoqbuvung? - deya yana kuraklarini silay boshladi.

U esladi:

- Ha, kunposhshamu, oyposhsham derdilar.

- Yana? Yana-chi, qanday atardilar?

- Yana Margb'Tu kelinim - mangu kelinib derdilar. Nima edi, buva?

Eshik kesakisiga suyanib turgan buva esa bu vaqt holsizlana-holsizlana pastlab bormoqda, bo'yi bolakayning bo'yiga tenglashib kelmoqda edi.

So'nggida u eshik kesakisiga suyangancha o'tirib qola qoldi...

Ertasiga Mirzaxo'ja hoji ular bilan jo'narini e'lon etdi.

Silsiladagi Oq Halqa (yoxud dorussalom)

Biz shajara qoqgb'ozni yana o'ziday etib, (men tekislاب turar, akam o'ziga tortib - nay etib) o'rар ekanmiz, (uning gb'bilofidan chiqib qolgan bir enlikkina qismi - oftob urgandek sargb'Tarib ketgan edi) ana shundan mening vahmim kelib, vujudimni tushunuksiz bir majhul kayfiyat o'rab kelar edi: nima bu - o'tmish qa'riga ketgan zamon nusximi yo havoning ishi? Axir nur tushgan emas-ku unga, oftob urgan-da desak? Ochiq qolgan qismigagina yetgan. Demak, biz istaymizmi-yo'qmi, hamma narsa sargb'Tarib, unniqib, chirib-to'kilib, yemirilib boravuradi. Titilib, to'kilib tushaveradi. Boqiy qoladigan narsa yo'q. Narsa borki, zax tortib quriydi. Qurib qovjiraydi, qovjirab sargb'Taradi, sargb'Tarib yupqalashadi, yupqalashib to'kiladi. Va yo'qlikka ketadi. Xuddi uydan chakka o'tganidek, qadrli-qimmatli narsalarga nam tepchib, zax urib, mogb'bor bosib, alohal chirib tushgani kabi,

kuni bitgani kabi... Bu olamda boqiy nima bor? Hatto shajara qog'bozdan allatovur bir hid ufurmoqda edi. Xuddi qipiqlik hidiga o'xshash... Bular ham zamonlar kechishi bilan qipiqla, qipiqlan bo'lgan narsa yana qipiqla aylanib borayotgandek... Meni ana shunaqa mubham kayfiyat bosib kelmoqdaydi, undan o'zimni olib qocholmasdim, chalgb'itolmasdim. Nimaga - tushuna olmasdim. Aftidan yo xayollarimni zamon qa'rige olib qochgan mana bu shajara qog'boz, yo anavi eshigi qiya ochiq hujradan ufurib chiqayotgan mogb'bor aralash eski kitoblar hidi meni bu holga solmoqdaydi. Necha yil tuproq ostida yotgan kitoblarimi va yo uning egalarining taqdirimi xayolimni o'gb'irlab, band etgan edilar.

Sutchi (darvoqe, u hamma ko'chib, guzardan putur ketib, obkash yelkalashni bas qila boshlagan, endi uni sutchi deb emas, kitob jinnisi deb atash to'gb'iroq edi), ishqilib chol:

- Men hozir, - deganicha o'sha hech yerga ishonmaydigan kitoblari taxlangan hujraga kirib ketdiyu, yana nimani izlab qoldi - bilmadim, chiqqa qolmas edi. Menden ham kamgap bo'lib qolgan Olim akam esa, o'raydiganini tezroq o'ray qolmas, xuddi shajara qog'bozdagi yozuvlardan bir narsa tushunadigandek ora-oradagi bir joylariga tikilib turib qolmoqdaydi. Xat taniydi shekilli deb... zehn solsam, yo'q, nuqul bo'sh - oq halqalarini sanamoqda.

Darvoqe, u nimasi? Nega bo'sh qoldirilgan? Sutchidan nega so'ramadik? So'rasak bo'larmidi...

Atay o'ramni bo'shatdim, u tubi ila taqir namatni o'pib, uzala tushdi. Akam sezib yuzimga qaradi. Menga ham shu kerak edi:

- Nimasini sanayapsiz? - dedim.

Olim akam (jiyan tog'ba tortadi degani haq rost ekan!) Qo'ldosh tog'hamlarga o'xshab, labini yoyib, sassiz kului. Uni "obbo sen-ey, shuniyam nazardan qochirmadingmi, uzoqqa borasan sen, uzoqqa" deganday ham, "aqling yetmagan narsaga burningni tiqmasang kimni ko'ngli qoluvdi" deb ham tushunish mumkin edi. Ammo tog'ham hech maynaomuz kulmasdilar. Bunikida ham... yo'qday, ishqilib tikilib turib ham sezmadim.

- Qiziq, - dedi u yelka qisib ham ovozini bir qadar pastlatib, - bular hammasi o'tgan zamonning o'tib ketgan ulug'balari bo'lsa, o'zi ham bundan ellik yil burun to'ldirilgan bo'lsa, yonidagi bo'sh o'rinnlar nimaga ekan? Shunisi gb'balati.

- Nimani aytasiz, anuv ochiq halqalarini? - dedim men ham yutoqib Ajab, fikrimiz bir yerdan chiqayotib edi? Nima, ular - unutib qoldirilgan zotlarmi yo kelajakda chiqadiganlari?.. Shu tob hovlining etagidami va yo undan ham naridami (narisi - devorning orti anhor, anhorning ortida chivig'biiga ham birov tegmagan lager bor edi!) haqqquqush sayrab, unga boshqasi boshqa tomondan - Qozoqmozor deb ataluvchi qayrag'bochzordan javob qila boshladni. Kuppa-kunduzi quyuq daraxtlarning qay bir shoxidadir (albatta, in qo'yib, uya qurgan joylariga yaqin bir yerda o'tirvolib) roz aytishlari, bir-birlarini chaqirib-chorlashlari gb'balati edi. Odadta ular kechalari allamahalga dovur chorlab, kechaning siriga sir qo'shuvchi edilar. Bular esa, vaqt hisobini adashtirib qo'ygandek kuppa-kunduzi qo'shiluv-ko'payuv oyatini tilovat etishar edi. Balki hamdu sanolari, tasbehotlari shundaydir. Harqalay hozir bularning bir-birlarini qo'msab chaqiruvlari, chorlab-zorlanishlari, "sen qayda, men bunda"lashlari, kuppa-kunduzi qaro tunda adashgan jigargo'shalar singari ovoz berishlari menga yoqib tushmoqda edi.

Ammo, manavi diyordan adashgan akalarim nega bir-birlarini izlamaydilar, chorlab chaqirmaydilar? Shu zabonsiz qushlarki, bir-birlarisiz turolmay o'z tillarida zori-nola qilganda nega ular jim, dunyoni ostin-ustun qilib bo'lsa-da, bir-birini zor-intizor izlamaydilar? Yo buning yuzi shuvit, kechirilmas gunohlari bormiki?... Balki biz bilmaydigan narsalarni ham bilar - shuning uchun jimidir?..

- Sen nima deb o'ylaysan?

- Nimani? - dedim daf atan anglab yetmay.

U endi tog'hamlarga o'xshab beozor, (nega beozor, meni xuddi erkalagandek) miyig'biida kului:

- Mashi bo'sh qolgan joylarni-da?

- Keyin chiqadigan zotlarga atab qoldirilgan, deysizmi?

Olim akamning ko'zlari chaqnab ketdi:

- Voh, balosan-ku! - deb yubordi. - Topding-a! Mening nazarimda ham shunday! Atay qoldirishganov.

Yuragim dukurlab ketdi, o'zimning fikrimdan o'zim qo'rqiб ketgan edim:

- Bashorat qilib-a?

Esim teskari bo'lib borayotir edi. Chindan ham unday zotlar otilib-netib, badarg'ayu surgun qilinib bo'lgan kezda qay bir tupkaning tagidan anqoning urug'biini topsa mumkindir-u, bularni topish amri mahol kunda - bu gb'balati edi! Aql bovar qilmas gap og'bzimning bir chetidan chiqib ketgan, endi o'zimning vahmim kelib, peshonamni sovuq ter bosib bormoqda edi! Ularning o'zi qanday to'zib yuribdi-ku, men bashorat qilib qayoqdagi gapni gapiryapman?.. Balki manavi eski turish-turmushi, bolas-chaqasidan kechib, yakka-yolg'bi yashayotgan, hukumatga o'tkazib qo'ygan xizmatlari ham qolib, obkash ko'tarib, sutchilik qilib yurgan, o'zini ibodatgayu eski kitoblarga urganchidan so'rab boqish kerakdir. U kishi bilar haqiqatini?..

- Menam shundaymi, deb o'ylayman. Ilgarigilar ko'p narsa bilishgan. "Bashorat" kitoblarini o'qishgan. Biz nima bilamiz, - dedi Olim akam tan berib va asta boyagi ishida davom etib. Qo'limizdagи qog'boz shildirab o'ralar va shu barobar dimog'biimizga mogb'bor aralash moziy hidi ufurayotgandek bo'laverardi.

- Harqalay so'rab boqish kerak, - dedim men boyagi bilag'bonligimdan xijolat chekib.

- Ustozdanmi? - dedi u.

Men sergak tortdim: bu odam unga qanaqasiga ustoz bo'lsin? Yo ilgaridan biladimikan?

Men bir qarorga kelib ulgurmay hujradan sutchining o'zi chiqib kela boshladni. Uning qo'lida naycha qilib o'ralib, ikki tomonidan qisqich qog'boz bilan o'rav-chirmalgan bir narsa bor edi.

- Uzr, sizlarni kuttirib qo'ydim. Qaerga qo'yganimni faromush etib, ey izlovdim tunov kuniyam. Turgan ekan, Bobur hazratlarining ortlarida, u kishining "Voqeotnomalari"ga esh bo'lib, - dedi sutchi, u "oltin sopli pichog'bi"ni topganidan og'bzizi qulog'biida edi. Bunisi chinakam shajaramiz ekanmi?! Chindan mening ichim tushib borarkan, Olim akam entikdi:

- Bu ham o'sha sandiqdanmi, ustoz?

Sutchi muloyim bosh chayqadi:

- Yo'q, buni manavi mirzom, Maqsudxo'jaga ilindim. U sultonlar kechmishiyu saltanatlar tarixiga qiziqadi. Bir kun kelib Qodiriyga o'xshab, biror kitob-mitob yozib qolsa, asqotar, deb olib qo'yib edim. Shunaqa siyoqi ham bor buning, - deb meni xijolatlarga qoldirdi: azbaroyi ikki yuzimu quloqlarim lov-lov yonardi. Lekin bu gap shu tobning o'zida bir chekkasi menga moydekk yaqib turibdi. Rostini aytasam, choli tushmagur topdi "kasalim"ni. Boshqacha aytasam, mendek "gap o'gb'bris"ni o'gb'birlik ustida tutgan edi u. Ikki yuzim cho'gb' bo'lib yonishi shundan edi.

- Biz esa, bu yoqda Sizdan bir narsa so'rashga ilhaq bo'lib o'tiribmiz, - dedi Olim akam hayratlanib.

- Shunaqami? Bilsam jonom bilan, jonus jahonim ila, - deganicha u biz tomon yuraverdi, - shu burhon qogb'bozdanmi? Qoziyu quzzotlar muhri bosilgan narsadan-a?..

Men tilim lol, ammo unisiniyam, bunisiniyam bilgim kelib ichim tushib turibdi, lekin qani ogb'biz ocha olsam. Tagb'binam Olim akam dadil ekan:

- Manashi oq halqalarni aytamiz? Nega bo'sh qoldirilgan? Egalarini aniqlay olishmaganmi yokim?.. - dedi tusmollab.

- Ha-a, bumi? - dedi qariya, so'ng jiddiy tortib qo'shdi, - Bunda ortiqcha narsaning o'zi yo'q. Hatto kemtigi bor, deb o'ylashga qo'rqadi odam. O'shal bo'sh joylar-da bexosiyat emas. Mening nazarimda qiyomatgacha chiqadigan avliyo zotlar uchun qoldirilgan. Hatto mana, qarang, Eshon pochchamdan keyin ham bitta bo'sh o'ren turibdi. Demak, sizlarning qay bir pushtingizdan yana bir ulugb'zot chiqqay. U kim bo'ladi, yolgb'ziz Alloh bilgay.

Qariya shajara qogb'bozni siypab, ko'ziga surtgudek bo'lib gapiryaptiyu nazarimda u biz bilgan oddiy sutchi emas, jandaga o'xshash jun chakmonga o'ravolgan darvesh ham emas, juda ko'p narsalarni bilgich olim kabi haybatimi, salobatimi ortib borar, "man, nega bu odam halimdan halim, nurlidan nurli!" derdim ichimda. Hatto shu narsalarni bildi-ya! Bu atrofda unga teng keladirgan kim bor?

Bunga sari savol xaltam ochilay-ochilib ketay deb boryapti. O'zimni zo'rgb'ba tiyib turibman.

Axiyri chiday olmay so'radim:

- Bunday avliyolar... har yuz yilda bir chiqqaymi?

Qariya ajablanganini yashirmay men tomon o'girildi:

- Nimaga asoslanib... aytayapsiz, eshon bola?

Men gb'budranib qoldim:

- Shunday gaplar yuradi-ku, axir.

- Yuradi-yuradi, - dedi u bosh silkib. - Qolaversa, Allohnning va'dasi bor: vaqt-vaqt bilan o'z dinini yangulab, quvvatlantirib turguvchi kishilar yuborib turilgay. Har qavmnning o'z ichidan.

- Paygb'hambarlarmi? - dedim men hayron qolib. Negaki...

Qariya yumshoq jilmaydi:

- Bilasiz ekan. Muhammad sollallohu alayhi vasallamdan keyin paygb'hambar kelishi to'xtagan bo'l-sa-da, valiylar silsilasi to qiyomatga qadar uzulmagay.

- Qanday? - dedim aqlimga sigb'hdirolmay, - axir borlari ham...

- Ha, borlari ham otib bitirildi, badargb'ba etib yo'qotildi, lekin, - deb sekin o'z o'rniga - boyagi fotiha qilgan joyiga qarab yuraverdi, - lekin bu asrdagina shunday bo'ldi, baloning qattigb'bi o'shalarga tushdi. Bu ham Allohnning xohlashi, imtihoni. Lekin bu ular qirilib bitdi, orqasi kesak degani emas. Poshsholik poshshosiz qolmaganidek, bu silsila ham bardavom etavergay.

- Qanday? - Men hamon tushunib yetolmasdim.

- Juda oson, - dedi sutchi o'z o'rniga cho'kib.

- Alloh Muhammad alayhissalomning ruhi- poklari bilan barcha ummatlarini tanishtirganida kimning ko'zi ul zotning muborak ko'kraklariga tushgan bo'lsa, olim, ulamo, kimning ko'zi boshlariga tushgan bo'lsa, saltanatdor - podsho bo'lgan, - qariya mayindan-mayin ham muloyim jilmaydi, - mana, sizning ko'zingiz ul zoti sharifning o'ng qo'l barmoqlariga tushganki, kotib-mirzo, qalam egasi bo'lib turibsiz. Shunga o'xshab, hamma ham bir narsaga ega bo'lgan o'sha taqdirul azalda. Avliyolar sirasi ham uzulmasligi shundan.

Men niyoyatda hayratda edim. So'ramoqchi bo'lgan narsamni cheki-chegarasi yo'q, ammo o'zim lolman. Bo'lmasa, so'rasam yana so'ragudekman: nega hamma muborak boshlariyu ko'kraklariga qaramagan? Betavfiq o'gb'tri-kazzoblar-chi? Ularning ruhi qayooqqa qaragan? Osongina dindan qaytuvchi munofiqlar-chi? Qotillar-chi, jallodlar-chi? U zotga qaramaganmi? Bilgim keladiki, u yogb'bi yo'q.

Bu orada akam silsilai sharifni o'rabb, jildiga ham joylab ulgurgan, biz o'z-o'zidan ilgarigi joyimizni egallab, qariyaning ogb'bziga tikilgan edik. Hammadan ham men uning horgb'bin, biroz qoni qochgan, ammo tag-tagidan yoqimtoy bir nur tepchib turgan betidan, o'ziga yarashiqli mayda ajinlar bosgan qabqlariyu qisiq ko'zlaridan nigohimni uza olmasdim.

- Shuning uchun ham har kim poshsho bo'lavermas, har kuni avliyo tugb'bilavermas, bo'tam, - dedi u qo'lidagi qogb'bozni deraza tokchasing bir chetiga qo'yib. Demak, hali-beri berish niyati yo'q. Qancha pisandayu nasihatlar bilan tutqazsa kerak qaytayotganimizda. Hoziroq bera qolsa nima qipti, ichimni tushirmay? Ammo mehmonmiz, o'z izzatimizni bilishimiz kerak. Men Olim akam bo'lsamki, tilyogb'blamaliklar bilan bo'lsa-da, ichim qurigan narsani so'rabb olsam. Men unaqamasman, tortinchoqning tortinchogb'ziman. Menden muxbir chiqishi ham dargumon, yana kim biladi. Axir Lavhul-Mahfuzda bitilgani bo'ladi emish-ku. Qolaversa, men Olim akamning qozon-tovoqqa unnagani chiqishini kutib yotibman. Yolgb'ziz qolsam, o'zim bilardim, sutchi amakidan nimalarini so'rashni: Siz bu akamni qaydan bilasiz? Faqat otalari - Eshon buvani tanirmidingiz yokim ilgaridan salom-alilingiz bormi? Nega ustoz deyapti? Bir idorada ishlaganmisizlar? U bir qancha yil bedarak ketib, qancha mamlakatlarda "o'yab kelgani"ni, hozir chulchut xotinidan qochib, so'qqabosh yashab yurganini-chi, bilasizmi? O'ziz-chi, o'ziz? Shuncha ilmingiz, xizmatlaringiz bilan nega hamma qatori yuribsiz? Nega qariganingizda birovning tashqisida turib, sutchilik qilyapsiz? Tarki dunyo qilgan odamlardek? Axir issigb'zingiz bor, sovugb'zingiz, (issiq jon!) yotib-netib qolishingiz bor?

So'rayversam - so'raydiganlarim adoqsiz. Lekin Olim akamning oldida tilim tushovliq - miq etib ogb'biz ochoholmayapman. Undan istihola qilganimdanmas, yo'q, ba'zan unga ishonmay, shubhalarga tushib ketaman: ko'zimga ilgarigi Olim akamdan ham quvroq, undan o'n chandon o'tadiganroq bo'lib ko'rinish ketadi. Nega shunaqa - o'zim tushunolmayman. Yana bir qarasang bib-binoyi - hammaning ustida o'lib-qutiladigan odam bo'lib qoladi. Mana, hozir ham:

- Aymoqchi, ustoz, oshni xarajatini qip kelgandik, go'shtni ari talamasidan qozonga olov yoqvora qolay-a? Palovxonto'rada keyin suhbatizzi olarmiz, maylimi? - deb qoldi.

- Iya, hali shunaqami? Sizlarning sharofatingiz bilan qora qo'chqorning yogb'zida bo'lgan palov yerkanmiz-da? Nasib-nasib. Savzi-taxtayu pichoqlarni olishvoray unda, - dedi sutchi o'rnidan turishga unnalib.

- Yo'q-yo'q, siz urinmang, o'zim topib olaman. Faqat muxbir-mirzongiz oloviga qarashvorsa, bas, - dedi akam bejirim tufligini kiya-kiya.

Men noiloj qo'zgb'ola boshlab edim, qariya bilagim ustiga yumshoq kaftini qo'yib, "Siz boshlay turing, hozir chiqadi mirzom", deb qutqarib qoldi. Boshim osmonda, qaytib cho'kdum. Akam esa, "yaxshi-yaxshi"lab chiqdi.

Sutchi hali bilagimni qo'yib yubormagan, men esam u momiqdayin narsaning xush taftidan bolakayday erib borar edim. Qariya

o'zini yana ham yaqin olib, bilagimni asta-asta silarkan, ko'zlarimga tikilib qolgan edi. Nihoyat, akamni uzoqlatib:

- O'bba, Maqsudxo'ja mirzom-ey, shunaqqib Far-gb'bonalardan ko'chib kelib oldinglarmi, - deb qoldi. - Bir chirolyi ish bo'pti, o'z yutlarizga qaytib organiz. Salompam bardam-baquivvatginingilar? Uylarni bitirib, joylashib ketdinglarmi? Qizchalarimiz, kelin qalaylar?

Men javob berib ulgurmasdim:

- To'ngb'Tichimizning tili chiqib, keyingisi yurib ketdi. Oyim o'shalarminan andarmonlar. O'tiribmiz: boshimizda boshpanamiz bor, qora qozonimiz qaynab turibdi, shukr.

- Barakalla, obkash ko'tarib, sutchilik qilib, oqliqni orqasidan o'qitgan edilar. Ilohim, o'sha zahmatlarning rohatini ham ko'rsinlar. Tup qo'yib, palak yoyingu shu mirzolikda qoqilmay-suqilmay Allohning rozilagini toping, - deb duo qila ketdi, so'ng hech kutilmaganda:

- Aytmoqchi, so'rayman deyman, so'ray olmayman,- deb qoldi, - buning akasidan - anuv yoqlarda qolgan qarindoshingiz - kim edi, o'shandan darak bormi?

Ha-a, mana, nimaga olib qolgan ekan?! Yuragim dukirlab:

- Sultonmurod akamni... aytasizmi? - dedim vujudimga bir titroq tushib.

Qariya im qoqdi:

- U sho'ttamish degan gaplar yuribdi?

- Yuribdi, lekin o'zimas. Quruq mish-mishlarga o'xshaydi, - dedim bosh chayqab. Ammo Chaman akam uni izlab ketganicha badar ketib borayotganini aytib bo'-larmidi!

- Ketganlar kelib bo'lди-ku?

- Chegaradan o'tolmagan. O'tolsa, kennoyimni tashlab qo'yemasdi bunday, - dedim. O'zim ham hayronman. Mulohazalarim o'qday-o'qday edi, qariyadan yotsiramay aytib yuborayotgan edim.

Ammo kaftining ustidagi ko'k ipakdek tomirlarini siypab, xayolga berilib ketgan sutchi shoshmas, maqsadini ocha qolmas, bunga sari mening gumanu taxminlarim toshib borar, uning dildagini o'zim sugb'burib olgim kelaverardi.

- Nimaga edi, amaki?

Qariya o'ziga kelib, iymanibgina qaradi:

- Harna qilsa, eshon buvani ko'rib qolganmiz, suhbatlarini olganmiz. Shunday odamning bolalari to'zib yursa, achinadi-da, kishi.

- Nimasini aytasiz.

- Ular to'zigani to'zigan, bular qo'nim topa qolsa bo'lardi. Arvoхlarini shod etib.

- Qo'yisharmikan shunga?

Sutchi tushunib, yuzimga qarab qo'ydi:

- Lekin bu dunyoda kishi o'zini o'tga-cho'qqa urib yuraverishi ham yaxshi emas. Murosai madora ham lozim.

Men tok urgandek bir sapchib tushdim: akam bo'ladi-ku, shu gapga ko'narkanmi?! Nusrat pochchaning gaplarini olmagan, bu gapni olarkanmi?!

Biroq tilim hech aylana qolmasdi. Bunday qarasa, hamma gaplari to'gb'ri. Lekin akam - akam-da! Hamma u bo'la olsin-chi!

- Men uni bilaman-ku, - dedim.

Qariya xotirjam orqasiga suyandi. Ko'zlarimga o'sha-o'sha nasihatomuz (xuddi men - men emas, akamday! Meni akam o'rniga qo'yib!) muloyim boqdi: go'yo men ko'nsam, u ham ko'nib qoladigandek:

- Menam bularga azbaroyi yaxshilik sogb'Tinganimdan aytayotibman. Avvalo, o'zi biladi, lekin qachon Allohning xohlaganimas, bandasining aytgani bo'libdi? Uning kitobiga suyanmagan odam hamisha dogb'ha qolavergan.

- Qanday? - deb yuboribman.

- Hamma narsa uning kitobida bitigb'liq, - dedi qariya ma'noli jilmayib. - Do'ppisini olib qo'yib o'ylasin tanasiga. Dunyo - dunyo bo'lgandan beri qancha fir'avnlar o'tdi, Iskandaru Nushiravonlar ketdi. Nega hech kim adolatli davlat qurolmadi? Xalifaliklar o'tdi, Andalusiyada Abdurrahmonlar davr surdi, dorulmamlakat qurdik, deb. Lekin nega hech biri asri saodatga o'xshab kelmadi? Bormi odil hukumat qurib, davron surgan biron kimsa, bu jahon ayvonida? O'ylab boqmaydimi, darbadar kezguncha, mamlakatma-mamlakat oshguncha? Hijrat uzilgan-ku. Qo'nim topsa bo'lardi, yoshi ham o'ttizni qoralab borayotgandir, axir?

- Shunday, - dedim men Sutchining (sutchi desam, olim ekan-ku!) ko'zlariga qaray olmay.

- Gap shu, mirzom, - dedi u boshqa e'tirozu gap-so'zlarga o'rin qoldirmay. - Ayoli sho'tta bo'lsa, daragiyam chiqib qolar. Bir bosh suqmay iloji yo'q. Eshon pochchanning tegirmonga tushsa butun chiqadigan o'sha o'gb'Tillariga ilingan bir narsam bor, - deb deraza tokchasiдagi boyagi naycha qilib o'ralgan qogb'bozni ola boshladi. - Daragi chiqishi bilan mana shuni yetkazasiz. Bu mening so'zlarimmas. Davlat qurban, qurgandayam qotirib qurban odam - Hoziq to'ramning "vasi-yat"lari. Xohlasin, nasihat deb qabul qilsin, xohlasin, o'zidan uch-to'rt ko'ylik ko'p yirtgan odamning xulosai umuri mujohid deb bilsin. Mana, ko'chirib oling-da, yetkazarsiz vaqt bilan.

- Ko'chirib olib? - men hayronu lol qolgan edim. (Boyagi gaplari - kishi ko'ziga ekan-da! Olim akamning oldida aytolmagan ekan-da?) Lekin nega o'zini bera qolmayapti - mana shunisi tushunarsiz edi. Jur'at etib-etmay so'radim: - O'zi-chi, mumkin emasmi?

Sutchi im qoqdi:

- Shunisi ma'qul. - Keyin qo'shib qo'ydi. - Qolaversa, buni yolgb'biz o'zizga ishondim. Birov bilmagani ma'qul.

- Xo'p, xo'p. Omonatdek ekan.

- Bo'lmasa, men turdim, unga qarashib yubora qolay. Siz ko'chirib bo'lib chiqarsiz. - Sutchi sandalga suyanib turdi-da, kovshandozga tushib, oyogb'Tiga bir nima ila boshladi, so'ng Hizr nusxi urgan chollar kabi ma-yin jilmayib qo'yib, qo'lining orqasini beliga tashlab, enkaygancha ostonaga qarab yuraverdi. Men esam titrab-qaqshab naychaxatni ochishgaga unnalardim. Ne umidla ochsam... qay ko'z bilan ko'rayki (mana, nechanchidir marta!) o'sha o'ngdan chapga boshlanadigan alif, lom, mimli xat. Zammayu kasrayu fatxalaridan, dumaloq sukulnalaridan ko'zim tinib ketdi. Bu belgilarni taniganim bilan men boyaqish koshki o'sha belgilarni harakatlantiolsam, ochqichini topolsam.

Mana, nechanchidir marta ichim sidirilib, o'zimdan o'tganini o'zim bilib turbibman. O'sha narsa ichimdagи necha yillik armonlarni qo'zgb'hab, uni alamgami, alam qorishiq yigb'Tigami aylantirib, tomonb'hamni gb'Tip bo'gb'Taganicha bo'gb'Tzimga qadalib olgan edi. Na qaytib ketadi, na toshib, utilib chiqqa oladi. Chiqsa, yengil tortarmidim. Tagb'bin men ziyyoliman! Oldi mirzo, maqtovli bitikchiman! Holim esa bu! Otalarimiz xatini o'qiy olmasam! Nechanchidir marta tarjimon izlashga majbur bo'lsam. Aytishga-da, uyalasan. O'rnimdan turarimni ham, sutchiga aytarimni ham bilmasdim. Shunday narsa qo'lga tushganda bunday o'tirishim...

alamli, ham ayanchli edi. O'zimni nochordan nochor his etib ketdim. Va shu tob... bir nima qitirlab, derazaning bir tavaqasi ochila boshladiyu Sutchi ko'rindi:

- Aytmoqchi, mirzom, tokchada qogb'Toz bor, - degan joyda yuzimga ko'zi tushib, holu ahvolimni bir ko'rgandayoq fahmlab qayta boshladi. - Ie, ie, u兹-uzr, mirzom. Men qariyani ma'zur tutasiz. Xat eski yozuvimizda-ku. Menden o'tibdi. Faromushxotirlik qursin. Ayтиb tursam ham bo'ladi-ku.

U meni bir chekkasi xijolatlarga qoldirib, bir chekkasi boshimni osmonga yetkazib kirib keldiyu boyagi joyiga cho'kib buyira ketdi:

- Anavi tokchada qogb'Toz ham, qalam ham bor. Olavering, tortinmang. Qo'y bersang, arqoni bilan ber, deganlar. Savobi to'liqroq bo'ladi, - deb kului. O'zi esa naycha qilib o'ralgan qogb'Tozni qo'liga ola boshlagan edi. Uni qarang, shu muomalalardan keyin boyagi alam- armon, xijolatpazliklardan hech nima qolmagan, hammasi ko'tarilib bitgan edi. Men dikka turib, aytligan narsalarni olib keldim-da, boshladik.

Mana shu Ilhom domla aytib turib, men hovliqibu yuraklarim hapriqib ko'chirib oлган o'girma. Asli u kishida qoldi. O'zi esa, Hoziq to'ramning qalamlariga mansubmish. Sutchi Maskov uchun o'girib bera turib, o'zi uchun shunigina atay, yomon ko'zlardan yashirib, ming andishayu istihola ila ko'chirib oлган ekan. Vаqtı kelib, Sultonmurod akamga ilinibdi. Xudoning xohishini qarang. Go'yoki, Hoziq to'ram Maskov tergovchilari uchun emas, Sultonmurod akam uchun yozgандеклар. O'qing-a, Siz ham...

"Ey bor Xudoyo, endi bu satrlarni yozgb'Tuvchi гb'Barib qilingni kechirgaysan. Rahmon va rahim sifating-la mendan o'tgan aybu gunohlarni o'chirgaysan. Majburlik orqasida neki imonimga zid bir ish qilarga to'gb'Tri kelgan bo'lsa, o'zing shohidu xabardorsan, hammasini dinim uchun, uni kaftimda laxcha cho'gb'Tdek tutib asramoq uchun qilib erdim. Sening rozililingini topdimmiyo'ymi, yolgb'Tiz o'zingga ma'lum. Menden so'rab-ista-yotgan narsalarini chin-rost holida yozishga majburman. Ular Yerning temir o'qlari bo'l mish togb'Tilar oraligb'Tidagi bu mamlakatda biz qanday inqilob qilganimizni, shariatga asoslangan va ham zamonaviy mo'minlar davlatini qurganimizni, uning tarixini sirigacha yozib bermakni qistamoqdalar.

Men uni daqiq-daqiqiga qadar, biron narsa qoldirmay, hatto bizni yanchib tashlash uchun togb'T ortiga kelib tushgan o'n ming chogb'Tli yogb'Tiy lashkarini qanday yengganimizgacha yozib berdim. Albatta, nusrat sen tomondan edi. Ammo ular buni qaydan ham bilsin- lar, qaydan tushunsinlar! Bo'lmasa, bola-baqrasi, ayolu zaifalari bilan toqqa ko'tarilgan xalq har biri bittadan gulxan yoqqan taqdirda ham agar bir ovozdan takbir aytib, sendan nusrat istamasa, jonidan kechib yogb'Tiy tomon talpinmasa, dushman qocharmidi! Mujohidlar qalbiga nusrat ishtiyoyqini solib, dushman yuragiga гb'Tulgb'Tula yuborgan o'zingsan-ku, Ollohim. Bu quadratni bular qaydan ham bilsinlar, onglab yetsinlar!

Shunday deyman-u, bu tarixni chinligicha yozib berib, gunohim ustiga gunoh sotib olmayotirmanmi degan-da o'ylarga ham boraman. Bir tur shubhalarga tushib ketaman. Lekin na qilay: kuygan ko'ksim shuni tilab1-da turgan bo'lsa?!

Yana chin gaplardan kelar bo'lsam, bu kuygan o'tlugb'T ko'ksumdagи armonlarimni to'kar bo'lsam, bu munglugb'T ko'nglumdan qo'zgb'Tolgan qaygb'Tularim qaynar suvdek bo'lib ikki ko'zimdan oqqani turgan esalar-da, endi haq so'zni aytar paytim keldi. Biz orzulardik. Mo'minlarga saodat asridagidek bir jamiyat qursak, Ollohim rizoligini topib yashasak, ibodatlar etsak deb. Birovga oгb'Tirligimiz tushmasa derdik. Biz qo'shnilariga tegmasak, ular ham bizga tegmasalar, urush-so'qishlarga aralashmasak, zulmni, zabit etuvlarni esdan chiqarsak, unutsak derdik. Chiroyli amallar bilan, sadaqotlar qilib, savoblar topib o'tsak, hammani sening qaytarganingdan qaytib, buyurganining ado etib yashashga rozi qilolsak derdik.

Ammo kalta o'ylagan ekanmiz. (Dovon oshmagimda uchragan u mahluqing bejiz emaskanmi, uning hikmatiga endi tushunib yetmoqdamizmi, evoh!). Yerda jannat yaratmoqchi bo'libmiz. Endi bilsak, maozoalloh, bandaligimizni, nihoysi ilmi cheklangan qullaring ekanimizni unutibmiz. Bizning magb'Tubliyatimiz tabiiyidir. 1 Mo'min banda amirlikka yetganda ham mo'minligicha qololmaslidigidandir bu. O'ziga ko'-o'p bino qo'yvorishidandir bu.

Qurdobadagi Abdurrahmonning xalifaligi, mashhur Dorussalom tanazzuli, ne-ne saltanatlarning yemiriluvi nimaning oqibati? Iskandar qayon ketti, Nushiravon nimaga erishdi? Ma'mun nima bo'ldiyu Nodirshoh nimaning quliga aylandi?

Hammasi Ollohim qonunini unutganlik oqibatidir. Inson qusurli yaratilganini, ilmi cheklanganini unutib qo'yomgb'Ti oqibatidur. Ollohim yaratgan va xalifa etib Yerga tushirgan kishilari uchun u zot tarafidan berilgan shariat qaydayu ilmi cheklangan kishilarning tuzgan qonuni, qurban jamiyatni qayda! O'ziga o'xshab cheklangan va qusurli bo'lgay. Undan o'tib qayga borgay! Biz Ollohimning shariatiga asoslanib, jamiyat quramiz, yashaymiz demak-da bo'lganlarga ham mening javobim bitta: Axir Siz o'zingizni kimga mengzamoqdasiz va kim deb bilmuoqdasiz? U qonunlarni hayotga tatbiq etarda adashib ketsangiz-chi? Adashmaslikka kafolatingiz bormi? Jamiy zamonlarda o'tgan va keladigan bashar ichida eng mahbubi va eng komili Muhammad sollallohu alayhi vasallam bo'lsalar, ul zotga tenglik da'vosini kim qila olgay?.. Hech kim!

Demak, Ollohimning qonunidan tashqarida odil jamiyat qurmoq mumkin emasdur. Hammasi qusurli bo'lgay. Negakim butun dunyoning oliy darajali zo'r olimlari, huquqshunos dono bilgichlari yigb'Tilsalar-da, biror bir mamlakat xalqining hojatlarini qondirgudek to'kis bir qonunnoma ishlab chiqishga-da ojizdurlar.

Insonniki qusurli, Ollohniki bequsur bo'lib qolavergay.

Shundan aytamanki, alohida bir mamlakatda dorul saltanat qurmoq mumkindir, ammo dorussalom yaratmoq mumkin emas, Ollohim bu ixtiloflarimizga o'zi qiyomatda ajri azim chiqargay. Kimni jannatiga yo'llab, kimni abadiy azobiga tashlab. Ana shu buyuk adolatdur. Bandasi bir umr, to qiyomatga qadar intilgan narsaga u bir oгb'Tiz "kun" degan kalomi ila erishtirgay. Dorussalom - o'shal jannatdur. Undan beriga ovora bo'lamic.

Ey bor Xudoyo, bu satrlarni yozgb'Tuvchi qilingni no-umid qo'ymagaysan.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "menden ke-yin bir zamon kelur... chin olim so'zini olmagaylar, ulugb'T odamlardan uyalmagaylar, din so'ziga quloq osmagaylar. Mana shundogb'T bo'lib, din-dunyo ishlariga qattiqchilik kelgan kunlarda har qancha qiyalsaga ham o'z dinidan ajramay yurib o'lgan bir musulmon yuz shahidning savobini topgay. Qiyomatgacha bir toifa ummatim haq yo'lidan adashmagay", degan so'zlari bor erdi. Ey bor Xudoyo, shu satrlarni bitmakda bo'lgan гb'Barib qilingni-da, uni o'qigan, ta'sirlanib ko'ziga yosh oлган mo'min bandalariningda habibing Muhammad mustafo sollallohu alayhi vasallam haqqi-hurmatlari Haq yo'lidan toymagan, islom dinida jon bergen o'shal toifadan qilgaysan. Omin!"

Amirning Oq Ro'molchasi (yoxud shol aravacha egasi)

- Endi qayon buray, гb'Tirotni? Buyur, pakana pari, qay tupkaga desang olib borishga tayyorman, - dedi Olim akam Cho'lpon ota guzariga chiqib borarkanmiz. U qiling o'rgilsin, osh damlab Ilhom sutchidek bir xokisor odamning ko'nglini oлганidan xursandmi yo u kishi bularning xazinasini topib, asrab-avaylab o'tirganidanmi - ajratib bo'lmas edi. Va yo o'zlar o'rtasidagi mushtaraklik,

ikkalalari ham bir sohaning odami, ikkisi ham dunyo ko'rgan, ming chigb'Tiriqdan o'tgan, endi esa ikkisi ham so'qqabosh ekanliklaridanmi, bir ogb'Biz so'z, bir qijo boqish, bir nigoh tashlashdan bir-birlarini tushunishar va shundanmi, bir-birlariga suyanib qolgan kishilarga o'xshab ketar edilar. Bu uni topganidan, u buning yo'qlab kelganidan boshlari ko'kka yetgan, hech yerga ishonmas edilar. Qay yerdagi uzoq tarixlarni eslashib, yodlashib to'yimas edilar. Men esam, Olim akamning bu yo'qlovi, cholni ko'rgani boruvidan chin muddaosining tagiga hali ham yetolmay o'tribman. Kitoblar orasidan chiqqan shajara qogb'boz - silsilai sharifning topiluvimi desam, u bu haqda ko'pam surishtirgani, ijikilab, cholni jon-holiga qo'y may bir nimalarni so'ray ketgani yo'q. Lekin o'sha tabarruk qogb'bozda, uning shajara halqlarini aro dadasi - Abdurahim eshon buvamning nomlarini ko'rganda ko'zlarini g'b'tilt yoshga to'lib, o'zi bir g'b'halati bo'lib ketdi, mutaassirlanganidan qoq namatga tiz cho'kkancha (xuddi kimdir ulugb'B Qur'on oyatlaridan tilovat boshlab yuborganu u tiz bukkancha some qolgan kabi) uzoq jum qoldi. Kim bilsin, qay voqeayu qay davrlarga xayoli qochdi? Balki eshon buvamning vasiyatlari yodiga tushib ketgandir...

- Tortinma, qayga desang qaytish yo'q, bugun men sening ixtiyorindaman, - dedi u qaytarib.
- Chindan-a? - dedim ichim yana ham yorishib.
- Bo'lmasa-chi! G'irt bo'shman. Salti-savoymen ustiga ustak. Kim meni surishtirsin! - dedi u rulga shapatilab qo'yib. - G'irotni bo'lsa, moyi yetarli. Xohlal, Qo'shilishga surib ketamiz, xohla Achchi qirlariga. Foziltepaga desang - Foziltepaga chiqamiz. Hali u omonmish-ku, - deb qo'shib qo'ydi u. - Ko'rib qolaylik, ota diyorni - Izzayu Bo'zsuvarimizni, surilib-netib ketmasidan.
- Qani edi, lekin men, - dedim istihola aralash.
- Lekini bormi, istiholasi bormi?! Aytavur, mo'ljallagan yeringni. Men begona bo'lsamki, xijolat tortsang. Qani, qayoqqa? - deb azza-bazza u yelkamga qoqib qo'ydi. Endiyam aytmay ko'r-chi? Toza xafa bo'ladi. Men ertalaboq dilimga tukkan niyatlarim bor edi, o'shandan ogb'Biz ochdim.
- Bugun pochchaning tomonlariga o'tmoqchi, shaharga tushib, bir yerlarga kirib chiqmoqchi edim...
- Qaysi pochcha? O'zimizning mutavalli pochchani aytasanmi? Shahardagi?
- Ha, yo'q. Asad akamlarnikiga, bu yoqqa?..

U hali orqamdan qo'lini olmagan edi, o'ng yelkamga bir tushirib qoldi:

- Menam kimni aytayotirman, pakana pari! O'sha Nusrat pochchanikigami, axir?
- O'sha-o'sha. Lekin ular allaqachon bu yoqqa joy qilib kelishgan, - dedim kulib.
- Bu yogb'Ting - qayoq? Shahar hovli-chi? O'shoqlaram buzilib bitdi degin?

Men bosh chayqadim:

- U hovlilarni Muhabbat kennoyiga tashlab, o'z-lari bu yoqdan - Beshqayragb'bochdan joy qilib kelishgan.
- Qurbaqaoboddan-a?
- Ha, o'sha, o'zimiz bilgan - Bo'zuvning narigi betidagi joydan, - dedim eslarmikin degandek yuziga tikilib (Axir o'zi qaerdan yo'qolib edi?! O'sha Bo'zuvning narigi yogb'Tidagi ubti yopiq moshinga bosib olib ketilgancha - qayoqqa g'b'boyib bo'libdi?!?) Ustiga-ustak anuv Solining gapi yodimda: kimdir qip-yalan-gb'boch qilib chechintirib, kamiga qora balchiqqa bo'yab, tolga bogb'Tlab ketibdimish. Osmondan tushgan sallotlar esa, chechib...

Qarab turibman: Olim akamning yuziga bir nima jindek soya tashlab, jim qoldi. Aftidan o'zining ham yodiga o'shal shom, Achchi tomonidanmi, qay go'rdan qiyomat alomati kabi toshib kelgan ko'kimtir bir tuman, uch qadam narini ham ko'rib bo'lmas bir hol, pochchaning bogb'Tlari pastlaridagi joylar... tushib, g'b'halati tortib ketgandek edi.

- Boramiz, boraveramiz, - dedi u o'ziga kelib, - Oyposhsha xolamizni, u kishini ko'r'maganimga ham ho-ov, qancha bo'ldi: boshlari osmonga yetadi, axir.

Qani endi u kishini qora qilib, kimni surishtirib borayotganimga ayta olsam!.. So'z o'z-o'zidan akamga borib taqalgan, shuncha vaqtan beri so'ray olmayotgan narsalarimni so'ragim kelardiki... Akamning so'nggi xatidagi gaplardan ogb'Biz ochgim bor.

Ammo... u bunga imkon ham bermas, o'zi bu mavzuga yaqin ham kelmasdi. Chetlab qochardi nimagadir...

Rostdan ham u Sultonmurod akamning eski harifi, jazolashga jazolab qo'yib, keyin uzrini aytolmagan kishisi - Parpi bebaxtni tirik ko'rsa, topib borsak, qay ahvolga tushadikan? Uning keyingi ishlarini bilsa-chi, akamning ayoli Mahfuz kennoyimni deb Akmal o'risga, uning anuv erkakshoda jiyani - bir sira ko'tar-ko'tar qilinib dovrugb'Ti chiqqan soxta qahramonga qilgan hukmlarini eshitsa-chi? Aqliga sigb'Tdira olarmikan: dunyo shunday qurilganiyu Olloham kimni hidoyat etib, kimni adashuvda qoldirib yuborishini?

- Oqtepedan aylanib borarmiz, hoynahoy? Ko'pruk tushmagandur?
- O'shoqdan-o'shoqdan. Bu yoqdan endi mo'ljallahyapti, - dedim men. - Osma ko'priklar rasmdan chiqyapti endi.
- Semon chiqib, bu yogb'Ti oson bo'b qoldi-da, - dedi u.
- Besh so'mga bir moshin beton beradi. Har yogb'Tochlar - suv tekin.
- Shunday bo'lmasa, bu qorako'z o'zbek qanday hovli-joy qila olardi, harqalay hukumat g'b'hamxo'rlik qipti. Eski bogb'Tlari o'rnigayam.

Mening esa, ich-ichimdan bir norozilik, unga qo'shilib bir g'b'ashlik bosib kelardi: ja olihimmatlik qilib yuborishibdi-da? Bergan joylari - biz yo'qotgan narsalarning urvogb'Tiga teng kelarmikan? Tongotarlarda Izza chimzorlariga tushib, bir shabboxun urib chiqishimga alishmasdim menga qolsa! Qolaversa, tunda to'satga tushishlarimiz, boshqa vaqt Bo'zuvdan savat qarab yurishlarimiz-chi, to'yguncha cho'milishlarimiz, u tepalardan beri kelmaslarimiz-chi? Qay birini endi topa olamiz? Sanay bersa, adogb'Ti bormi u yo'qotishlarimizning? Qaysi gunohimizga Xudo uni ko'p ko'rdi desam, to'gb'Tiroq bo'lardi...

Men dardi-dunyonmi akamga to'kmay qo'ya qoldim. U Sultonmurod akammidiki, tushunsa! Nima qilsa ham shu hukumatga bo'lishgan - o'shalarning yonini oladi-da. Aravasiga tushgan qo'shibg'bini aytmay nima qilardi? Biz esa, alamlarimizni ba'zan "ruxsat etiladigan" tanqidiy chiqishlarimizda olvolamiz. Undan beriga mo'min-qobil bo'lib yurishdan o'zga nima choramiz bor?

Davlat bamisli ulkan osmon ustuni: unga qarab (kishi bilmas) chirt etkizib tuflash mumkin, xolos. Shunda ham bir chetga... Undan narisiga... qiya bo'lib ketganimga o'zing sezmay qolasan.

- Faqat sen yo'lni aytib, buriladigan joylarimizni ko'rsatib tur. Yo'qsa, adashib ketamiz. Men bu ko'chalarga endi kirishim, - dedi Olim akam axiyri oq uy - ola borgoh bo'la boshlagan uchastka - hovlilardan, ularning keng-keng, mashina sigb'Tadigan darbozalariyu ko'chaga qaragan peshtoqlaridan ko'z uzmay. - Orzu-havaslari yomonmas-ku, a?
- Yomon emas. O'zbek hovli-joy bilan tirik-da, do'mga alisharmidi tanchasini, - dedim kulib.
- Qarab turasan, ellik yilga borib do'mam mo'dadan qoladi. Bizzi diyorlarda tuproq tomla paxsa uylardan o'taversin. Yozda salqin - qishda jon rohati. Men dunyo ko'rib keldim-ku, hech biri bizning ota uylarga yetmaydi, - dedi u qo'l silkib va mashina oynasidan

chapaniarcha chirt etkazib tururindi.

- Sizning gapingiz pochchanikidan qolishmaydi!- deb kuldim men.- O'zimiz nimadan bino bo'pmiz - hadeb paxsali, somon suvoqli, tuproq tomlardan qochamiz, deydilar u kishi ham.

- Zo'r aytibdilar. O'zlari ham shunday qurdilarmi?

- Bol'masa-chi.

- Qotiribdilar. Yuz yil qilt etmay turadi eski uylariga o'xshab.

- E, u shahardagi uylarmi, Bobur zamonidan qolgan deydilar-ku.

- Ana, men nima dedim?! Otalarimiz bir narsani bilganlarki, shunday qurbanlar. Qari bilganini pari bilmas, degan gap kimdan qopti?

- Menam salga pochchaning oldilariga yuguraman, tog'ham qolib, - deb yubordimu tilimni tishladim. Sal qolsa sirni ochay depman.

- Nimaga ular bu yoqqa tushib qolishdi? Qa'ngb'liga boraverishsa, bo'lardi-ku? Hamma-hamma bilan, pochcha to'pdan ajraganlari qiziq bo'pti.

- Olishga olib, qurishga qurib qo'yib, endi afsuslanib yurishibdi. Qolaversa, bitta ularmi? Hamma to'zib ketdi-ku zilzila tufayli.

- Tagb'binam Olloh ayabdi, - dedi Olim akam uzoqdan kelib.

Men unga yalt etib qaradim. U sezdi, lekin o'sha-o'sha yo'ldan ko'z uzmay borardi.

- Nega unday deyapsiz?

- Yetti kechayu sakkiz kunduz bo'ron yuborsa, yokim ostin-ustun qilib tashlasa bu yerni... kim nima qila olardi? Ho'v - bir davrlardagidek, Samud, Od qavmlari ustiga kelgan balodek?... - dedi meni hayratda qoldirib.

- Qaysi... qanday gunohlarimiz uchun?

- Keyin tushunasan, an-cha o'tib, - dedi Olim akam o'sha-o'sha - turqi hech o'zgarmay. O'zi bir tushkun desam tushkun emas, allaqanday kamgap bir holga tushib. Men uni hech bu alpoz ko'rmagan edim. Tavba, hayot uni shunchalar o'zgartirib tashlabdimi? Ko'raverib, u qozondan bu qozonga tushaverib, kim bo'lib qolibdi? Kim aytadi uni hukumatning odami, ishongan tog'bi deb? Bu orada yangi tushgan tramvaylar aylanib qayta-yotgan joy - Beshqayragb'boch deb atalmish mavzega yetib borib, guzardan o'tdik. Olim akam menga talmovsirab qaradi:

- Sho'tmi? Qayoqqa buray?

- Yuravering. Bitta ko'cha o'tamiz, keyingisida.

Qayrilishdan o'tib, Olchazor ko'cha bilan so'ritokli darvoza oldiga yetib borsak deng, Hizrni istasak bo'larkan, eshikdan hassalarini qo'ltilqlariga qisgancha, qo'llarini arta-arta, pochcha chiqib kelayotirlar. Oyoqlarida o'sha-o'sha jun mahsi-kalish (pochcha zahga yo'qlar, salga ushlab qoladi "boy kasallari"), egnilarida ko'k movut chakmon, boshlarida mosh do'ppi - qayoqqadir otlanganlar chogb'bi, munisidan munis, halimdan halim xolam kuzatib chiqyaptilar ekan. Meni ko'rib:

- Ana, aytmovdimmi, Sanobar. O'ng ko'zim uchyapti deb. Qarang, kim kelyapti?! - deb o'sha yoqdanoq quchoqlarini ohib kela boshladilar. - Voy, xolang aylansun, nechuk-nechuk, qayoqdan kun chiqib? Sizlarniyam ko'radian kun borakan-ku.

Men salom berib, yelkamni tutib bordim.

- Orqangdag'i kim, Maqsudxo'ja? Kimni boshlab kelyapsan? Qosh-ko'zidan - o'zimizni urugb'hdan shekilli? Olimmi?

Eshonpochchamni kenjalarimi, adashmasam? - dedilar pochcha men bilan hali so'rashishga ulgurmay.

Olim akam qo'shqo'llab tavof qilgudek tezlab keldi-da, qo'llarini oldi:

- Men-men, pochcha. Olimman, tanidiz-a, tavba.

- Sambitday eding, chinordek to'lishib, oq terakdek bo'y cho'zibsan. Nega tanimay, ko'zing aytib turibdi. Odamning hammayogb'bi o'zgarsa-da, ko'zi o'zgarmaydi, vallohi a'lam, - dedilar u kishi. Keyin qo'l olishga qoniqmay bagb'birilariga tortdilar, - Oh-oh, bo'y laringdan, bo'y laringam o'z jigarimiz ekaningni aytib turibdi. Bormisan? Akangga o'xshab senam sogb'bitirib, bedarak ketding? Kelarkansan-ku. Zora qadamlaring qutlugb'boch kelib, Sultonmurodni yo'llari ham ochila qolsa, - deb alqay ketdilar.

Bu yoqda xolam shoshib qoldilar:

- Voy, aytibam qo'yamsan, Maqsudxo'ja. Kimni ko'ryapman! "Rahmatli opamning yodgorginalari-ku! Kenja toyloqqinalari! Islom tog'b'basining o'zginasi bo'pti-ku. Kel, bolam, chinordek bo'y laringdan o'zim o'rgilay. Chiroq yoquvchi bo'lib kelganing rost bo'lsin, xudoj, - deb yalab-yulqay ketdilar.

Pochcha hassani bir-bir tashlab, qayta boshladilar.

- Qani, kela qolinglar. Hoy, kelinposhsha, o'sha anjirni tagiga joy qila qoling, jiyanlar kepqopti, bizni yo'qlaguvchilar kepqopti, - deb shu yerdanoq ichkariga ovoz berdilar.

Biz u kishini yo'ldan qaytarganimizdan xijolat bo'lib, taysallahsga, bu ahddan qaytarishga tushdik:

- Pochcha, bizning ish shoshqichmas, mayli. Siz yo'ldan qolmang, biz kutaturamiz. - Biz u kishini masjidga chiqayotgan fahmlagan edik.

Ammo u kishi urishib berdilar:

- Maylisi nimasi? Farishtasi bor joyga mehmon keladi. Hammanikiga ham kelsin-chi! Yur-yur. Andishalaringni yigb'bishtir.

Olim akam o'rtaga tushdi:

- Mashinali joy bo'lsa, obborib kela qolay.

- Gapni kalta qil-da, yuraver. Jilla qursa, fotiha qilaylik. Arvoqlar haqqiga tilovot etib, savob yo'llaylik. Borish qochmaydi.

U kishiga xolam qo'shildilar.

- Pochchangni endi qaytarolmaysizlar, kiravering-lar.

Anjir tagi deganlari hovli bo'lib, shapaloqdek-shapaloqdek barg yozgan anjirlari endi bo'y cho'zib kelayotgan, uyning soyasi ham o'sha yerga yetib qolgan, pastak yogb'boch karavot qo'yilgan sarishtagina joy ekan. Uch yogb'biga kalta-kalta ko'rpachalar yozilgan, o'ttada bir qulochgina xontaxta turibdi. Biram sarishta, fayzliki, bunaqasini boshqa biron yerdan topish amri mahol. Biz joylashishimiz ila oq dasturxon yozilib, yap-yangi sochiqlar qo'yildi. Pochcha duoga qul ochdilar. U kishi ko'zlarini yumib olib, o'tganlarni xotirlab, duo qilyaptilar qaydandir allaqanday iforli hid taralib, mening aqlu hushimni o'gb'bir lab boryapti. Yo'q, ohorli dasturxon hidimas. U boyta - yozilgan chogb'hdayoq gurkiragan edi. Bu bo'lakcha, bo'ladi-ku, nimtatir bir muattar hid - o'shanaqa edi. Xuddi chopib-uloqib boraturib, anjir tagidan engashib o'tib ketgandagidaqa, uning barglariga urilsangizoq o'sha yeringizdan necha vaqtgacha gurkirab kelib turadigan hid. Oyim uni jannat isi deydilar. O'zi ham jannatdan tushgan daraxtmishda.

O'rta bir piyola choy aylanib-aylanmay (unga- cha pochcha bir dunyoning narsasini so'rab tashladilar, so'ng cho'zib), xo'-o'sh degancha gapning indallosiga ko'chdilar.

- Xo'-o'sh, ochigb'Tini aytSAM, men bularga bir narsani ilinib turibman, Sanobar, - dedilar u kishi.

Biz tushunib-tushunmay bir-birimizga alangladik.

- Gapni ja uzoqdan boshlaysiz-da, Sanobar. Opkirdizmi, endi xap o'tiring. Kelin qozonga unnayap-ti. Bularam har kuni keb yuribdimi? Borasiz-da o'sha... - dedilar xolam qo'l silkip.

Endi biz gap nimadalgini tushunib qolib, pochchaning yonlariga kirib, ot qo'shishdik:

- Bizdan hech xijolat chekmang, o'z uyimizdek gap. Oborib qo'yish bo'lsa, tashlabam kelamiz.

Pochcha unamadilar:

- Yo'q-yo'q, gapimga chuchunmandinglar. Men o'sha joyga Sizlarning ham nasibangiz qo'shilganmikan, deb turibman. Keyin: zab boribmizmi, Xudo yetkazibdi-da, deb yurasizlar.

- Unda, ketdik, nimaga qarab turibmiz? - dedi Olim akam qo'zgb'Tola boshlab.

- Boshlang, hamonki, ilinibsiz, - dedim men qo'limni ohib.

U kishi dasturxonga yengil fotiha qilarkanlar, xolam bay-baylab qoldilar:

- Faqat, borasizlaru qaytasizlar. O'shanaqasi javob bervorsangiz ko'rasiz-a, Sanobar?

- O'libman-da juda!- dedilar u kishi qo'zgb'Tola-yotib.

- Qaytamiz-qaytamiz. Qaytmay qayoqqa boramiz,- deb va'da berdik biz.

Pochcha menga jilmayib, sirli-sirli qarab qo'yardilar-u, qayoqqa boryapmiz, nimani ilindilar - ayta qolmasdilar. Yo bo'lmasa, akamdan yashirsalar, menga shipshib qo'ymasdilar. U kishining shunaqa ichdan pishgan quvliklari bor. Oxiri xursand bo'ladijan beozor shumlik desayam bo'lavuradi. Hozir bizni ana shunday "avrab" bir yoqqa boshlab ketayotgan edilar. Qayoqqa - topib ol! Boradigan yerimiz uzoqdamaskan, tramvay yo'lidan o'tib, ikkita ko'cha nariga burildikmi-yo'qmi, yetibmiz.

Darvozaxonasining oldiga tom baravar qilib, temir ishkom yasatgan, ishkom bagb'Tazlariyu belbogb'Tlarini bir xil kumushrangga bo'yatgan (ammo toki hali o'tkazib ulgurilmagan) oq uy - ola borgoh uchastka oldida ustol-ustul, kutib oluvchilar ko'rindi. Bola-baqua yo'qligidan to'y emas, ehson shekilli.

- Ana sho'tga mukallifmiz, Xudo xohlasa, - dedilar pochcha va (qaerdan shamol tegibdi?!) kaftlari bilan qaytarmoqchidek to'sib, chuchkirib qo'yidilar - "Yarhakamulloh" - deya tushishga urina boshlab edilar, men gb'Tirot eshigini ohib, qo'litiqlardan olishga shoshildim.

U kishi suyaklari yo'gb'On, ilgarigi zamonning odamlaridek basavlat edilar. Ko'k movut chakmonlari sal mo'lroq tikilganmi, u kishini undanam savlatli ko'rsatardi.

Men-ku tirsaklaridan tutib borayapman, notanish joy - Olim akam qovusholmay orqada qola boshlab edi, pochcha tanbehnamo qarab qistadilar:

- Yur, yur, nega imillaysan? Uyalma, seni kuyov qilmaydilar. U yoshdan o'tgansan.- So'ng u yoqdagilarga eshitdirmay tayinladilar.

- Meni qora tortib, kirib boravuringlar, keyin xursand bo'lasizlar.- Ikki qadam yurib, yana qo'shib qo'yidilar.- Agar meni ichkariga qistab qolishsa, biron yerga joylashishni ko'zlayveringlar. Begonasirab yurmanglar. Qaerga keb qolganlaringizni hali bilasizlar.

Bir hayron qolinq-lar.

Ana, xolos. Hammadan kutsam ham pochchadan kutmovdim, qanday quvlik yo shumlikni boshlabdilar ekan, hech tagiga yetolmasdim. Aksiga yurib, bironta tanish odam ko'rinxaydi. To'gb'Trirogb'Ti, hammasining istarasi issiq, yuzi tanish-ku, falonchi, deb aytolmayapman.

Bu orada ular tavozela "keling-keling"lab qolishdi. Kim salom berdi. Kim yo'l boshladi. Yo'lakdag'i xizmatchilar gurra qo'zgb'Tolishib, assalomga shoshilishdi. Bu hammasi pochchaning hurmatlariga edi. Men esa ko'pchilikning salobati bosib, birortalarining yuziga tayinli qarolmayman. Olim akam ham qo'li ko'ksida, "aytilmagan joyga - yo'nilmagan tayoqdek" hech qovusholmay, turtinib-surtinib kirib kelyapti. Hammaga bir salom berib, tavoze qilayotgandek-u, tanisa o'lsin agar.

- Ey-y, kelsinlar, mutavalli, kelsinlar. Ayvonga olinglar, ayvonga, - deb qolishdi odam olib turgan ishboshilar.

Birpasda kimlardir kelib, ikki qo'litiqlariga kirib, u kishini kalishlar rasamadi bilan to'gb'Trilab-terilgan zinapoyadan oldi oynavand peshayvonga olib kirib ketdilar. Ular kirib borishgan sari bu yoqdagilar istiqbollariga turib joy bo'shatishar, qo'litiqlardan olgan kishilar esa, qo'yarda-qo'y may to'rga - sallaliyu rangorang chakmonli qariyalar o'tirgan joyga yetaklashar edi. Bunga sari pochcha:

- Hoy, azizlar, hoy-hoy-hoy, bu nima qilganlariz? Hammani bezovta etib? Hamma joy - bir joy-da, - deb oyoq tirardilar, xijolat tortardilar. U yoqdagilar ham chaqirib qo'yishmas:

- Opkeling mutavallini, joylarini bilib o'tirsinlar, - deb kulishardi.

So'ng o'tirib, duo qilib tinchishdi va tavozula sekin-sekin so'rasha ketishdi. Yogs'T u tushsa yalagudek hovlidagi so'rilar tagiga ham joy qilib yuborishgan ekan, bizni ham o'sha to'pga qo'shib o'tkazishdi. Men-ku hali hech kimni tanib ulgurganimcha yo'q, faqat zinaning tagidagi antiqa shol aravachadan ko'zimni uzolmay turibman. Egasini qaerga joylashtirishibdi, u bo'm-bo'sh edi. Bu orada ro'paramizda o'tirgan - bir ko'ziga oq tushgan, chechak yuzli odam kutilmaganda Olim akamni tanib:

- Iya, Osmon, o'zingmisan? Voy tikka tashlar-e, borakansan-ku! - deb qoldi.

Buyam tanidi:

- Isroi, sanmisan? Shatda turasizlarmi? Uni qa-ra-ya, - deb ikkalalari o'tirgan yerlarida kaftlarini qo'shqo'llab changallab, ko'risha ketdilar. O'rnilaridan turib quchoqlasha ketishga istihola qilib, bir-birlarining qo'lllarini qo'yib yuborishmas, peshonalarini peshonalariga tiragudek munkayib olgan edilar.

- Ko'rishgan joyimizni qara-ya, - dedi chakich yuz hayratlanib. U o'zicha ovozini pastlatgan-u, lekin shangb'Tillab ketayotganidan, yaqin-atrofdagilar laganda uyub-uyub tarqatilayotgan parmuda somsalarni o'zlariga olib, boshqalarga uzatishgancha, bularga alanglar edilar.

- Ming yil bo'ldi-yov? - dedi Olim akam ham, uning hayrati bunga ham yuqqan-qo'ygan edi. - Voy, seni-ey, gb'Tirrom-ey, b'T"derdi ovozini pastlatib, allaqaysi voqealarga shama qilib.

- O'zing-chi, qayoqqa gum bo'lib ketuvding? Qamatib-samalib ketmovmiding? Uzoq ketding juda?

Akam esa:

- Ko'rib turibsan-ku, bus-butunman. O'tirgan odamga o'xshaymanmi?- deb kulardi.

Chakich yuz (men uni tанимайроq turib edim, esladi: sutchilarni olib, Beshogb'Tochga qatnaydigan yuk mashina shofyori edi).

"Voy, san-ey, voy, xuvarilarning boshi-ey", deb turib, boshini yana ham pastlatgancha akamga shivirlab qoldi:

- Sen ularni, anuv chopib xizmat qib yurganlarni tanivotsanmi? Qo'y ogb'Tzidan cho'p olmagan "pokiza"larni? Yaxshilab qara-ya. Olim akam kim choy tashib, kim parmuda somsa tarqatib yurgan bir xilda xushbichim movut chakmonli kishilarga - yoshlari ham qirqa borib-bormagan yigitlarning yuzlariga bir-bir tikilarkan, ajablanganini yashirolmadи.

- Chindanam "pokiza"lar-ku.
- Ha, ha, Parpi bebaxtning yigitlari. Endi so'fi bo'lib qolishganini ko'rsang. Xuddi ertaklardagidek, bir dumalab beozor musicaga aylanib qolishibdi, qara. Bazzi okayam o'shalarda vazir.

- Tushunmadim, - dedi akam ko'zlarini pirpiratib. - Qanaqa vazir?
Mening esa ichim qurib, gumirib boryapti: nahotki, bu o'sha bebaxtning ishi? Uning xonadoni, deyman. Ko'zimni zinaning tagidagi sholaravachadan uzolmayman. O'zi qaerda ekan? Alanglab topolmayman.

- O'ng qo'l vazir - ishboshi-da, nimasini tushunmaysan, - dedi u.
- Hov, Isroil, devorniyam qulogb'Ti bor-a, naq tovbangga tayanibam qutulomaysan keyin, - deb orqadan kimdir shipshidi.
- Menam kechagi gapdan gapiryapman, bugun demayapman-ku, - dedi chechakyuz oyogb'Ti ostiga tupurinib.

Orqa qatordan yana kimdir gap qo'shdi:

- Kechagi gap - kechagi. Islomda johiliyatdagi gaplar eslanilmaydi.

Isroil aka labini jiyirib, kinoyali bosh irgb'Tadi:

- Seniki "ma'qul", opqochogb'Tich. - So'ng to'ngb'Tillab qo'ydi, - bir gapdan qolsam, o'lamanmi!
Uning begidirligiga ham, chapani-shangb'Tiligidga ham taraf yo'q edi. Hozir bor-yo'gb'Ti akamni uchratib qolganidanu unga qay tovkada o'tirganini tushuntirib qo'yayotganidan boshi osmonda edi, xolos.

Bizning qatordagilarga ham parmuda somsa tortilib, hamma nafsi bilan ovora bo'lib qoldi. Chindan u ta'mi ogb'Tilda qoladigan qilib, dumba-yogb'T solib yopilgan, zira-murchi tobida edi. Men uni Margb'Bilonda tayyorlab, nozik mehmonlarga tortishlarini ko'rgan edim. Bizda ham rasm bo'pti.

So'ng qo'lma-qo'l peshayvondagilarga kosada bir nima tortila boshlandi. Keyin bilsam, kosaning tagida yarim cho'michgina nuqluj vajudan iborat manpar ekan. Umrim bino bo'lib, shuncha muxbirliklarda yurib, bunaqa shohona ziyoftga endi tushishim edi. Jindek-jindek, lekin ichib ko'rsang bu dunyoning taomimas, asal bo'p ketgan. Oshpazlarning ham zo'rini chaqirtirishgan ekan-da. Kim bularning rasamadini tuzgan, kim boshqarib turibdi, hech tagiga yetolmasdim.

Nihoyat kosalar olinib, joy-rostoniga yetkazilib, peshayvondagi derazaning bir tavaqasi ochib qo'yildi. Chollar issiqlab, havo yetmay qoldimi, deb o'ylovdim, yo'q, mikrofon qirtillab ichkaridagi qariyalarning gb'Tovur-gb'Tuvuri bizga-da eshitila boshladi.

- To'ramdan ikki ogb'Tiz eshitaylig-a, sogb'Tinib qoldik-ku, nimaga yigb'Tilganmiz,- degan takalluf so'zlar bo'lib o'tib, kimdir yumshoq yo'talib, boshqasi tomoq qirdi.

Atrofdan:

- Jim. Tingb'Tlayluq, birodarlar, - degan so'zlar yurinib qoldi. Odamlar bir-birovlarini tartibga chorlar edilar.

Bir xilda maysarang movut chakmon kiygan xizmatchilar-da ko'rinxan qoldilar. Aftidan ular ham qay bir chekkaga o'tib, boyagi ne'matlardan tatinar edilar. Yo ma'ruzani tinglagani o'tirdilarmikan - bilolmadim.

- Muhtaram jamoa! Uzoq-yaqinidan bu qutulg'b' xonodon egasini izzatlab, qadam ranjida qilgan azizlar! O'zbekning nimasi ko'p - to'yi-to'ychigb'Ti, mehmon kutishi ko'p. Lokin shular ichida ulugb'Ti ehsondur, savob umidida dasturxon yozmoqdur. Bu xonodon sultonni ham shul umidda bizni chorabdurlar, oldimizga dasturxon yozib, tansuq-tansuq ne'matlar hozirlabdurlar. Hidoyatga tushib, uning shukronasini unutmagan mo'minning odati shunday: farzand ko'rsa, shukronasiga aqiba qilgay. Yangi hovliga ko'chib kirsa, shukronasiga ehson dasturxon yozgay. Muhimi niyat, sabablar topilaveray. Mana bugun ham biz eski diyorlariyu ota hovlilarini tashlab kelolmay o'tirgan birodarimizning nihoyat yangi diyorga rozilik berishlari ila yangi xonadon eshigi ochilishi sharafiga bu yerga yigb'Tilib turibmiz.

Men bu yerga kelaturib o'tmish zamondoshlarimiz ichida o'tgan eng buyuklaridan ikki inson bilan bo'lgan ikki voqeani xotirladim. Biri paygb'Tambarimiz sollallohu alayhi va sallam bilan kechmishdur, yana biri ulugb'T amirimiz Amir Temur janoblari bilan kechmishdur. Men shu ikki ibratlugb'T hodisani sizlarga ilingum keldi.

So'zlaguvchi ichkaridaydi. Peshayvon oynavand bo'l-sa-da, romlarga bo'lingan, o'rtasidagi ustunlar to'rdagilarni ko'rishga qo'ymas, qolaversa, qayoq to'r, qayoq past ajratib bo'lmas, biz sal uzoqroqqa tushib qolgan edik. Ammo shirin lafzi qay bir yoqlilarnikiga o'xshab ketib qolishidan men bu kishining nutqini qachondir eshitgandek bo'laverar edim. Qulogb'Timgami, yuragimgami tanish edi, qisqasi.

Shu tob Olim akam engashib, qulogb'Timga shivirladi:

- Marshal hazratlari-ku. Tanidingmi, pakana pari?
- Kim? - Men hayratlanib, yalt etib qaradim.
- To'ram hazratlari-da. U yoqda nomlarini eshitsalaroq tikka turadilar, - dedi u bosh irgb'Tab.
- Qayoqda-qayoqda?- dedim dabdurustdan anglamay.
- Qayoqda bo'lardi, - dedi u men tomon engashib va shivirlab, - Otalarimiz qolgan, o'zimiz qancha vaqt yurgan yoqda-da.
- Tushundim, - dedim ichim, yuragimning nozik bir, ingichka yerlari titrab kela boshlab.
- Hoy, yigitlar, eshitinglar, - deb bir kishi qarab qo'ydi.

Men uzb deya qo'limgi ko'ksimga bosdim. O'zim esa, hayratdaman: voh, uni qara-ya, pochcha shuni ilingan ekanlarmi, sir tutgan ekanlarmi?! Biz tomonlarda Hoziq to'ram deb shuhurat topgan kishi davom etar, men Mahfuz kennoyimga turkona dori istab borganlarim yodimga tushib ketgan edi.

- Rasululloh sollallohi alayhi vassallam Makkani fath etib kirib kelishlarida to'qqiz kishini ko'rgan va tutgan yerda o'ldirishga buyurgan edilar. Ular ilgari Rasulullohga eng qattiq dushman bo'lib chiqqan va ozorlar bergen din dushmanlari edi. Shularning eng qattoli Abu Jahl edi. U Badr jangida o'ldirilgach, o'gb'Tli Ikrima islam qonini ichishga qasam ichgan edi. Shuning uchun "uni qaerda ko'rsangiz o'ldiring" deb buyruq bergen edilar...

Hoziq to'ra chiroyli hikoya boshlagan edilar, hamma nafas yutmay u kishini tinglar, so'larining magb'Tzini har kim tushunganicha chaqib olmoqda edi. Men esam, nimaga bu hikoyatdan tushdilar - anglay olmay turibman. Nimaga mengzayotirlar - tushungandayman-u, uqib olishim qiyin bo'lyapti.

- Lokin Makkani fath etib, haramga kirib, Ollohnning uyida ikki rakat namoz o'qib chiqqach, u zot o'zgarib qoldilar. Zotan butun olamlarga rahmat olib kelayotgan zot dushmanlariga ham iltifot ko'rsatadurgan bir holga tushgan edilar. Ana shunda u zotning oldilariga Ikrimanining xotini Ummu Hakim kelib:

- Yo Rasululloh, sizdan yaxshilik so'rab kelgan birorta odamni quruq qaytarmadingiz. Meni ham quruq qaytarmasligingizga ishonib, erimga omonlik so'rab keldim. Yana qochib yurib, o'zini halok qilib qo'ymasin, yo Rasululloh, - dedi.

Anda ul zot:

- Agar uni qaytarib kelar bo'lsang, yaxshilik qilurmiz, - dedilar. Sollalohu alayhi vasallam.

U kishining shu so'zlariga ishonib, Ummu Hakim erini Yamanga jo'nayotgan kemadan qaytarib keldi. Abu Qubays tog'bi o'rnidan ko'chsa ko'charki, Muhammad so'zidan qaytmash, deb qaytarib keldi.

Chindan ham Payg'bambar sollallohu alayhi vasallam uzrini qabul qilib, ridolarini oyog'bi ostiga yozdilar va:

- Ey bor Xudoyo, Ikrimaning dushmanchilik bilan qilgan ishlarini, meni haqimda aytgan so'zlarining gunohlarini kechirgil, - deb duo qildilar. Sollallohu alayhi vasallam. Darhol u shahodat aytib, iymonga musharraf bo'ldi.

Ajabki, ilgari urush maydonida Ikrima bir sahabani o'dirib qo'yan, buni ko'rib Rasululloh kulgan edilar va:

- Bu ikkovining jannatda bir o'rinda o'lirganlarini ko'rdim. Bu yerda ersa, bir-birlarini o'dirmoqdalar - shundan kuldim, - deb bashorat bergen erdilar. Qarangki, Abu Bakr Siddiq xalifalik zamonlarida shu bashorat yuzaga chiqdi. Hazrat Ikrima Shom gb'ha zotiga chiqib, shahodat topdilar. Roziyallohu anhu.

Xuddi shunga o'xshashroq voqeа Amir Temur zamonlarida ham sodir bo'lmish ekan. Bir kuni Ozarboyjonda hukmronlik qilayotgan Mironshohning xotini Suyunchbeka qaynotasi huzuriga eridan shikoyat etib, ko'zyosh qilib keladir. Ya'nikim u kishi davlat va raiyyat ishlarini unutib, kayfi safo, bazmi jamshidlarga berilib ketmish. Bundan ortiq darajada gb'ha zablangan sohibqiron lashkar tortib safarga chiqadi. Uni eshitgan Mironshoh nadimu ulfatlari bilan Tabrizga qochib yashirinadi. Lekin amir ularni tutib keltirib, o'gb'hlini xalq o'rtasida ellik darra urdiradi va yo'ldan ozdirgan to'rt kishini o'limga mahkum etadi.

Uch aybdor - mavlono Ko'histoniy, Qutbiddin Koshiy va ham Abdulmo'min Go'yandiyilar o'sha kuniyoq Qazvin darvozasida dorga osiladilar.

Ammo hofiz Abdulqodir Marog'biy Bagb'hdodga qochib ulguradi. Sohibqiron uni borgan yeridan tutib keltirishga buyuradilar va Bagb'hdodga qo'shin kirib boradi. Hofiz esa u yerdan Misrga qochadi. Ammo osmon uzoq, yer qattiq, uni o'sha Misrdan-da tutib keltiradilar. Ko'ksaroy oldidagi maydonga dor tikilib, hukm ijro etilishga kirishiladi.

Gunohkor hofiz o'limi oldidan ikki rakat namoz o'tab bo'lgach, vakillar orqali buyuk amirdan Qur'on hurmati bir pora Qur'on tilovat etishga ruxsat so'raydi. Temur osiy bandaner bu tilagiga ham rozilik beradi.

Va mehribon hamda rahmli Olloh nomi bilan Taborak surasini to'lg'bonib tilovat eta boshlaydi. Ho-fiz qori edi. Ayonki, o'limi oldidan so'nggi bora taborakni yod o'qimoqda, bundan so'ng unga Ollohga murojatu munojot etmak nasib qilmas, shundan-da, to'lib, yig'blab o'qimakda edi. Go'yo so'nggi nafaslari Ollohnning kalomi ila qorishib, uchib ketmagiga ishongan kuyi o'qir edi. Buning-da cheki-chegarasi borligini go'yo unutganday edi. Ruhi o'sha kalom ohanglariga qo'shilib erib, uchib keta qolsa yaxshiroq edi unga. Bu uning tavbasi edi.

Ammo har narsaning tuganchi - tugamog'biy bor. Kalom "bi maim-ma'in"da uzuldi. So'ng "subhona rabbika robbil izzati amma yasifun va salomun alal mursalin, valhamdulillohi robbil alamin" bilan tugadi. Hamma yuziga fotiha tortdi va tabiiyki, butun yoshligi ko'zlar amirga tikilgan edilar. Sohibqiron-da erib bitgan, uning-da ko'zlar yoshligi edi. Ko'nglidagi o'tlig'bi qahrdan esa asar qolmagan - bir ulug'bi qol' uni sidirib olib tashlagandek edi.

Nogoh u o'rnidan turib, pastga - qatlgoх tomon yurdi. Va mahbus tepasinga kelib, tiz cho'kkancha o'lirgan hofizning qo'lting'bidan ko'tardiyu bagb'briga bosdi. So'ng titroq qo'llarila yonidan oq ro'molcha olib silkirkhan, jallodga keting ishorasini berdi.

Shundan so'ng bizning diyorlarda tavbadan so'ng mo'minning o'tmish-kechmish gunohlardan til ochmak, yuziga solmak - urfdan chiqib, hidoyatdan so'zlash - sunnat bo'ldi. Roziyallohu anxu...

Bunday qarasam, hovli chekkasi bilan bitta bo'lib, boyagi movut chakmonli xizmatchi yigitlar bir safga tizilishgan, xuddi Hoziq to'ramning oxirgi so'zlarini go'yo ularga tegishliday o'zlarini nim ta'zimda turar edilar.

So'ng kimningdir ishorasi bilan ular qo'zg'bolishib, choylar yangilanib, paxta gulli kosalarda ikki donaginadan (ustida jindek qatig'bi, murchi, ko'katni bilan) manti tortila boshlandi. Ehson-ziyofat davom etardi. So'ng tilovat bilan hamma tura boshladi. Ana shundagina sholaravachaneg egasini ko'rdim. Uni ikki yigit tagidan qo'l o'tkazishib, to'y boladek ichkaridan ko'tarib chiqib kelishar edi. Qarangki, bu o'sha - o'zim bilgan va vaqt o'tib mushtdek bo'lib qolgan Parpi edi. U ham boshqa yigitlari kabi oq ishton-oq ko'yakdayu ustidan mo"jaz ko'k movut chakmon kiydirilgan, o'smir bolanikidek bir burda yuzidan oq-sarg'ish bir nur, bir oqlik taralar edi.

Borliq-yo'qliq asnosida turarkanman, qulog'bi ostida birov hayratlanib shivirladi:

- Akamni nomidan ish ko'rib kelayotgan shumi ekan, pakana pari?

Men cho'chib o'girilib, Olim akamni ko'rdim. Va ma'noli qilib:

- Ko'rib turibsiz-ku, - dedim.

Jazo, Rijo Va Hidoyat

Biz ichkaridagilardan ilgariroq chiqib, darvoza tagida qo'l qovushtirib turar edik. Bunday yig'binlarning ham o'z odobiyu hikmati bor ekan. Qolaversa, o'zbek shu mulozimati, uzoq-yaqindan kelganlar bilan ko'rishib-omonlashishi, ikki og'bi hol-ahvol so'rashib, bir-biriga samimiyatini izhor etishi bilan ham o'zbek ekan. Xuddi shunaqa paytda jiyanlar togbalarini tavof etib, sihat-salomatliklarini so'raydilar. Amakivachchalar, xolavachchalar yuz ko'rishadilar, yaqinlarini surishtiradilar. Kichiklar o'z hurmatlarini izhor etsalar, qariyalar duo qilishadi. Shu on, shu daqiqada butun tiriklik, dunyoning ziynati shundan iboratdeko ko'rinish ketadi odamga. Yaxshiyam o'zbekning to'y-xashami, aqiqayu ehsoni bor. Dunyo tashvishlaridan ortmay yurganlar, manavi zilzila munosabati bilan uzoq-yaqingga joy qilib ko'chib ketganlar, shu bahona yig'biladilar, diydor ko'rishadilar, hol-ahvol so'rashadilar. Kelolmagan qariyalarning omonat salomlari, duoyu tilaklarini yetkazadilar. Chindan shu xalqqa mansubligingdan, oqibatni, qarindosh-urug'bdan xabar olishni unutib qo'yaganingdan (albatta, silai rahm qilib turganga, vaqtida kelib, qariyalarning duosini olganga nima yetsin!) ichingda bir gb'burur tu-yib ketasan. Olloh seni shu toifadan etganiga (anuv otonasini tashlab, begona yurtlarga tentirab ketavuradiganlar toifasidan qilmaganiga!) shukronalar aytasan.

Hammasi shunaqa paytda - tanish-bilishlar uchrashib, ko'z ko'zga tushib, mehr jilva qilganda bilinarkan. Biz hozir ana shu holatda ichkaridan chiqayotganlarga intiqib turardik. Akam ham, men ham.

Bizga bu yig'bin-mashvaratni ilingan Nusrat pochchaning o'zlarini hali ko'rinnasidilar. Aftidan, u kishi ayvondagi domla-imomlar bilan so'rashib, bir-birlarini ziyorat qilishayotir, ungacha bu yoqdagilar tizilishib, ichkaridan chiqadigan azizlarni kutib turishar, hech kim jilishni o'yamas edi. Boyagi amri-ma'rufning ta'rifini tildan qo'ymay, o'sha suhandon kishi - Hoziq to'ramni

ishtiyoqmandlik ila kutishmoqda edi.

Men Olim akamga zimdan nazar tashlab-tashlab qo'yemoqdaman. Uni hali Isroil taksachidan bo'lak birov tanib ulgurganicha yo'q. (Axir u shaharga milisa o'qishiga kirib, uni bitirar-bitirmas dab bo'lib ketganicha, hamma har qayoqqa ko'chib, qancha suvlar oqib o'tib ketdi!) Tanib qolishsa - birpasda shovur-shuvur qo'pib, kim Eshon buvaning hurmatlari, kim Sultonmurod akamni izzati haqqi kelib ko'risha ketar edi-ku. Faqat tanimay turishibdi. O'zi esa, har bitta tanish chehraga - yakkabogb Tbligu kattabogb Tblikkha yutoqib-intiqib, bir olam xotirotlarga berilib tikiladi-yu, faqat borib so'rashishga, o'zini tanitishga iymanib turibdi. Yonidagi chapanisifat, yapasqi yuz Isroil aka esa o'g'b Tzida nosi, g'b T'o'diragancha unga allakimlarni tanishtirib, allanimalarni esiga solmoqqa tushgan edi. Akam uni anglayvermagach, axiyri nosini tashlab, qulogb Tiga yopishib bordi-da, tushuntirmoqqa boshladи. - Ko'ryapsanmi, tovkasidagilarni? Mulla bo'p olishibdi. Satta tom teshamanu bo'xcha o'g'b Tirlaymanlar. Yana to'n yarashganini ko'r, - derdi u.

- Xudo insof beraman desa shu-da, - dedi akam.

- Qatta! - dedi Isroil aka qo'l siltab, - o'zlariga qolsa ertagayoq o'sha ko'chaga burilib ketishadi. Faqat bu qo'ymay turibdi-da.

- O'sha o'zimizning Parpi-ya? Tovka boshi-ya?

- Ho', sen uni nima deyapsan? Yarimtaligiga ishonma! O'nta butunni qochiradi. Albatta so'z bilan, ilmi bilan. Biz uni o'tirib qoldi, desak, o'zini ilmga ursan ekan. Shayxim qori akaga o'xshagan hov anuvnaqa domlalar bilan ulfat bo'lvolib. Eshitding-ku, bugun bittasini. Qalay, yoqdimi?

- Yoqqanda-chi!

- Bular shunaqqib egib oldi-da, satta qashqata-yoqlarni, qamoq ham tuzatolmaslarni. Endi so'zidan chiqsin-chi!..

Va shu mahal darvozaxonada "Siz o'ting-siz o'ting"-lab domlalar ko'renishi. Ular nurli qarib, kichkina tortgan va ham sal munkillab aso tutgan, ustiga ustak o'ziga xo'b yarashib o'tirishgan maysarang movut chakmon kiyan kishi ortidan ergashib kelar edilar. Men u kishini tekis bodom qovoqlaridan yumshoq muloyim nazarlaridan bir qarashdayoq tanigan edim. Kenno-yimga tabib izlab borib... kimni ko'ribman?! Shu kishi edi-da! Faqat unda sal tikroq, dadilroq ko'rinish edilar. Qolaversa, Tangritogb Tdan kelgan tabib deb tanishtirishib edi. Xuddi shu odam bergen bir o'ram turkana dori Mahfuz kennoyimga malham bo'lgan, o'sha bilan oyogsbi kesilmay qolgan edi. Bugun esa men tamomila bo'lak manzaraning shohidi bo'layotgan edim. U kishini katta ulamo sifatida kutib olib, kuzatishmoqda edi. Bu orada ular darvoza tagiga chiqib qolishgan, u kishining hurmatlariga hamma tizilib qo'l qovushtirgan edi. Hamma u kishini tavof etib ko'rishib qolgisi keladi-yu, lekin hech kim borib qo'llarini olishga botina olmasdi. Va niyoyat u kishi jamoatning bu istagi, bu xohishini sezib qoldilarmi, o'zları o'sha ikki yonda tizilishganlarga ta'zim qilib, go'yo salom berib, alik olib kela boshladilar-u, so'nggi daqiqada eshik tagida cho'loq- aravachasi ila kuzatuvchilar qatoridan joy olgan uy egasini ko'rib, o'sha tomon yurdilar va borib o'sha movut chakmonda nur to'kib o'tirgan yarimta odam - Parpi bebaxtni avaylab quhib, yuzlarini yuzlariga suykab, kuraklarini silay boshladilar. O'zları esa bisotlaridagi eng shirin-shakar so'zlar ila uni alqar, alqab duo qilar, chiroysi umru chiroysi oxirat tilar edilar.

So'ng o'sha atrofdagi yaqinlar bilan ko'risharkanlar, ergashganlardan kimdir u kishini urintirgisi kelmaymi, qo'lini ochib:

- Taqsir hazratlari, jamoat haqiga, yangi xonadon sohibi bo'l mish ukamiz haqiga duo qiling, - deb qoldi.

Hamma shovullab qo'l ochdi. U kishi ham turgan yerlarida to'xtab, asolarini bilaklariga solgancha, duoga qo'l ochdilar.

- Ey, bor Xudoyo, iloha ilovando mo'minlarga ana shunday sabru jamiil bergin, to tirik ekanmiz, vatanlaridan boshqa judo qilmagil, o'g'b Tbir, mashaqqatli sinovlaringga tashlamagil. Doim rahm-shafqat qilg'il, o'z ilmu rabboniyingdan benasib etmagil. Qo'zgb Tbotmagil, to'zgb Tbitmagil, sarson-sargardon etmagil bu ummatingni. O'zingga toatda, ibodatda qilgil. Chiroysi, o'zingga xush keladurgan amallarga musharrat etgil. Hidoyatingga boshlabsan, qaytib o'zingdan begona qilmagil. Adashtirmagil hech. Shu jamoatda qo'l ochib turganlarni o'zlaruyu surriyodlariyu ulardan keyin keladurgonlarni ham o'zingga suyukli ummatdan qilgil. O'zingdan o'zgani demaydiganlardan qilgil. Bu xonadon sohibini ham hidoyatingga olibsan, chiroyluv amallarini bardavom etuviga erishtirgil. Hasbiyallohu va ne'mal vakil degan bu bandangni o'zing qo'llab, unga qatishib kelgan har bir insonni azizu mukarram etgaysan. Ularni O'zingning adluadolatingga topshirdik, hamisha qo'llarini baland etgaysan. "Robbana atina, fid dunya xasana va fil oxirati xasana va qina a'zaban nar".

Yuzga fotiha tortilib, odamlar bir-birlari bilan qayta ko'rishib, xayr-xo'shga tusha boshladilar. Hammadan Isroil aka mutaassirlangan, ikki gapining birida Olim akamning yelkasiga turtib:

- Uni ko'r, zo'r-ku. Oxund domladan o'tarkan-ku, a? Bir muftiycha ilmi bor ekan-ku, - derkan, joyida turolmas, o'sha yoqqa intilib, u kishini tavof etib qolmoq payiga tushgan edi.

Shu tob Olim akam u qolib, men tomonga o'girildiyu hayrat aralash shivirlay boshladi:

- Maqsud, bu kishi uy qamogb Tida emasmi? Ruxsat berilganmi bunday yurishlarga? Xalq orasiga kirishlariga? - derdi u. Men ang-tang qolgan edim.

- Qanday uy qamogb T? Qanaqa ruxsat? - dedim o'zimga kelolmay. - U yoqdan kelgan tabib-ku.

- U yogb Ting - qayoq? - dedi akam.

- Akam ketgan yoqdan-da, qayoqdan bo'lardi!

Olim akam qotib qoldi:

- Akam ketgan yoq?

- Ha-da, - dedim uni tushunib yetmay. - Uylariga izlab borganman bir gal, kennoyim yotib qolganlarida. Agar o'sha odam bo'lsa.

- Kim yotib qolganda?

- Kim bo'lardi kennoyim, akamning o'sha yoqli ayoli, - dedim endi yashirib o'tirmay.

U o'ziga kelolmay yuzini ishqadi. Aftidan, bu xabardan esi teskari bo'layozgan edi.

- Akam hali o'sha yoqda, ayoli bu yoqdamii?

- Bilmaysizmi, - dedim men ichim dukur-dukurga tusha boshlab. - Shuncha o'sha yoqlarda yurib-a?

U behol tortib, ko'zini yumdi, o'ziga kelib-kelmay:

- Keyin, keyin tushuntirib beraman. Mavridi bilan, - dediyu odamlar orasidan Hoziq to'ramnimi, kimni izlashga tushdi. U allaqanday hovliqib, izlagan kishisini yo'qotib qo'ysa, qaytib topolmay qoladigandek alanglar edi. Ular esa bu payt, har xil duxoba gajimlar shokilalar bilan ichidan bejalgan (qanday asrashibdi, tavba!) eski "Pobeda"ga joylashib ulgurishgan, kuzatib o'sha yergacha borganlar u kishi bilan xo'shlashar edilar.

Olim akam azza-bazza afsuslanib qoldi:

- Ketarkanlar, o'zim oborib qo'yardim. Eh, afsus, nega ilgariroq otni qamchilamadik? Endi qachon ko'ramizu uchratamiz?

- Qachon desangiz, oboraveraman. Uylarini bilaman, - dedim, - agar o'sha tabib bo'lsa.
- O'sha odam! Qanchalarning duosiga qolib, qanchalarning tinchini olgan! Qanday erkin qo'yishibdi ekan?- dediyu jim qoldi. U kishi jo'nab ketib, hamma tarqay boshladi. Faqat biz Nusrat pochchani kutib, bir chekkada qaqqayib qolayotgan edik. Buni ko'rib, pochcha ham xonadon sohiblari bilan xo'shlasha boshladilaru kutilmaganda bizga o'girilib:
- Hoy, Maqsudxo'jam, qanisizlar, beri kelinglar, - deb chaqirib qoldilar. - Arvoхlar shod bo'lzin, so'rashib-tanishib qo'yinglar. Harqalay bir joyning odamlarisiz, bir ariqdan suv ichgansizlar.

Men ich-ichimdan jon-jon deb turibman-u, lekin sholaravachadagi odamning sirimi, nimasi bosib, iymanib-tortinib bora boshladim. Qolaversa, akam tufayli yarimta bo'lib qolgan odamni (yana qancha vaqtan so'ng!) yaqindan ko'rgim, so'rashgim bor (axir, u ilgarigi ishlarini tashlab, nainki o'zi, butun tovkasidagilar bilan qay yo'lga kiribdi!) Men uni allaqachon qidirib topishim, akamning omonatini yetkazishim kerak edi. Kelib-kelib mavridi shu kunga to'gb'Brien kelibdi! Shuni eslaganda naq vujudimga yengil titroq kira boshlagan edi. Qiziq, akamning nomini eshitsa, qay ahvolga tushadi ekan - tasavvur eta olmasdim.

- Assalomu alaykum.
- Va alaykum, keling, eshon bola.

Birinchi bo'lib men uning yumshoq, qariyalarnikidan ham nozik qo'lini oldimu g'b'alati bo'lib ketdim. Bu qo'lllar duxobadayin mayin, ham iliq, undanmi yo sohibining engil-boshidanmi, odamning jonu jahonini elitgudek bir ifor taralar edi. Odam diniga qaytsa, shunday yoqimli bo'lib qolar ekanmi, tavba?

Men u ifor hidlarini hidlab to'yemasdim.

- Taniysiz-a, taqsir, bu Salomxonning kenjası. O'qib katta yigit bo'ldi, ulugb'barg dargohlarda ishlayapti,- deb tanishtira boshladilar pochcha.

- Nechuk tanimay, Sultonmurodning xolavachchasi, o'zimizning yakkabogb'blik, - dedi u bilagimdan ushlagancha qo'llarimni silab. - Oyingiz omonmilar, bardam-baquvvatgina o'tirbdilarmi? Bizdan duo aytasiz. Bizga qancha yaxshiliklar sogb'bingan, yaxshiliklar qilgan joylari bor.

Voh, ich-ichimdan bir turli hislar toshib kelardi, odam shunchalar muloyimlashuvi, halim tortib ketuvi mumkin ekanmi? Bu nimaning alomati? Yolgb'biz hidoyatingnimi?

Va shu barobar akamning bir paytdagi omonat xati, undagi rijolari yana yodimga tushib kela boshlagan, uni manavi holda bu odamga qanday aytarimni bilmasdim. Hammasidanam ukasi - Olim akamning oldida ne deb aytarimni bilmasdim. Qolaversa, bundan keyin bunaqa mavrid keladimi, yo'qmi? Bu orada pochcha mening holimdan bexabar Olim akamni tanishtirmoqqa boshlagan edilar:

- Bunisini-chi, bunisini? Alloh chindan hafiz, asrayman desa o'ziga taraf yo'q; ming chigb'biriqlardan ham gard yuqtirmay oson chiqaradi ekan. Mana, nihoyat yurtini qora tortib kepti Sultonmurodning jigari, Eshon buvamning kenjalari, u kishining chiroqlarini yoqib o'tirgani. Olim deganlari shu bo'ladi, taqsir.

- Vah, vaqtning ketuvini, umrning o'tuvini ko'ring. Shu o'zimizning Olimmi? Er yetib, sochiga oq oralab ulguribdi-ku. Uni qarang-a. Kel, birodar, kel. Muqim qaytganing rost bo'lzin. Omonmisan, do'stimmung jigargo'shasi? - deb sholaravachada o'tirgan odam bazo'r "quchoq ochdi", so'ng quchogb'biga "olgan bo'lib", ovozi bir tur o'zgardi. - Uni qara-ya, sendan kimlarning isi kelmoqda-yá. Iloy, akaginangning ham boshimi toshdan etgan bo'lzin O'zi. Shunday ko'rishtirmoqni nasib etsin.

Nima balo, bu iltijo, bu rijo qalblarimizdagи yosh buloqlarining kaliti edimi va yo bir tilsim so'zlarimi, ko'nglim allatovur bo'shashib, ko'zlarimga tirqirab yosh quyilib kelar, shuncha yosh qaerda turgan ekan - o'zimni tuta olmasdim.

Yengimni bosib, atrofga qarasam, bu gapdan mutaassir bo'lgan hamma - akam ham, o'zi ham, pochcha ham bir holatda turibdilar. Pochcha o'zlarini bosmoq bo'lib, dam-badam iyak qoqadilar, o'zlarini chalgb'bítmoqqa urinib, uning duosini takrorlaydilar:

- Iloy, o'sha kunlarga O'zing yetkaz.

Bu orada uy sohibi o'zini tutib, ichkariga qistamoqqa, bizning suhbatimizni olmoq harakatiga tushib qolgan edi:

- Qani, pochcha, boshlang. Sizlarga javob yo'q. Bir kelib qolishibdi, ichkariga boshlang bularni. Otamlashayluk. Hoy, Azlar togb'b'a, nega qarab turibsiz? Mehmonlarni olib kiring. Ularga javob yo'q.

- Bu yogb'b'i qandoq bo'ldi? - deb pochcha menga qaradilar. - U yoqda xolang kutyapti. Bu yoqda kirmasang...

- Nega kirmas ekanmiz, kiramiz. Qolaversa, bu kishiga aytadigan omonatlar bor, akamning omonati,- dedim men mavridi kelib qolganidan foydalanib.

- Kimdan dediz? - uy sohibi azbaroyi hayratlanganidan sholaravachasi turgan yeridan jilgudek g'b'ijirlamoqqa tushgan edi. - Sultonmuroddanmi?

- U kishidan bir xat keltirishgan edi. O'shanda... Sizga tegishli gaplar bor ekan. Uzr, vaqtida yetkazolmagandik.

- Uni qarang-a, shunday edimi? - Men hech kutmaganda uy sohibi bu xabardan boshi ko'kka yetib, shoshib qolgan, "Shundaymi, daragini chiqqargan Ollohimdan o'rgilay-a, kiringiz", deb qistamoqqa tushgan edi.

Kirdik. Hovlidagi joylardan biriga o'tira qoldik. Pochcha duo qildilar. Choy keldi. Shundan keyingina uy sohibi yana intiqib menga qaradiyu:

- Bu qachongi gap, eshon bola? Aytin, tortinmay aytavering, - deb yana qo'llarimni silamoqqa, boladek yalinmoqqa tutindi.

- Yaxshi gaplar, xursandchilik gaplar!- dedim men u kishini tinchlantrishga urinib. So'ng:- Bahriдин akamni tanir edingizmi?- dedim yotigb'bi bilan.

- Qaysi Bahriдин? Yakkabogb'blik Bahriдин aytasizmi? - dedi bir hushyor tortib. Kutmagan ekan, allaqanday xijolatlandi:

- Ha, ha, Asol xolamning o'gb'billari, - dedim.

- Xo'sh-xo'sh? - dedi o'ziga kelib.

- U kishi tirik ekanlar. Makkaga o'tib ketishgan ekan. Margb'b'u kennoyimni unga yetkazibdilar. O'sha nikoh qayta tiklanibdi, - dedim yuzlaridan ko'z uzmay. - Sizda gunoh yo'q ekan. Akam, Sultonmurod akam hamma o'tgan ishlar uchun Sizdan uzr so'raydi. Kechiolsan-giz - kechirib qo'yar ekansiz.

- Subhonolloh! Shundaymi ekan?..

Uning yuzi (ko'rib turibman!) oqarishib kelib, kutilmaganda ilgarigidan ham nurlanib ketdi, tavba, u sariq ipak singari ichdan bir ajoyib nurlanib balqir, shu bilan barobar bu yuzga xotirjamlik yoyilib kelar edi. U ko'zlarini ko'tarib, menga minnatdor tikildi.

- Ollohga shukr, O'ziga hamdu sanolar bo'lzin! Ollohdan yashirmaganimni endi sizlarga ham ochay. Bu narsa ko'ksimni tegirmon toshdek ezib yotar edi. Qarang-a, Xudo o'zi kushoyish berib asragan ekanmi Bahriдин? - deya oldi.

- Asragan ekan, gunohsiz ekansiz, - dedim men. U meni quchib olib, toza yigb'b'lab bersa kerak, deb o'ylab edim. Ammo u tobora

xayolchanlashib, shol oyoqlari ustidagi movut chakmonning bir chetini silab ketgan, bosh ko'tara qolmas edi:

- Shundoq bo'lsa-da, u kim ekan - biz otib qo'yan, boyaqish? Kuyovnaykar, anuv yetimcha bo'lib chiqqaymi? - dedi bizni tamomi hayratda qoldirib. Va ko'zlarini yumib, Ollohunga iltijo etdi. - O'zing kechirgaysan, Tangrim. Undan kam bo'lмаган gunohimiz bor ekan. Bir yetimning gunohi, - dediyu jim qoldi.

Uning mijjalarida ikki tomchi billurday yosh qalqib turar, mening ko'z o'ngimdan esa bir xil kiyangan ko'k to'nli yigitlar Mirjumon ko'chasidan ko'tarib kelayotgan tobut va uning oldidagi Qo'qon arava ketmasdi. Qo'qon aravada esa xumdek kallasini osiltirib mana shu odam o'tirar va hech qayoqqa qarab qo'ymas edi.

Tobutdag'i ustixon esa o'shal boyaqish kuyovnaykarniki ekanmi?

Uchinchi Bogb'To (yoxud ey sokin jon)

Muallifgagina ayon tarixlar davomiga

Uostonada to'xtab, ichkariga ovoz berdi:

- Onasi-yov, qaydasiz? Biz otlanub bo'lduk, duo bermagaysizmu?

Ichkaridan hadeganda javob bo'lmas, uning o'rniga ham piq-piq yigb'Ti tovushiga o'xshash bir hiqillash eshitilar edi.

Axiyri bo'lmadi. Mo'ysafid kavushini kavshandozga yechib, maxsichan kirib borarkan, endi to'ngb'Tichining nomini atab chaqirdi:

- Norposhsham, qay yerdasiz? Safarga otlangan kishini shunday kuzatarlarmi?

O'zidan xiyla yosh xotinning nozi shu-da. Qolaversa, oldi qizlarini uzatib, o'gb'Til uylagen xotinning yoshligi qoldimi?

Nimqorongb'Ti uyga kirib olib, taxmon ko'rpalariiga yuz bosgancha qolgan ayolining qorasini ilgb'Tab, g'b'halati bo'lib ketdi qariya.

Ichi sidirildimi yo achishib, ko'kragini bir nima tilib o'tdimi, noxushlik sezdi. Shunda kutilmagan hol yuz berdi.

Qulogb'Tiga yana o'sha kechagi noxush ovoz eshitilib ketib, butun vujudini bir titroq-jimirlov bosib keldiyu peshonasini muzdek ter qopladi. Shu barobar bir badbo'y hid - xuddi bir vaqtlar bolaligida qari yongb'Toq g'b'rovagiga qo'l tiqsanidagidek yomon hid anqib ketdi. Unga shunday tuyuldimi, yo rostdan qayoqdandir anqib ketdimi, ajratolmadni. Lekin aniq esladi, u hov o'shandagidek - yongb'Toq g'b'rovagida qo'lini cho'qib olgan ukki bolasinikidek badbo'y edi. O'shanda qo'lidagi pixillab potirlayotgan (temirqanotdan o'tib, hali uchirma bo'lib ulgurmagan) ukkichani uloqtirish o'rniga yuzini burib, bir amallab yongb'Toqdan tushib olgan edi. Keyin kattalardan kimdir kelib qolib:

- Qo'ling akashak bo'lib, o'ling kevottimi, yo'qot, joyiga opchiqib tashla, - deb so'kkachgina iniga tashlab tushgan, shu-shu qaytib ukki iniga yo'lamat qo'ygan edi. Shunga ham, hov o'sha - Murjumondagi voqeaga ham yetmish yil kechdimikan? Lekin kelib-kelib endi yodga tushuvi, olamning manavi chekkasiga topib kelib, xunuk sayrashi qiziq edi. Bu nimaning alomati ekan?

Tungi ukkinining anavi toshnokdami yo uning ortidagi bir yon shoxi quriy boshlagan qari qashqar gilosdami o'tirib olib har zamon:

- Huq, huq, huq, - deb qo'yishi, oradan yetmish yil kechib chaqirishi, sayrashi, topib kelishi g'b'halati edi.

O'shanda nima bo'lib edi o'zi? Ha, darvoqe, o'shanda yongb'Toq ustidan tushayotib, oyogb'Ti sirpanib ketdi-yu, jon holatda daraxtga yopishdi. Shunda qo'lidagi ukki bolasini yomonroq ezib qo'ydimi, u chagb'Tillab yubordiyu boyta inidan potirlab uchib chiqib ketgan ukkilar qaerdandir paydo bo'lib, ustidan pixillab uchib o'tdilar. Qo'yib bersa, boshiga tepib, talamoqchi edilar-ku, talab ulgurmadilar, u yerga sakrab tushib olgan edi. So'ng haligi katta odamning - u suvchimidi, yo'lovchimidi (balki Hizrdir) - qistovi bilan ukkichani iniga tashlab tushdi.

Lekin uning badbo'y hidi qo'lidan necha kungacha ketmagani aniq.

Yaxshiyam o'sha Hizrning uchragani - yetmish yilgacha uni unutib yashadi. Bugun esa... u indamay turganigami, haligacha borib taskin bermaganigami, ayoli birdan o'zini tutolmay o'krab yubordiyu o'grilib kelib, yelkasiga osildi:

- Meni desangiz shu safaringizni qoldiring, otajonisi!

Jahlini yutib o'rgangan odam (uningdek halim, hokisor kishi hamma qahr, jahl, achchiqlarini Allohunga taslim etdim deb yurgan bir paytda) shaytonga hay berolmadi.

- Qaydan topding bu gapni?! - dedi sensirab. - Kecha qaerda eding?!

Oyposhsha qarshisida oq ro'molining uchini ko'zlariga bosgancha hamon to'lib turar, unga bir so'z demak ortiqcha edi.

Mirzahojim kalta soqolini tutamlab, ichiga kirib olib vasvasa solishdan toymayotgan kasni haydamoqqa urundi:

- "La ilaha illalloh. Asta'firullohi azimi va atuvbi ilayhi. Bilib-bilmay qilgan gunohlarimni o'zing magb'Tifrat et", - deb kalima keltirdiyu o'zi ichida o'sha bundan yetmish yil ilgarigi jon holatda chagb'Tillagan ukkichani o'yldardi: nima balo, o'sha narsa qaytib o'nglanmagan ekanmi?

Narigi uydagi osma soat tonggi sokinlikni buzib, bamisolai tunggi ukki misol:

- Huq-huq-huq... - deb chiqillar edi.

Chol bu ovozdan eti junjikib, qo'liga ilimiliq bir narsa yopishgan kabi uni siltab tashladi:

- Menden nima istaysan?!

U bu gapni xotiniga aytidimi, yo o'sha tungi sovuq boyqushgami - o'zi ajratolmadni. Ko'ziga u boyqushdan ham xunuk ko'riniib ketib, jaholat ichida:

- Ha, yurtimga ketyapman! Xilxonamga yetib olishimgayam qo'ymalaring! - deb berdiyu, shart o'girilib maxsichan chiqib keta boshladi.

Qaytib kavushini oyogb'Tiga ilgani kirganda ichkari jimxit, go'yo hech kim yo'qdek bo'lib, quloqlari beayov shangb'Tillar edi.

Yaxshi bo'lmadi. Necha yillik umr yo'ldoshi edi. Shuncha yil ko'ngliga qarab kelib, ketar vaqtida dilini ogb'Tirtdi. Tahorati singan ekanmi, shayton qaydan ilashib, qanday yozgb'Tirdi? Borib-kelib kuchi shu mushtiparga, bolalarining onasiga yetdими? Xotin-bola-chaqasini tashlab, bu diyorlarga qochib o'tganida kim joniga ora kirib edi? Yo'qchiliklar zahrini birgalashib kim tortib edi?

Shuning otasi bergen jindek sarmoya tufayli shakarpazlik bilan o'zini o'nglab olgan, so'ng boyib ketgan emasmidi? Sening qadamning bu uyga qutli keldi, nimaga erishgan bo'lsam sen tufayli deb yurmabmidi? Endi o'sha hisobsiz boyligiyam, bola-chaqasiyam, ichkari-tashqarili bu hovlilar ham, kimsan - Mirzahojiboy - aytuvli boy ekani ham nega ko'ziga ko'rinnay qoldi?

Hammasi ko'zining oqu qorasi o'sha Mahfuzasi tufaylimi?

Agar uning daragi chiqmasa, yolgb'Tiz, ayol boshiga tushgan ko'rgiliklari yetmaganday ogb'Tir dardga chalinib kasalxonalarda yotmasa, yotganini anuv bolakaydan eshitmasa, Ollohunga panohiga tashlab jim yuraveran bo'lmasmidi? Balki. Dil yarasi yangilanmasa, shaytonga bo'y berarmi edi?.. Bermasdi. Hammasidan to'gb'Tiroggb'Ti shu. Chinroggb'Ti shu.

U bu diyorda barcha yo'qotganlarining o'rniga o'r'in bir mo'min-musulmon uchun lozim bo'lgan narsalarning hammasiga erishdi,

topdi. Suqsurdek bir mo"minaga uylandi, bola-chaqa qildi. Boyib ichkari-tashqarili hovlilar soldi. Hajga qodir kishilar qatori Alloh uyini ziyorat etdi, Paygb Tambah yo'llaridan yurib, Minolarga bordi, Arofatga chiqdi, Muzdalifada bir kecha yotdi. Qiyomat mahshargohini ko'rgandek bo'ldi. Vido tavofini ado etib, muvaqqat vatan tutgan diyoriga hoji bo'lib qaytdi.

Otalar yurtiga zora yo'l ochilsa deb, sadaqlar sochdi, zakotlar berdi. Xo'b savoblar topdi. Kechalari tahajjud namozlari o'qib, duolarida so'rardi ota yurti Murjumonni, undagi Olmazor bogb Tihini ko'rmoqni. G'ir-gb Tih shamollarga ko'kragini tutgan o'sha jannatday joyda bir lahzagina o'tirmoqni, Izza buлоqlari suvidan bir piyolagina ichmoqni, asal bo'yli bosvoldilaridan bir tilimgina totmoqni orzulardi. Orzulaganda ichlari otash bo'lib yonardiki, qo'yaverasiz. U sogb Tinchmidi, dardu o'kinchmidi, yetib bo'lmas quvonchmidi, bir ogb Tiz so'zla aytib, tushuntirib bo'lmasdi. Kundan kunga, yildan yilga, umr o'tgan sari lovullasa lovullardiki, pasaymasdi. Taskin bilmasdi.

Axiyri shahar chekkasidan baland bir joy topdi: qarangki, bu yerda ham qir shamoli timmas - gb Tih-gb Tih esib yotar, suv olib chiqolsa, o'sha birinchi bogb Tihidan qolishmaydigan joy qilish mumkin edi. O'sha ko'ksidagi armonni bosish uchun ko'ziga na dunyo ko'rindi, na uyqu. Axiyri bu qirga ham xuddi o'sha Murjumondagidek bir anhor suv chiqarib, ulkan hovuzu atrofidagi supalarni halqadek o'rab oqqan anhor qazdirdi. O'tani olmazor bogb Tih etib, ikki yonni o'rikzor yongb Hoqzor qildirdi. O'n yil deganda o'sha birinchi bogb Tihidan qolishmaydigan jannat go'sha paydo bo'lidi, uni ham Mirzaxo'ja hojimning Olmazori deb atashdi. O'zi armonbogb Tih deb atab, unda chiroyli ziyofatlar, ilm majlislari qurar, Qur'on tilovatlar etib, bu mo"jizani yaratmoqni ko'ngilga solgan Alloh subhanahu va taologa beedad hamdu sanolar aytar edi.

Inson ana shunaqqib yo'q yerdan o'ziga bir taskin topib olarkan-u, bir kun kelib, u ham eskib, bu qalb qurgb Turg'a em bo'lmay qola boshlar ekan. Qadim Vatan sogb Tinchini hech narsa bosa olmas ekan. U uygb Bonmasin, uygb Bonib o'tashga tushmasin ekan, atrofda malham bo'lgulik bir narsa topilmay qoladi ekan!

Ota yurtga jo'natgan qizi ila hali o'zi ko'rmagan, bir qur erkab, tizzasiga olib armondan chiqmagan nevarasidan mujdalar berib, manavi mehmonlar dovon oshib kelishdiyu, anavi tilmoch yigitdan ikki enlikkina xat ham qo'shilib, ko'ksidagi armon bolaladi-ketdi! O'shandan beri yurakkinasi hapriqadi-toshadi. U jannatmakon ma'veoni ko'rgilari kelib, ichi kuyib o'tanadi, o'tanib yana kuyadi. Bularni deb qariganda yo'lga chiqmay qo'ya qolay desa, dunyo ko'ziga tor ko'rinib boryapti, torayib boryapti. U ham eshitdi kechasi o'sha savil qolqur ovozni. - Haq, haq... - desa ham bir baharnav edi, juftini chorlagan haqqush demoq mumkin edi. U esa, sovuqdan sovuq qilib:

- Huq, huq, huq, - etib yotar edi!

Alhazar, shuncha yil boyqush qo'nemagan oshiyoniga u ketar mahalda, jo'nar kechada keladimi u? Xuddi bir narsadan imdod berganday, teskari bashorat etganday?!

Turiboq tahorat yangilab kelib, (islomda irim yo'q esa-da) "Hasbiyallohu laa ilaha illallohu alay-hi tavakkalu..." duosini yetti karra aytib, Alloh-dan gb Tiham-kulfatlardan nari qilishni so'radiyu qaytib yotdi.

Shunda boyo'gb Tihli ham bu duoning kuchiga dosh berolmayin qiv-qivlagancha dab bo'lib ketdiyu bogb Tinchib, u xotirjam tortib qolib edi. Mana endi turib-turib, safar oldidan anavi befarosat yodiga solib o'tiribdi. Qiyomati kampiridan topgani shu bo'lsa, bu dunyoda odam bolasiga suyanmoq chikora? Hammasiga etak silkip, yolgb Tiz O'ziga tavakkul etmoqdan va tavakkal jo'namoqdan o'zga nima qoldi?

- Xayr, - dedi u deraza tokchasiga ket qo'ygan joyidan turib va niyatini xayrli ishlarga yo'yib. - O'tgan gaplarga salovot, - dedi negadir kampiri tomon yurib va ma'zurnamo gaplarga ko'chib. - Onasi, men sendan yaxshilik ko'rsam ko'rdirimki, yomonlik ko'rma. Men sendan roziman. Sen ham mendan rozi bo'lib qo'y. Bilib-bilmay yoxud shayton yozgb Tihrib dilingni ranjitgan esam, kechirib qo'y. Tongla mahsharga qolib yurmasin. Nafaqai ahli ayolga taalluqli burchlarimni-da unutgan joyim bo'lsa, avvalo sen, qolavursa, Allohim kechirsin. Qolgan dunyom seniki, bolalarincki. Rasamadi ila ishlatsanglar hali ko'pga yetgay. Men bir umr orzu qilgan safarimga otlangan jo-yim, qarshi turib, dilimniyam siyoh etma, o'zingni ham gunohga qoldirma. Jon onasi, tushun. Yozmishda borini ko'rgaymiz. Agar qaytib ko'rishmoq nasib etmagan bo'lsa, mendan rozi bo'lib qo'y. U yoqda tentirab qolgan qizim, tomirimning tomiri - jujuq nevaramni bir ko'rgim bor. O'z ko'zlarimla ko'rib, xotirjam ketgim bor. Sen ham meni tushun. Otalarim, onalarim o'tgan yurt, o'zim tugh Tihlib o'sgan ma'vo, tanish-bilishlar tushlarimdan ketmay qoldi. Hamma-hammasi chaqiryapti, chorlayapti. Hozir bormasam, shu mavridi kelganda o'tib olmasam, keyin borolmayman. Holim ham, madorim ham yetmagay keyin. Meni bir umrli armonga qoldirma. Qo'lingni och, onasi. Duo qil. Zora sening duolaring ijobat bo'lib, ko'zlagan manzilimga yetib olsam.

U esa, ojiza emasmi, duo o'rniga ham, taskin-tasalli o'rniga ham buning yelkasiga osilib, kiftlarini silar, engil-mursaklarini o'pib yigb Tihardi, xolos. Tiliga jo'yali bir so'z kelmasdi.

Tashqarida jo'hashga hamma narsa taxt - arava qo'shilgan, yo'l tadorigi ko'rilib, foytun aravaga necha qavat ko'rpachalar to'shalgan, yo'lida hojim urinib qolmasinlar deb, necha duxobayu par yostiqlar olib chiqilgan edi. Yurtdan kelgan mehmonlar ham allaqachon otlarini egarlاب, abzal-qayishlarini tortib, duo berilishini kutib turishibdi. "Buvasini ko'rgani kelgan" mehmon bola - kemshiktoy esa, foytun arava atrofida girdikapalak. Boy ota chiqqa qolsayu uning qavatiga joylasha qolsa. U dovonga qadar u kishiga hamroh, so'ng otga mingashadi. Arava dovon tagidan qaytadi, u yogb Tihiga hojim foytun ortiga bogb Tihlogb Tihli qari samanda (har qalay bosiq, urintirmaydigan ot) ketadilar. Ro'zimuhammad foytunga qo'shgan ot ham yosh ko'ringani bilan foytunda bir tekis yurishning xo'b haddini olgan, bo'lar-bo'lmasga hurkib ketavermaydi. Ishqilib, hojimni urintirmay-netmay dovonga yetkazib, sarhaddan o'tkazvorishsa, bas. U yogb Tihiga Xudo xalloq, qolaversa, sarhad oshib kelgan manavi mehmonlar bor, amallab yetib olishar.

Nihoyat qariya yelkasiga bosh urib tinchiy olmayotgan ayoliga:

- Bo'lar endi, onasi, yo'lga chiqmayturib... meni toliqtirmagil, - dediyu u aziz boshni o'zidan xiyolgina uzoqlashtirib, yelkasiga sirgb Tihlib tushgan oq ro'-molni to'gb Tihilagancha ikki kaftila ikki chakkasidan tutib, u yuzni o'ziga qaratdi. - Alloh shohid, men sendan roziman, sen ham rozi bo'l, - deb ajin oralab ulgurgan va sajdaning rangi bilan ranginlangan peshonasidan o'pdiju qayrildi. Nihoyat oq fotiha berilib, otlarning jilovi bo'sh qo'yildi. Tuproq ko'cha ot tuyoqlarini o'pib, alvido salomini aytishga va ohidan changi havoga o'rlab, tuproq hidi anqishga boshladi. Oldinda u yurtdan mehmon bo'lib kelgan kishilar yo'l boshlab, orqalaridan foytun ergashgan edi. U ot tuyogb Tihiga monand har chayqalganda tag yumshatgichimi, silkingichidanmi, qilt-qilt etgan allalaguvchi bir ovoz chiqib borar, hoji ota bilan bolakay shohona dilijonga chiqib qolgandek edilar.

- Xayr, xush qolningiz.

- Allohnning panohiga. Eson boringiz.

- Ilohim, oy borib, omon qaytingiz! - Ularning ortidan shunday duolar uchar, kim yuziga fotiha tortib, kim ro'molining uchini

mijjalariga bosgan edi.

Havodan tuproq hidiga qo'shib, yangi tezaklagan ot tezagining hidi gurkiran edi. Qir uchlaridan rang olib, dumbul bo'la boshlagan va oldi yozni halitdan kutib olayotgan o'riklarning qay shohidadir (albatta, gbTbir-gbTbir shabadalarga jindek yuz ochib, jindek soyasiga berkingan) sariq boshli jimit qushlar - sa'valar foytun aravayu otlardan ham hurkmay, go'yo bu olamda rozu tasbeh aytguvchilari yolg'biz bittadek, qolgani o'tkinchidek - "chit-chit-chit-ov"lab sayrab yotar, hech narsaga parvo qilmas edilar. Faqat ora-chira qaerdadir - qo'rgb'on ortidagi yongb'hoqzorda shekilli zargb'Taldoqqush (har yili o'sha azim yongb'hoqlardan birining eng tepa shohiga in quradi) "qiyov-qiyov-tish-sh"lab chaqirib qo'yardi.

Foytunga (qo'sha-qo'sha duxobayu paryostiqlar orasiga) jimitdek bo'lib cho'kkon cholning ko'zlari yo'ldayu vujudi go'yo quloqqa aylangan edi. Orqada qolib borayotgan qo'rgb'on tomondan kelayotgan har bitta ovozni (go'yo endi qayti eshitmasligi mumkindek, xotirasida olib qolmoqchi bo'lib!) ichiga yutub yotipti!

Allakimning bogb'Tbi yoqalab o'ta boshlashdi. Rosa kungay, oftobga ko'kragini tutgan joy ekanmi, gbTbir-gbTbir esgan shabadasining o'zi jannatning islarini olib kelar, bu faroqgb'Tbat makonida qolaqol deb jilva qilar edi. O'zining Olmazor bogb'Tbiga o'xshab ketarkan. U ham shunday gbTbir-gbTbir shabadalar makonida edi. Qadami yetgan odam borki, ketolmay qolardi. Lekin mana, vaqtisi-soati kelib uni-da, barchasini-da tashlab ketmoqda. Ota makondan bo'lak hech narsa ko'zga ko'rinnmay qoldi. Buni qandoq tushunmoq keragiykan? Umri poyoniga yetganigami, judolik qo'shigb'Tini aytish vaqtি kelganigami? Balki, kechasigi ovoz - ukki sayrogb'Tbi ham bezimasdir?.. Ishqilib dovondan o'tib olsalar, bas. Qo'rqaqdigan o'sha.

Foytun lo'killab, uni allalar, hamisha xush yoqadigan bu allalash uzoq yurilganimi, nima uchundir hozir xush tuyulmayotgan, ko'ksining alla qaerida gbTashlik bolalab, ko'kragi torayib, nafasi siqib kelayotganga o'xshar edi. Tavba, unga nima bo'lyapti? Holi shunchalik ekanmi? Ro'zimuhammad odamini topib, Yolgb'Tizdaradan o'tkazib yuborish tadorigini ko'rib qo'ygani bilan u o'gb'Tri so'qmoqlardan yurish o'zi bo'lmas? Hali foytunni tashlab, orqadagi otga minish, yolgb'Tizoyoq so'qmoqlardan jon hovuchlab o'tib borish kerakdur? Unda holi nima kechadi? Bularga ortiqcha yuk bo'lmasa koshki edi!

U ikki dunyoda ham do'st bo'lmaydigan gbTanim qavmlarga bo'y bermagan imom Shomilning so'nggi taqdirini esladi. O'shanday odam ham umrining so'ngida hajni ixtiyor etib, Ollohnning uyini tavof qilgan, Paygb'Tambar masjidlarida Allohdan yolgb'Tiz bir narsani - hoki turobini tangri aziz qilgan shu joylarda qoldirishni so'rabb uch kun ibodat qilgan ekan. Uchinchi kuni behol tortgan qariyani tuyaga ortayotgan chogb'Tlarida tuya bexos turib ketib, imom uning ustidan qulab tushadi va qilgan duolari ijebat bo'lib, uni Baqo qabristoniga qo'yadilar. Bunday o'lim topmoq qanday ham xayrli. Lekin manavinday... begona yurtlarda... o'gb'Trincha sarhad oshib borayotib... ota diyorga yetdim deganda yetolmayin ketish... qanchalaran armonli!

Qariyaning mushtdek yurakkinasi xazon yangligb'T titramoqqa boshladi va ichi sidirilib kelib, ko'zlari jiqla yoshga to'ldi.

"Hasbiyallohu laa ilaha alayhi tavakkaltu"ni takrorlamoqqa boshladi. U bu duoni mana necha yildirki, har tong, har oqshom yetti qaytadan o'qib, Yaratgandan gbTbam-kulfatu musibatlardan nari qilishni so'raydi. Uni muborak safarga borganida Oltinxonto'ramdan eshitgan va shundan beri kanda qilmasdi. Alloh chindan innaka antat-tavvabur rohiym, chindan, innaka antas-samiul alim, chindan innaka antal azizul hakym. Uning tavbayu duolarini qabul etib, o'z hifzu himoyasida asrab keldi. Musofir yurtlarda azizu mukarram etdi. Bu iltijosini-da ijebat etgay, inshaalloh. Ota yurt havosidan nafas olmoqqa musharraf qilgay, zora. Jilla qursa, o'shal tuproqdan ikki gaz yer nasib etmasmi, vallohi a'lam?! Begona yurtlarda qoldirmas-ku suygan qulining hokini... - Shomni o'tab olasizmi, boy ota? Tahorat yangilayapmiz.

Qarasa, bulbullar chah-chahlab, qumrilar sayragan soylik bir mazgilda to'xtab turishibdi. Pastda to'piqdan oshmaydigan soy sharqirab yotibdi. Namxush togb'T havosi ko'ksiga moydeq yoqib tushmoqda, quyosh togb'T ortiga o'tib ketganu soylik hamon charoqgb'Ton edi.

Chaqirgan Ro'zimuhammad ekan.

- Yo urinib qoladigan bo'lsangiz... yana o'zingizga qarang,- o'sha yerda o'qib ola qoling, demoqchi bo'ldi u.

Holiga qarab... o'qisayam bo'ladi-yu, lekin jamaotning savobiga nima yetsin? Paygb'Tambarimiz sollallohu alayhi vasallam betobliklarida ham so'nggi kungacha namozga chiqqanlar-ku. Namozdan ulugb'Troq nimamiz bor, shunga ham yaramasak?

- Tushaman, mayli. Joyni hozirlay qolinglar.

O'tiraverib, oyoqning ham oyoqligi qolmagan ekan, Ro'zimuhammad bir muddat silab-uqalab o'ziga keltirgandek bo'ldiyu, shunda ham foytundan yosh boladek ko'tarib olib qo'ydi.

Sharqirab oqqan suv bo'yiga joynamoz yozilgan ekan, vaqt kirgach, Ro'zimuhammad takbir aytdi, Xudoyberdining hamsoyasidan bo'lak hammalari (hatto ziyoratga kelgan Kemshiktoy bolakay-da) iqtido qilib, namozga turishdi. O'zi sharqirab, Yaratganga tasbeh aytib yotgan soydan jonbaxsh bir nasim esar, uning ustiga togb'T havosi, shom salqini, yana namoz halovati qo'shib, shunaqa bir yengillik paydo bo'lgan ediki, qariya ko'pdan bunday halovat tuymagan, xuzu ichra ibordat etmagan edi. Balki umri davomida o'qigan namozlari ichida eng to'kisi shu desa bo'lmas (axir, banda qusurli, to'kisga yo'l bo'lsin!) - halovat tuyib, erib o'qigani mana shu edi. Yolgb'Tiz shu namoz uchungina ham umrдан rozi ketsa arzirdi.

Ota yurtda ham ana shunday namozlar o'qishga musharraf etgil, yo xalloqi olam deb duo qilmoqchi edi, tezdan tushib qolgan shom qorongb'Tiligidan otlar nimadandir hurkib, kishnab yubordilaru uni chalgb'Titdilar, u duoni qisqa qilib qo'ya qoldi. Balki Xudoning xohlagani shudir, shugina bo'lqandir. Axir banda qodir qilgancha o'qiydi, nasib etgancha so'raydi.

Turdilar. Soydan oshib biroz yurishgach, o'chogb'Tida olov, kulbasida chirogb'T miltiragan allaqanday bir chorborgb'Tga yetdilar. U shunday togb'T yonbagb'Tridagi archazor takkinasida ekan, togb'T esa ulkan qora qo'tosdek qiblani to'sib yotar, boshi, sagb'Trilari, beli osmoni haftimga yetib, ustida yulduzlar injudek yaltirar edilar.

- Shu yerda jindek to'xtab, tamaddi qilib olasiz, boy ota. Aytib qo'yilgan, - dedi Ro'zimuhammad va shox utilgan devor tomon chaqirib bora boshladi. - Imin ogb'bayov?!

Chorbogg'b'dan buzoqdek it hurib chiqib, chetan devorga old oyoqlarini qo'ygancha bor ovozila vovullay ketdi. Ovoz ham bor edi, uning "hovf-hovf"idan otlar-da tisarilmoqqa tushgan edilar.

- Arstan, jat!

Itning uni o'chib, oyogb'Tini tushirdi va o'zi qayrilib keta boshladi.

Egasi otlaru foytunni ko'rgandayoq mehmonlarni tanidi shekilli o'sha yoqdanoq yelkasi ko'tarilib-tushib kela boshladi.

- Ro'zimuhammad qardash, sizlarmu? Nachuk kachik-diz?

- Assalomu alaykum. Uzr, kuttirib qo'yidik. Otlarimizning yurishi shu, - deb siperishladi Ro'zimuhammad. Aslida otlarni nimaga qistashmaganini bu yoqdagilar tushunib turishar, unga aytolmas edi.

- Va alaykum, tusha beringiz. Yemak-ichmaklar muntazir. Kechikvotmiz. Otlarga-da qarasinlar, yemlasinlar, - deb turib, chetan

eshikni olib chiqdi va otliqlarga qarab norozilandi: - Iy, buytib ko'psiz, Ro'zimuhammad? Shular hamusi dovon oshgaylarmu? Ro'zimuhammad yana siperishladi:

- Sizga qo'sha ko'rinnmasun, ogb'ay, aytgan mehmonlarimiz boy otaning o'zları. Bular togb'B oshib yurgan dovqur yo'l doshlarimiz. Siz boy otani uzatib qo'ysangiz bo'ldi.
- Eshon buvamizga... yetsa molumiz, yetmasa jonomiz nisor. Qanular, hazratumni tavof etub qo'yaluk, axur, - deb mezbon oqsoqlanib foytun tomon yuraberdi, - Allohumdi Ka'basinu tavof etgan hazratumni ko'ramuz-da yekan.
- Shoshmang, men hozir, - Ro'zimuhammad oldinga o'tib ilgariladi va avval bolani, so'ng boy otani ko'tarib olib, yerga qo'ydi. Mezbon bolani ko'rib, hayratlandi:

- Iiy, jujuqlara varmu? Buytib davan asharlarmu, Ro'zimuhammad?

Ro'zimuhammad javob qilib ulgurmadi. Bolakay uch quloch naridagi narsani zo'rgb'Bash mumkin bo'lgan bu kechada yelkasi ko'tarilib-tushib kelayotgan odamni ovoziyu yurishidan tanigan edi, turgan yeridan irgb'Bishlaboq unga otildi:

- Bu biz-ku, tabib amaki! Anuv kungi mehmonlariz!..

Uch yonini bahaybat togb'Bilar o'rav barcha qorongb'Bilikni shu yerga qamaganday, teppasida jindek yulduzlargina jimirlab ko'rinyotgan bu togb'B tagida bolaning ovozi jaranglab ketdi. Togb'B havosi-da. Uning ovozi jomga urilganday jangillab chiqqan edi.

- Iy, sen kim? Qaysu me'monlar? - deb hayratlandi chorbogb'B egasi.

- Men-men, oyogb'bi chiqqan... bola-chi!

- Ha-a, yurabilmiy qaytamizlab yatgan saritay, senmu? - Togb'B qorovul bolakayni, uning hamrohlarini eslab bir yerga yetdi va engashib peshonasidan o'p-di, - Ketvatursizmu endu?

- Qayvtomiz-qaytvotmiz.

Xaloskorini topib olgan bolakay uning bagb'Briga singib ketgudek bo'lib yopisharkan, togb'B qoravulining engillaridan o'shandagidek bir ajoyib va allatovur islar gurkirar, ular togb'B archalari hidimi, unga qo'shilib ketgan ot sagb'Brisining terlarimi, ajratib bo'lmas edi. Otda togb'Bma-togb'B oshib yurguvchi bir oqsqoq odamdan bundan bo'lak yana qanday hidlar gurkirasin! Ustiga ustak togb'B gullaridan dorular qiladigan tabib bo'lsa.

- Uni qarangiz-a, Hoji buvamning me'monlari yekansiz-ku, o'zimizga tegisli yekansiz-ku, - deb u endi alpang-talpang yurgancha boy buva tomon oshiqdi va boriboq etaklariga yopishdi. - Xush kelupsiz, Eshon buva, xizmatizga jontar sadaqa.

O'zini togb'B oraligida ko'rib, o'rava tushib qolgandek dovdirab va qunishib turgan boy otaning ichiga bir ilinj-iliqlik yugurgandek bo'ldi: "Alloha shukr, Ruzimuhammad yomon odam topmagan ko'rindi. Bir chekkasi tabib, qolaversa, iymonlув ekan.

Ixlosiyam cheksiz. Oqchaga yollanganlar bunday bo'lmagay. O'ziga shukr, o'tib olishimiz oson kecharkan. Urinib-netib qolmaskanbiz".

Jindek umid ham qariyani tetiklantirar, jindek noxushlik esa, uni chohdan chohga solmoqda, bor holini ham sugb'Birib olmoqda edi. Dum bergen qovun shu-da. Safar kishilari shu-da. Jon qushi qachon puf etib uchib chiqib ketadi, inson o'zi-da bilmay qoluvi mumkin. Ayniqsa, u tengilar. Paygb'Bambarimiz sollallohu alayhi vasallam aytganlar-ku, bu yonimga salom berib turib, u yonimga salom berib ulguramanmiyo'qmi deb. Lekin uning Alloh taborak taolodan yolg'b'Biz o'tinchi ota yurt sarhadiga yetib olmoq - vatan ruxsoriga yetmoq. O'shal ma'vo havosidan emin-erkin bir qur nafas olsa, halovat tuyسا, qani edi! Bir oyogb'Bini u zaminga qo'yib, bir oyogb'Bini olib ulgurmasa ham rozi edi! O'sha qadamini qo'yib ulgurarmikan?..

- Yura qoligiz, eshon pochcham, safar oldidan yarim cho'mish, yarim cho'mish bir nima tamaddi etigiz. Bizning kulbaga-da Hizr qadamu yetsun. Texim duo bergaysiz.

- Yaxshi. Siz bizni siylabsiz, Alloh sizni siylasun.

Kirdilar. O'shal pastak, yolg'b'Biz derazasi bolaning bo'yidan oshmagan, eshididan ham engashib kirib borilgan qora chiroqli kulbada o'tirib, zarang tovoqda mezbon aytgandek, yarim cho'michdan et-sho'rvaga non to'gb'Birab ichdilar. U chindan o'sha hovlidagi tosh o'choqqa osilgan dekchada pishganmidi yo bo'lak joyda - ta'mi ogb'Bizda qoladigan, o'zi bu dunyoning taomi bo'limgan edi. Eti qay jonivornikiyu suvi qay buloqni ekan, mehmonlar dunyoga kelib bunday mazali yovgb'Bon ichmagan edilar. Alqay desalar qaytarib so'raganga o'xshab ketar, alqamasalar zarang kosani yalagulari kelaverar edi.

Dasturxonga fotiha o'qilib, bu kulbada ham musulmon dunyosining har chekkasidagidek, yer-joy egalari, o'tgan-ketganlar haqqi, duo umidida bo'lgan arvohlar haqqi ikki kalima qur'on tilovat qilindi. Alloh o'z panohiyu hifzu himoyasida saqlashini so'rab, turdilar.

Ro'zimuhammad shu yerga yetguncha ham kelishuv haqda ogb'Biz ochmagan edi, otlarga qayta egar urdirayotib yorildi:

- Boy ota, rozi bo'ling. Men Sizlarni shu odamga, u kishimi esa Alloha topshirdim. Ogb'Bam butun umri shu togb'Bda kechgan. Dovonning har bitta o'ru qiri, yolg'b'Bizoyoq so'qmoqlari, hatto arxar yurgich yerlari ma'lum bu kishiga. Qolaversa, dovondan birinchi odam olib o'tishlarimas. Sizga ixloslarini esa, ko'rdiz. Azonga qadar dovonga yetib chiqolsangiz, u yogb'Bi bir qadam - bomdodni vatan tuprogb'Bida o'qigaysizlar, - dedi u.

- Qani edi, - dedi Aka pochcha.

- Aytganingiz kelsin, - dedi Xudoyberdi.

- Qanday yaxshi, - dedi bolakay shu qorongb'Bi kechada irgb'Bishlab.

- Rahmat, Ro'zimuhammad, - deb qarolini, qaroli emas, go'yo farzandini quchib, ko'zlariga yosh oldi Mirzahoji.

Biroq hech kimning xayoliga inshaalloh degan so'z kelmasdi.

* * *

Ular to'rt otliq oldinma-ketin sel yo'li bilan bir-birlariga ergashib, baholi qudrat tepaga o'rlab borishar, oldinda togb'B qoravulining xachir oti, undan keyin tizgini yo'l boshlovching o'ng tirsagidan bir daqiqa ham bo'shalmay kelayotgan eng baquvvat to'riq ot - uning egariga yumshoq yostiq bogb'Bulanib, boy ota o'tkazilgan, o'zları bellariyu korsonlaridan o'sha otu egarga chirmab tashlangan hollaricha egar qoshini mahkam changallab borar, yonlarida otini yetaklagancha har ehtiyyot shart tizzalaridan ushlab, Xudoyberdi kelar, eng orqada Saritoyni mingashtirib (har zamon ketiga shapatilab qo'yadi, uxbab qolma deb) olgan hamsoyasi edi.

Pastda o'rik sargb'Baygani bilan bu yerkarni hali bahor o'z hukmiga olib ulgurmagan, ayamajuz shamollari huvillab yotar, kunduzi salgina erib jildiragan qor suvlari qaytadan tiygb'Bonchiq muzga aylanib, ot oyoqlari ostida goh qirsillab sinib, mayda-mayda bo'lib ketar, goh otni ham tiygb'Bontirib, munkitay der edi.

Sovuq yuzni yalab, barmoqlarga so'zak kiritib borar, ular hech narsani sezmas bir holga kelgan edilar. Ogb'Bizdan chiqayotgan

hovur-ku hech qancha o'tmay soqol-murtlarda oq qirovga aylanib qolyapti. Go'yo hammaning soqoli bir kechada oqarib chiqqandek. Bular shunchalik, Hoji buvaning holi ne kechdiykin?..

Chindan to'n ustidan chakmonga o'ralib olgan Hojibuvaning oyoq-qo'llaridan allaqachon muz o'tib, chivindek joni tanining qay burjiga qochishni bilmas, butun vujudi titrab-qaltirmoqqa tushgan edi.

Dovonga qancha qolgan, otlar tuyogb'Thi ostida shigb'Tirlagan bu yax-muz, bu qum-tosh qachon tugaydi, qachongacha bu otlar kuchanib-pishqirib o'rlaydi? Yuzni kesib, teskari qilib yuborgudek bu izgb'Thirin qachon to'xtab tinadi, qachon bir panaroq joyga tushiladi? Qachon jonni qo'shib yalab ketgudek bu sovuq, bu yalandlik tugaydi, qachon pastlay boshlashadi, bilib bo'lса, o'lsin agar. Har shamol huvillab o'tganda bir gb'Thalati, tanish ovoz yangrab ketadi: ulardan hurkib "qiv-qiv-qiv"lagan bir qush uchib ketadiyu yana qaergadir qo'nib olib, chaqirmaqqa boshlaydi: huq, huq, huq... Xuddi anavi kungidek, o'z qo'rgb'lonida eshitganidek. Shu sovuq kechada unga nima bor ekan? U-ku yurtiga, ota tuprogb'Tiga yetib olish uchun chidab boryapti, ukkiga nima zarur? Yoki aslida hech narsa yo'gb'bu unga shunday tuyulmoqdam? Xayoliga shunday o'rnashib qolib, ta'qib etib borayotirmi? Nega? Shaytonni quvib solmoq mumkin - duo-si bor. Duosini o'qisangiz orqasidan yel chiqarib qirq gaz nari qochgay. G'am-musibatni qaytarmoq mumkin. "Hasbiyallohu"ni o'qigaysiz. Lekin bu boyqushni, izma-iz ta'qib etib kelayotgan tun qushini qanday haydamoq mumkin? Shunga kelganda... eshitmagan ekan. Eshitgan bo'lса ham... yodiga tushmayapti hech. Har narsaga yetgan ilmi shunga kelganda oqsamoqda. Bunga sari ich-ichidan bir qaltiroq turib, so'ng o'sha qaltiroq- qa qo'shilib, vujud-vujudini xunuk bir gb'Tashlik kemirib bormoqdaki, o'zi ayozda qolgan bargdek, xa- zon yangligb'Titraydi. To'ngib qolgan qo'llari egar qoshidami yo tagidagi ot nogoh munkib ketsayoq o'mbaloq oshib ketadimi, bilolmay halak. Nazarida nuql omonat bir narsaga o'xshab ketyapti. Balki Xudoyberdining otini atab chaqirmaq lozimdir? Nega uning tizzasidan tutib kelayotgan qo'l... yo'qolib-yo'qolib qolmoqda?

G'uj-gb'Taj, gb'Taj-gb'Tuj, chirs-mirs, mirs-chirs - otlar goh qordan, goh muzdan bormoqdalar.

Gup, gup, gup - mushtdek yuragi bo'gb'Tziga tiqilib keladi negadir.

Huq, huq, huq - sayrashini qo'ymaydi o'sha tungi qush. U goh orqada qolib ketadi. Goh bu yonga, goh u yonga o'tib oladi. Huq, huq, huq... Mana hozir o'ng yonidan kelmoqda bu savil ovoz.

Ergashgani-ku mayli, lekin oldilariga o'tib olmasa bo'lGANI. Sarhaddan o'tib, ota tuproqqa yetib olgunlaricha qo'yib bersa bo'lGANI. Qo'yib berarmikan?

Nima kerak unga? Nimani chaqirib qo'ymayapti? Ko'ksida potirlab, bo'gb'Tziga tiqilayotgan narsanimi? Jon qushini-ya?

Alloh asrasin. Tong oqarmay, Allohnning farzini ado etmay turib, qadami ota tuproqqa tegmay turib beradimi jon... qushini?

Yetdim deganda yiqiladimi? Yurt nafasi kelmay turib, nima bo'lyapti? Jilla qursa, jilla qursa, tong yorishsin. Azon aytilsin.

Bomdod vaqtı kirsin. So'nggi namozni o'tab turib, ota tuproqqa o'ng yoni bilan yiqilsa ham mayli. "La ilaha illalloh"ni aytib ulgirib. Shungacha qo'yib ber, ey karamli Allahim. O'zingdan muhlat so'rayman. Jilla qursa, yetib boray sarhadga, o'shal muqaddas tuproqqa. Uning bo'yalariga, nasimlariga. Jilla qursa, shovurini eshitay u diyorning. Tuyay bo'yalarini. Bomdodga qadar qo'yib ber O'zing.

Dor tagidagilarga-da ikki rakat namoz o'tamoqqa ruxsat etgaylor. Ikki kalima Qur'on tilovat qilmoqqa izn bergaylar. Hatto podshohlar ham. Sen ikki olam molikisan, podshohlarning podshohi. Karami keng zotsan. Bomdodning ikki rakat farzini ado etmoqqa, so'nggi bor o'zingga sajda etmoqqa izn ber. Majol ber, mador ber, muhlat, kuch-quvvat ber, ey mehribonlarning mehribonrob'Thi. Quvgb'Tindi qulingni gunohlarini afv et, ko'z ochib ko'rgan yurt tuproqgb'Tiga bosh qo'ymoqqa ijozat et. Jilla qursa, balandroq yerdan nasib et: o'zimiz yetolmaganimiz yetolmagan, yurt nasimlari mozorimiz uzra esib tursin, yetib tursin vatan bo'yalar...

Keyin Mahfuzasini chaqiribmi, bedarak ketgan kuyovini chaqiribmi, alahlay boshladi:

- Kuyovto'ra, men Sizga ishonib edim. Boturlar ahli ayollarini, vatanlarini deb yashamaslarmi?

Holdan toygan Xudoyberdi sergak tortdi. Hoji otaning oyoqlariga yopishib-etib yurishga oshiqdi.

- Hoji ota, oz qoldi, sabr eting, - deb dalda bermoqqa urindi. - Men yoningizdaman, shu yerda- man.

Tun qushi endi chap yoniga o'tib olgan, ovozi oldinroqdan kelmoqda edi negadir:

- Huq, huq, huq...

Tuyooq ovozlari ham ayqashib-uyqashib ketayotir: "chirs-mirs, mirs-chirs, gb'Taj-gb'Tuj"...

Nimalar bo'lyapti? Ko'z oldiga kimlar kelib olyapti? Eng yaqinlari, jigarlari-ku. Sogb'linib yo'qotganlari, yo'qotib topmaganlariku! Mahfuzasi-ku!

- Ona qizim, opoq qizim, meni kechirib qo'y. Senga javr ettim.

Xudoyberdi qo'rqib ketdi. Jon holatda boy buvaning oyoqlariga yopishib, tizzalariga shappaladi:

- Hoji buva! Boy ota! Sizga ne bo'ldi? Qo'rqtamang bunday! Yo to'xtaylukmi?

Uning shovqiniga togb'T qorovuli ot tizginini tortib, orqasiga o'girildi:

- Ne bo'ldu?

Boshqa otlar ham pishqirib-pishqirib to'xtadilar. Aftidan ular ham holdan toygan, burun ustlari oqarib ko'rinar edi.

- Taqsirimming toblari qochdi shekilli, alahlayaptilar, - U nima qilamiz, degandek tikildi.

- Ayoq-qo'lدارи uqalab baqungchu, zora beru qarasalar... Yetub qolduk.

- Qaranglar, usqlar ham yorishib kelyapti. O'lмаган qulni tongga yetkazar, - dedi orqadagi hamsoyalari. Tizzasidagi bola endi uning ko'ksiga bosh qo'yib, dong qotgan, uyqu sovuqni ham yenggan edi.

Xudoyberdi otning hali u tomoniga, hali bu tomoniga o'tib, boshsiz chavandozdek o'tirgan qariyani (ortidan shunday ko'rinar, boshi oldga tushib ketgan edi) hali qo'llarini, hali oyoqlarini jon holatda uqalab qaro terga tushgan, uni o'ziga keltirolmas edi.

Bir muddat o'tib qariyaga jon bitib, u yo'qlik-borlik orasidan bu dunyoga qaytgandek, boshini bazo'r ko'tardi. Birinchi so'zi:

- "Allohga shukr, bomdodga ham yetibmiz", - bo'ldi. So'ng atrofiga alanglab kimnidir izladi. Topib so'radi:

- Xudoyberdi, azon chaqirdingizmi?

Xudoyberdi borlik-yo'qlik orasiga tushib kalovlandi, so'ng rostiga ko'cha qoldi:

- Yo'q, boy buva, xudo xohlasa, endi chaqiramiz. Picha bor, sahar kirishiga.

- Shundaymi? - dedi chol.

- Bu halu yolg'b'on subh, chin subh - subhi soduqqa jichcha bor. Biroz yura turaylukmidi, - dedi togb'T qorovul ham.

- Ixtiyor Sizda, - dedi qariya, - lekin yo'l deb... bizni namozdan judo etmagaysiz?

Togb'T qorovuli umrida birinchi marta gb'Talati tortib ketdi. O'zini bu avliyodek odamning oldida haqirdan-haqir tuyib,

qimirlashga-da, yo'l boshlashga-da ojiz sezdi.

So'ng uzrini bildirib:

- Jindek yursak, sarhaddan o'tib o'qirdik, - dedi.

- Sarhad?!

Eshon buvaning og'bzidan uchgan so'nggi so'z shu bo'ldi. Uning vatan ilinjida ado bo'lgan yuragi xushxabarni ko'tarolmagan edi. Jon qushi o'sha so'z ila qo'shilib, chiqib ketib bo'lgan, boshi ko'ksiga shilq etib tushgan edi.

Boyqush ham chaqirmas, otlar ham jim edilar.

Sarhad tomondan yolgb'bz azon tovshi eshitilar edi.

Hojimni shosha-pisha egardan yechib olib, tekis bir joyga oyogs'bini qibлага qaratib yotqizdilar. Va nima qilmoq haqida maslahatga o'tirgan joylarida qibla tarafdan aniq tilovat ovozi kela boshladi. Hammalari hayratda qotib qoldilar.

Ko'rinmas qori Fajr surasini yakunlab o'qir edi:

- Yaa ayyatuxannafsul mutumainnax! Irujii ilaa robbiki roziyatamaruziyax. Fad xulii fii ibaadii vad xulii jannatii. Ma'nosi bunday edi: "Ey qaror va orom topgan jon. Qaytgil Parvardigoring tarafiga rozi bo'lgan va rozi bo'lingan holda. Va dohil bo'l bandalarim oralariga va dohil bo'l jannatimga".

Uni farishtalar o'qirmidilar, inslarmi - hech kim bilolmadni.

Hoji Buvadan Yodgor Sovgb'bzalar

Hikoyachimizga ma'lum qissaning davomiga

Ruhim judayam yengil, qushday uchib ketsam-da, mumkin edi. Axir, hazilmi! Men odam siyoqidan chiqarib qo'ygan Parpi bebaxtni (yana qay ahvolda!) topgan, akamning omonatini yetkazgan va niroyat Yakkabogzb'da oxirgi vaqlarda akamning nomidan ish ko'rib yurgan sirli kishilarni bugun o'z ko'zim ila (men ehson berilgan xonadonda movut chakmon kiyib xizmat etgan kishilarni aytmoqdamman) ko'rgan edim.

Nasibni qarang. Bu voqeaga mengina emas, Olim akam ham shohid bo'lib qolgan, uning-da hayrati cheksiz edi. Pochcha aytmoqchi, Olloh chindan ham chevar, qudratluv zot. Bo'lmasa, kim ishonadi Parpi bebaxtning bir vaqtgi yigitlari hali ham uning xizmatida ekan degan gapga?! Yana qanday xizmatki, eshitgan faqat havas qilmogs'b'i mumkin. Xayr-xo'shlashib qaytayapmiz-ku hali-hozirgina ko'rgan-eshitganlarimiz ko'z oldimizdan ketmas, uning taassurotidan chiqolmas edik.

- Voh, bizga shuni ilingan edingizmi?! Rahmat Sizga! - dedim old o'rindiqa o'tirgan pochchaga.

Hamon burnilariniyu unga qo'shib soqollarini mammun-mammun silab-siypab qo'yayotgan pochcha xumdek boshlarini orqaga tashlab, ko'zlar qirila menga qarab qo'yib, jilmaydilar:

- Hidoyat degani shu, bo'tam. Agar ko'r hidoyat topsa, o'n sakkiz ming olamni ko'ra boshlaydi. Kar rahmat topsa-chi, jami mavjudotning tasbehotini tinglay boshlaydi. Bular bosh-ko'zi butun odamlar-ku.

- Harqalay, g'b'halati-da, - dedi Olim akam yo'ldan ko'zini uzmay va meni quvvatlab. So'ng qo'shdi. - Hammasidan anuv odamning bularni izzatlab kelgani-chi. Boshqalar oyogs'bining tagiga qo'y so'ysa bormas.

- Ha-a, Hoziq to'ramni aytasanmi? Ma'ruzalariga to'ymay qoldik-da, to'ymay. Bir yerga shoshib turgan ekanlar. Uzrlarini eshitib, javob berdik tagb'zinam.

- Uzrlari? - dedim men hayron qolib.

Nusrat pochcha tushuntirdilar:

- Bir musofirgina shifoxonaga tushib qolgan ekan, shunga javob tegadirgan ekan.

Yuragim shigb'bz etdi. Yalt etib qaradim u kishiga:

- Musofirmi, musofirginami? - deb qaytarib so'radim.

- Kelin ekan, shekilli, jujugb'bz ham bormish. Olib bormasam bo'lmas, dedilar.

Voh! Peshonamdan muzdek ter chiqib ketdi. Ana, xolos! O'sha bo'lsa, biz nima degan odam bo'ldik?! Ikki birdek qaynisi turib, u kishi borsalar - uyat- ku! Nahot xabarsiz qoldik? Balki biz chiqib ketgach, orqamizdan qo'ngb'ziroq bo'lgandir. Topisha olmayotgandir?

Birpasda ne xayollarga borib keldim. Lekin yonimdagilarga churq etib, og'bziz ocholmasdim.

Balki umasdir, Kennoyim men qolib, u kishiga aytmasa kerak edi? Yana kim biladi, deysiz.

Bu orada mashina g'b'bz etib, pochchanikiga yetib borgan edik. Tusha boshladik. Men aytolmayman, pochcha qistashlarini qo'ymaydilar. Ichimni esa it tatalab boryapti.

- Sho'tga kelib kirmasang, xolang nima deydi? Xafa bo'ladi-ku.

Xafa bo'lishlari aniq. Lekin...

- Yedik-ichdik. O'zlarini ko'rdir, - dedim, qani javob bera qolsalar.

Axiyri:

- Hoy, Sanobar, bularing bilan o'zing gaplash, - deb ichkari qarab yuraverdilar. U kishi hassalarini zardaliroq tashlab borardilar.

Qarasak, chindan xafa bo'lyaptilar, noiloj ergashdik.

- Yo'q-yo'q, mana, kelyapmiz...

- Ha, bu boshqa gap. Qutlugb'bz uydan bir piyola choysiz ketib bo'ladimi? Qolaversa, biz ham g'b'zanimat.

Qarasam, tushuntirib bo'lmaydigan:

- Unday bo'lsa, men uyga bitta qo'ngb'ziroq qilib olay. Harqalay-da, qidirib yotgan bo'lishmasin, - dedim.

- Yaxshi-yaxshi. Ana, derazada turibdi, beminnat,- dedilar u kishi.

O'sha gapni eshitganimdan beri yuragim hapriqadi. Nazarimda qidirib topisholmayotgandek. Axiyri numerimizga tushdim, uni ayolim ko'tardi.

- Saida, men...

- Voy, adasi-ey, qaerlarda yurasiz-ey.

Xuddi yuragim sezganidek edi, tavba.

- Tinchlikmi? Aytsang-aytaqolmaysanmi? - dedim ichim g'b'zurmishlab.

- Axir kennoyiz chiqishlari kerak ekan-ku bugun. Siz bo'lsangiz...

- Kim aytди? Qachon aytishdi?

- Sizlardan keyinoq, ketishlaringiz bilan...

U yogb ini eshitib o'tirmayoq javob qildim:

- Yaxshi, biz jo'nayapmiz. Unasalar obboraman, bo'lmasa, kutma, - dedimu go'shakni tashlab qayril-dim.
- Ular anjirning tagidagi pastak yogb och supaga o'tirib, fotiha qilishayotgan ekan. Borib men ham qo'shildim.
- Ha, tinchlikmi? - dedilar xolam yuzlariga fotiha tortib bo'liboq.
- U yoqdan kelgan keliniz, - dedim men.
- Qaysi? Akangga tegishli anuv musofirginami? Daragi chiqdimi, qaerdan chiqqa qoldi? - deb bir yerga yetib so'ray ketdilar.
- Shifoxonaga tushib qolgan ekan, bugun chiqadi ekan, aybga buyurmaysizlar, - dedim men o'nimdan qo'zgb ola boshlab.
- Voy, umi? O'sha mushfiqa kelinuvza-ya? Kelavurmaydimi bu yoqqqa? Boshuvzaga ko'tarovza-ku.
- Bor, bolam. Bora qolinglar. Ko'ngli yarimtaning ko'nglini olaqolinglar. Unasa, olib kelinglar. Akaginangning ahli ayoli, - deb pochchaning o'zlar du oqilib, tura boshladilar.

Faqat Olim akam o'ziga kela olmas edi: hozirgina ichkariga qistab qo'ymayotgan odamlar kennoyimning daragini eshitiboq, bundoq o'zgarib qolishlari chindanam g halati va tushunarsiz edi unga.

- Yuraqoling, "Volva"ngiz shu bugun asqotmasa, qachon asqotadi? Qolaversa, kennoyim bizni ko'rib, akamni ko'rgandek bo'ladi, - dedim men.

Jo'nadik. Shundan keyingina Olim akamning savol qutisi ochilib ketdi. Ungacha pochchanikida iymanib turgan ekan.

Men hamma-hammasini - bizning yurtga qanday kelib qolganiyu avval pochchaning shahar hovlilarida, so'ng biznikida turganidan tortib, Akmal cho'loqning dalaga chiqasan, deb qilgan qiyin-qistoqlari, chiqqach odam qo'yib o'ziga ilintirmoqchi bo'lganlarigacha, unamagach tuhmat yo'liga o'tganlarigacha va bu tuhmat, gap-so'zlarga chidolmagan kennoyijonim (men buni keyin bildim-ku) bir tong shaharga tushib chiqaman deb ketgancha badar ketganlarini, biz hech yerdan topolmaganimizni aytib berdim. Oradan necha yil o'tib, Far-g onalarda ishlab kelgach, bir ajoyib kunda, hech ham kutmaganimda, uni shifoxonadan topib olganimni, hozir bir shirin farzandi borligini aytidim. Ammo Chaman akam, akamning o'sha qiyomatli do'sti haqida esa, og biz ochmadim. Qanday tushunadi deb aytmadim. Qolaversa, bu tarix haqida Chaman akamning omonat gapidan bo'lak nimaniyam bilaman?!

Olim akam hiyla jim qoldi. Shunaqa so'nikib ketganki, nazarimda hali-veri og biz ochib bir nima deya-oladigan holda emasdi. Chekkalariga oq oralab, o'zi sal to'lishib, peshonasiga bevaqt ajinlar tusha boshlagan bu xolavachcham yo'ldan ko'zini uzmay ketayotgan bo'lسا-da, xayoli allaqayoqlarda kezar edi.

To'zib ketgan xonadonlarini o'ylayaptimi, shu vaqtga qadar bir boshpana, bir qurg on qurib, odamlardek vatan tutolmaganlarini, boshlarini qovushtiradigan, qayishadigan bir mardi xudo topilmaganini o'ylab ketganmi, bilmayman. U yogb i menga qorong i. Balki o'z oilasi, taqdirini, bilagida kuchi, tomirida shijoat bor paytda, mo'may-mo'may topib yurgan kezlarida kerak qilib, endi ro'shnolik ko'rarmiz degan mahalida tashlab ketgan sariqsoch xotinini, bolalarini eslab ketgandir! O'zingniki - o'zaging deydilar, kim begonadan oqibat topibdiki, u topsin. Achinishga arzimaydi-yu, lekin shu yoshda so'qqabosh qolib, hammasini qayta boshdan boshlash ham osomas-da. Qolaversa, suyanadigan kimi bor? Yolgb iz jigarinining ahvoli bu. Ayolini yurtga jo'natgan joyda o'zi o'tolmay qolib ketgan. Kimga ham suyangay, kimga ham dardi-yuragini ochgay? Ichga yutishdan bo'lak qanday iloji bor?

Ammo ichga yutila-yutila zardobga aylangan u alamlar bir kun portlamasmi? Portlab adoi tamom etmasmi u yurakni?

Men uning mijjalarida nam ko'radigandek... betiga qaray olmasdim. Shunchalik bir ahvoldaman. Ogb iz ochgali, ochib - dardini yangilab qo'ygali qo'rqib turibman.

U og bir xo'rsinib, tomoq qirdi:

- Eshiddim, akam bu yoqqa o'tolmasliginiyam, o'tib kelgan kuniyoq olib borib, tiqib qo'yishlariniyam. Lekin ojizasi - ayolida nima gunoh? U boyaqishning boshiga shunday kunlarni soldilarmi hali? Bilib turib-a? Shoshmay tursin, o'sha Akmal cho'log ing!..

- Boya ko'rganiz - movut chakmonlilarning kattasi unga hukm chiqarib qo'yanmish, - dedim men.

Olim akam yalt etib o'girildi va bunga ham qoniqmay mashinasini yo'l chetiga chiqarib to'xtatdi:

- Kim?! O'sha Parpi-ya?.. Nima deb?

- Shariat bo'yicha hukm qilib, ijrosini akamga qoldirganmish. O'zi kelib, o'zi ijro etadi deganmish.

Akam yoqa ushladi.

- Kelishini... qaerdan eshitibdi? Qaerdan bilarkan? - dedi hayrati ichiga sigb may.

Men yelka qisdim:

- Bilmasam. Bir narsani bilsa kerakki... ma'lum bo'lسا kerakki...

U og bir-og bir bosh to'lgb adi:

- Qani edi kelolsa, kelolmaydi.

Endi mening ichim toshdi:

- Nega? Nega unday deyapsiz? Akamga nima bo'lgan?

U bo'shashib qo'l siltadi, betimga qaramay bosh chayqadi.

- So'rama. So'ramayam, quydirmayam, - dedi ovozi o'zgarib.

Men yosh boladek yelkasiga yopishdim:

- Rostingizni aytинг, Olim aka. Unga nima bo'lgan? O'zi biron narsa bilasizmi?

- Yigitlari bilan qo'l yetmas muztogg ga chiqib ketgan ekanmish. Olti oy deganda uch kishi qaytib tushibdi. Boshqa hech qanday ma'lumot yo'q.

- O'sha uch kishi-chi, kim ekan?

- Ularni ham xorijga - Peshovargami, qayoqqa - o'tkazib yuborishgan. izini topolmabdilar.

Ichimni bir narsa tatalab, g turmishlab yotibdi, lekin so'ray olmayman. Chaman akam-chi, u kimni qidirib ketgan? Axir akangni daragi chiqdi, deb ketgan edi-ku... deya olmayman. O'zi u haqda aytmaguncha og biz ocholmayapman.

Hammani qo'yib akam, Sultonmurod akam taslim bo'lmasligini, joni shirin ko'rinib tog dan tushib kelmasligini bilsam-da, bir narsa deya olmay turibman. Shu alpozda Sizdan lozim emasmidi, jigarining qutqarish, uning uchun avf so'rash degim bor-u, tilim aylanmayapti.

- Nima, u haliyam qidiruvdami? Gunohi shunchalik kechirilmasmi?- dedim axiyri bo'g bzimga bir nimalar tiqilib kelib. Aftidan qaynoq yig bi avval bo'g bzimga tiqilib, so'ng ko'zlarimdan toshib chiqmoqda edi.

- Gunohiki, - dedi akam aftimga qaray olmay. O'zi mendan battaroq bir ahvolda shekilli, - ular odam bolasi jur'at etmaydigan bir ishga jazm etib, chegaradan o'tib kelganlar va To'ramni o'g b irlab ketishga harakat qilganlar. Tagb inam baxtiga bu kishi rozi

bo'limgan, gb'tisht qolipdan ko'chib bo'lidi deb...

- E-ha, - dedim men tamomi o'zgarib va akamgilarning jur'atiga besh ketib. - Rejasining zo'rligini ko'ring. Odam bolasining tushiga kirmaydigan ish-ku!

- Shuni aytaman-da. Sherning og'buziga qo'l tiqib, baraka topib bularkanmi?! Tagbuzinam Xudo bir asrabdi, - dedi u. - Davlat bilan o'ynashib bo'larkanmi!..

- Bular-chi? - dedim men gb'tashim kelib.

- Nima bular? - dedi u anglab-anglamay.

- Bular butun boshli bir lashkarni bosh siz qilib, u kishini o'gbuzirlab kelishganda... ularni ham tushunsa bo'lar?

Olim akam shu men bilgan Salomxolamning o'gbuzlimi, degandek boshdan-oyog'buzimga angrayib qaradi, ammo tili na kalimaga, na gapga kelardi.

- Sen bilishimcha, tuppa-tuzuk idorada ishlaysan. Ammo tilingni bunaqa qo'yib yuboraverma. Birdamas- birda kuyib qolmagin, tagbuzin, - dedi xotirjam tortib.

Ichim shuv etdi, yuragim bejo tepardi. Odamiga uchrabman-ku toza, deb o'yladim.

U mashinasini qo'zgbuzotib, yo'lga soldi. Oraga gap sigbuzmay jim bora boshladik. Qayoqdan ham gap ochdim deb pushmonda edim. Ammo o'zi ancha jim borib, so'ng nasihatga tushdi:

- Sen meni to'gbuzri tushun. Akam, jigarim uchun mening jonim achimaydimi?!- dedi u. - Achiydi, lekin bir mening qo'limdan nima keladi? U o'zini toshqin bir daryoga otgan odam. Undan yo gb'holib, yo magbuzlib bo'lib chiqishgina mumkin, xolos. Bo'lak yo'l yo'q. Men esam, yolgbuzizman. Uning ustiga bu borada nochor-notavon bir kimsaman. Jilla qursa, dadamizning duolarini olib qoldim, u kishining vasiyatlarini ado etib ulgursam ham. Akamga yetish... unday bo'lish... menga yo'l bo'lsin!

- Nimalar deyapsiz? - Men azbaroyi shu tomonga o'girilib olgan edim,- Adangizni topib, u kishining xizmatlarini qilib qolishdan hayiqmagan odam - shu gaplarni siz aytayapsizmi? Akangizga kelganda shundaymi?!- deb yuboribman.

U nochordan-nochor, xijolatlarga botib betimga qaradi:

- Nima desam, senga qanday tushuntirsam? Otamiz uchun men nima ham qilibman?! Asli u kishining duolariga boshqa birov loyiqliq, bilsang. Hov Cho'lpon otada biz ko'rgani borgan odam bor-ku - o'sha! U otamizga hech kim qilmaydigan bir yaxshilikni qilib qo'ygan odam. Bilmagan bir kitob jinnisi, sutchi odam-da deydi. Lekin aslida topadiganini topib qo'ygan - oxirati go'zal odam. Savob topaman degan kishi hamma yerda topsa bo'larkan. O'sha kishi tufayli otamiz umrlarining oxirida o'sha togbzul ortidagi mamlakatda jindek ro'shnolik ko'rib, toat-ibodatda o'tib ketdilar. Taqdir ekan, men biroz xizmatlarini qilib qoldim, xolos.

- "Bu yoqdagilar bilisharmidi", - deb so'ragim bor-u, boyagi gapdan keyin... tilim kuyib aylanmayapti. Ammo u qarashimdanmi, turishimdanmi sezib, o'zi dedi:

- Ming shukr, bilishsa-da, bilmaganga olishdi. Qolaversa, bizda ham insonlar ishlaydi, insongarchilikni biladiganlar ishlaydi. Barchasi sadoqat deb vijdoniyu imonini yutib yuborganmas. Ularning ham tomirida temir emas, qon oqadi, ukam!

Men tilimni tishlab qolgan edim. Ammo dilimdan:

- "Ishqilib, arqonni uzun tashlab qo'yishgan emasmi?" - degan ishtiboh o'taverar edi. Axiyri aytdim:

- Yo'q, - dedi u qat'iy qilib, - umrini yashab bo'lgan bir odam uchun unchalikka bormaydilar. Tegsalar o'sha yangiligidagi tegar edilar. Endi bu eski narsa, - dedi u.

- Akangiz uchun-chi,- dedim endi har qanday istiholalarini yigbzishtirib qo'yib. - Agar u kishi uchun javob berish kerak bo'lib qolsa-chi? Nima qilasiz?

U menga qarab turib, noilojlikdan desam to'gbuzri bo'lmas, alam-achchigbzini yutolgan odamdek... kulib yubordi:

- O'sibsan, Maqsud, o'sibsan. Senga gap yo'q. Shu turishingda akamga tortibsan. Ilohim, umring o'xshamasin, - dedi va mungbzayib qoldi. Men unga achiniblar ketdim.

Shu mahal qarshidan kelayotgan bir mashinaning ichidan sochlari shamolda patila-patila to'zgbuzigan bir bolakayning:

- Aya, unu qarang - dodamoshina! - deb qichqirgani eshitildi va shu barobar ikkimiz ham gb'uvillab o'tib ketdik. Ovoz tanish edi - yuragimni o'rtab o'tdiyu yalt etib qarasam, bolakay ham bizdan ko'zini uzmay jajji qo'llari-la mashinani tapillatib - to'xtatinglab boryapti.

O'tib ketgan shofyor nima ekan deb mashinasini chetga ola boshladи. Shundagina uni tanish eski "Pobeda" edi. Men ham Olim akamga "to'xtang-to'xtang"ga tushib, orqaga tislantirib borsak, qay ko'z bilan ko'raylikki, boyagi mashinadan irgbuzishlagudek bo'lib Yodgurmurod tushib kelyapti.

- Kichkina ada! Maqsud amaq! - U chopka kelib, o'zini quchogbzimga otdi. - Men siznu qancha kuttum - bormaduz-ku?..

Men avvaliga serrayib qolgan edim, so'ng gb'talati bo'lib ketdim. Chindan xabar ololmadim. Lekin "kichkina adasi" nimasi? Buni qaerdan topdi? Kim o'rgata qoldi?

Cho'nqaydim. Mitti peshonasini, unga osilib tushgan qo'ngbziroq sochlarni silay boshladim:

- Shunaqa sogbzbinib kettingmi?

- Judayam.

- Qaysi ko'zlarining ila? - dedim faqat o'zimizga xos tilda yana o'sha o'zimizning so'z o'yinimizni boshlab. Negadir hozir men shuni istab qolgan, o'zimni shunday chalgbzitmoqda edim.

U qiz bolanikidek uzun-uzun kipriklarini yumib:

- Har ikkalasula. Endu unday qilmaysuz-a?- dedi.

Men yo'q demoqchidek kiprik uchirdim. U esa bo'ynimiga yopishgan ko'yi bir irgbuzishladi va shu tob mashinaga ko'zi tushib, chalgbzidi.

- Sizlarnukimu bu dodamashina? - dedi hayratini ichiga sigbzdirolmay. - Siznu obyuradimu?

Shu payt boshqalar ham tusha boshlab, men bosh chayqadim.

- Sen tanib ol, bu mashina mana bu amaqingniki,- dedim qulogbziga shivirlab.

- Vuy. - U bir irgbuzishlab qo'ydi va Olim akamga yotsirabroq qaradi-yu, lekin salomini unutmadi, - Assalomu alaykum.

Olim akam demaganlar oldingi mashinadan tusha boshlagan ikki ayoldan qaybiri kennoyimiz ekanini bilolmay turarmidi, alikka dovdiradi.

- Va alaykum...

Bunga sari Yodgurmurod jajji mushtchalari bilan biqinimga turtar, bir narsalarni so'ramoqchi bo'lardi. Engashib qulogbzimni tutdim:

- Nima deysan?
 - Milisada ishluttimu bu odam? - deb shivirladi u.
 Bolaning zehniga qotib qopman!
 Lekin rostini aytib bo'larmidi unga:
 - Yo'q, sen qo'rhma. O'zimizning odam, - dedim va yana engashib qulogb>Toiga shivirladim. - Undan ko'ra, chop, ayangdan suyunchi ol. O'shaqdan qaytibdilar de.

U biz bilan kelinoyimiz o'tasidagi tarjumondek bir chiroyli yugurgiladi. U shunaqa shirintoy bo'lgan, gaplashib to'ymasdi odam. Va borib, ayasining etagiga yopishdi. Kennoyim - o'sha men bilgan Margb>Tohu kenno-yimdan zigb>Toircha ham farq qilmaydigan (na bo'y-bastda, na chirolda - Xudo qismagan, aksincha, bir tomchi suvdek qilib yaratgan) shu kennoyim ancha to'lishgan, suluv kelinlik davridan o'tib, suluv kelinoyilar qatoriga o'tgan edi. Tavbaki, yuzlarijadi jindek shifoxona nusxini demasa, birov uni qancha yotib, dard tortgan demasdi. Men Olim akamga sekin himo qildim: ko'rishmaysizmi?

U ham bosh silkidi: boshlay qol deya va qo'shib qo'ysi:

- Oldinda kim, to'ram o'tiribdilarni?
 - Ha, darvoqe... - Shundagina hijolatdan o'zimni qo'yarga joy topolmay qoldim. Kennoyimning oldiga birinchi bo'lib yelka tutib bora boshladim.
 - Assalomu alaykum, uzr, chiqishingizdan xabarsiz qopmiz.
 - Aytishdu-aytishdu, chiqib ketgan ekansiz. Hech qisu yo'q, hech qisu.

Men dadillandim:

- Tanishib qo'ying: bu kishi Olim akam... Akamning ukalari. Ko'rgani borayotuvdik...

U kelinlardek lov qizardi:

- Voy, shunaqamu?.. - Qulogb>Toining yumshogb>Toi takkinasidagi o'sha nori yuzlariga duv tarqadimi, yo yuzi o'sha rangga kirdimi - bilolmay ham qoldim. Axir u kelin bo'lib, mulla akasini endi ko'rmoqdaydi, ko'rinish bermoqdaydi. Buni ko'rmoq o'zi bir nash'ali edi va ham chin o'zbekona ediki, u go'zal udumlarimizni esga solmoqda edi. Odatda bunday paytda kelining kelinsalomiyu uni ko'rganning ko'rmanasi lozim bo'Iguchi edi. Biz esa, katta ko'chaning bir chekkasida na unisini, na bunisini uddalay olmagan sho'r peshonalardek bir gb>Tohalati alpozda turardik.

Yo'q, birinchi bo'lib kennoyim o'zimi tutib oldi va shu vaqtida rasm bo'lgan oq ro'molini peshonasidan sal tushirib, ikki uchidan tutgancha ta'zim ila salomga egildi.

Bundan mutaassir bo'lgan va dovdirab qolgan akam, bir qadam tisarilib, unga monand xiyol bosh egdi-yu:

- Ko'p yashang, - deya oldi.

Bu orada To'ra buva tusha boshladilar. Men yugurib borib qo'litiqlaridan oldim:

- Assalomu alaykum, Hoziq buva. Biz sizni urintirib qo'yibmiz-ku. Bilsak, ola kelarkamiz, - deb uzrimni ayta boshlab edim, u kishi tanib:

- Ie, Sizmi, xabarchi, bolam? Yodgortoyimizning akajonisiyu, bularning homiysi. Va alaykum, va alaykum. Nomizni hech tilidan qo'ymasa-ya. Ichikib qoladimi deb bir yerga yettuk.

Men esam bu maqtovlardan o'zim bir yerga yetib, ichim esa gb>Tururlarga to'lmoqda edi. Chindan Olloham karami keng zot - akamning yodgorini ana qaerda asramoqda ekan. Va shu barobar o'z vazifamni unutganim yo'q: axir, Olim akamni u kishiga tanitsam, eshitib qay ahvolga tushadilar ekan? Axir kim-kim lashkari safida ot surmoqni niyat qilib sarhad oshib borgan Boturining jigari...

Bu vaqt Olim akam u kishining huzurlarida salomga ogb>Toiz juftlab, qo'llarini olishga hozirlangancha turar ekan, Hoziq to'ra:

- Vaalaykum, keling, - dedilaru bu kim degandek menga qaradilar.

- Xolavachchamiz... O'zingiz bilgan Sultonmurod akamning tugb>Toishgan ukalari, - dedim mavridi o'zi kelayotganidan mutaassirlanib.

- Hay-hay, shundaymi? Bik yaxshi-bik yaxshi, - ular qaytib ko'rishdilar va Olim akamning yelkasiga qoqib, kuragini silab qo'yidilar. - Bizning Boturning shunday jigari bor ekan-ku, shu vaqtga qadar bilmabmiz? - So'ng azza-bazza kaft ochib, duo qildilar. - Ey Tangri taolo nasl-nasabli, tomirida musulmon qoni oqqan bu mujohidu mujovid bandalarining iymonini komil etib, hamisha o'z hifzu himoyangda asragin. Do'stga zor, dushmanha xor etmagil, iloho bir-birlariga muruvvatli etgil, u dunyoyu bu dunyo judolikka uchratmagil.

Omin deya biz ham Ollohdan ijobat so'rab, yuzlarga fotiha tortdik. O'tgan ham, ketgan ham bizga qarar, havaslanar edi.

Havaslansa arzigulik bir palla edi. Uning yana uzoqroq cho'zilishini istab, bir-birimiz ila so'rashib-istashardik.

- Qarang, shuncha yaqin, tanishu jigarlariz bor ekan, kelin, yolgb>Toizman deysiz. Alloh o'zi bandasini yolgb>Toiz qoldirmagay hech. Faqat toatidan begona qil-masin. Qani, jildikmi? Har kim o'z joyigami?- dedilar Hoziq to'ra va tobora mening pinjingga kirib borayotgan Yodgormurodni ko'rib, qo'shib qo'ysi- lar. - Sening iching tushmasin, mayli, dodamoshinga chiqaqol.

Oldinma-ketin jo'nadik. Old o'rindiqa turvolgan Yodgorning hali menga, hali Olim akamga yopishib, allanimalarni so'rabsurishtirishini, quvonchi ichiga sigb>To may ketayotganini ko'rsangiz edi.

To'ra buvaning dala hovlilaridagi qo'zichoqlariyu unga pechak yulib bergenlari bormi, Ko'kterakka borganlari, bedapoyalarda to'r sudrab, matrab tashlab, bedana ovlaganlari bormi, bari-barini aytib ado qilomasdi. Toza yayrabdi o'ziyam, onasini, bizni sogb>Toinib, ichikib qolmasin deb toza ko'ngliga qarabdilar. Men u kishini kitobdan bosh ko'tarmaydigan olim hisoblab edim, toza bolajon ekanlar. Yana onasini shifoxonadan olib chiqishga yetkazib borganlarini aytin. Yoki odam yaxshi qarisa, shunaqa zakiy, silai rahmga o'ch bo'lib qoladi ekanmi?

Eski Jo'vadan o'tib, pastlikdagi tor Qorasaroq ko'chasiga burilganimizda Olim akam men tomonga zingil tashlab, savolchan qaradi:

- Qayoqqa ketyapmiz, bozor-o'char qilib olsak bo'larmidi? Sho'ppayib... kirib bormaylik.

Yodgurmurod biyron jovulladi.

- Opoqbuvam ertalaboq oldurib qo'yan ekanlar-ku. Qaerga kiuvsiz?

Voh, bu masalada ham ortda qolibmiz-ku! Mehamonlardek kirib borarkanmiz-da yana? Esiz. Hamisha esimiz kech kirib yuradi. Biz bir-birimizga qarashdik. Xijolatdamizki, naryogs>Toi yo'q.

Qumloqqa yetib, Kalkovuz ko'prigidan o'tib qayrildik. Olim akam ro'parasidagi mitti ko'zgudan ajab-lanib qaradi. U aytqolsang-chi, qayoqqa boryapmiz demoqchi bo'lardi.

Men gapni uzoqdan boshlab:

- Eslasangiz, akamning Charli degan bir shaharlik oshnasi bo'lar edi, - dedim.

Akam hayratining zo'ridan, oyogb'ini tormozgami, nimaga bosib qo'yib, tortib oldi: "Volva" yengil selpinib, yana oqar suvdek jildi.

- Voh, bular o'shalarnikidan panoh topgan ekanmi? Chaman akanikidan-a?

Uning hayratining cheki yo'q edi.

- Ha-da, - dedim men, - qiyomatli oshnalar yana qanday bo'luvi kerak, sizningcha?!

U kinoyamni tushundi, ammo javob bera oladigan holda emasdi shekilli, miq etmadni. Shu orada yana Kalkovuzni kesib chiga boshladik. Oldindagi To'ra buvaning mashinalari Kalkovuz yoqasidagi kichkina Tolzor ko'chaga burila boshladi. Yodgurmurod yana o'rnidan turib olib, irgb'ishlashga va o'zining qanday zo'r mashinada kelayotganini orqamizdan chopgan o'rtoqlariga ko'z-ko'z qiluvga tushdi:

- Ur-re, opoqbuvimlarnikiga kelyapmuz.

Men patila-patila sochlarni silab tegishdim:

- Qaer yaxshi? Qa'ngb'Tlimi, opoqbuvanglarning dalalarimi, bu yermi?

U oq gurunchdek tishlarini ko'rsatib, jilmaydi:

- Hamusiyam.

Men bo'sh kelmadim:

- Yo'q, sen bittasini aytgin-da. Hammasidan yaxshirogb'ini...

U o'ylanib qolib, bosh to'lgb'adi:

- Yo'q, hamusiyam yaxshu. Keyin sogb'ünib qolsam, maylumi?

Qo'shilishib kuldik. Bu orada bor bo'yicha kuyib tushib, sho'ppayib qolgan daraxt ko'zga tashlanib, o'sha bir tavaqali, ostonasiga xarsang tosh yotqizilgan eshik oldida to'xtadir. Men bexos Olim akamga ko'zim tushib, qo'rqiб ketdim. U mashinasini to'xtatishga to'xtatgan-u, lekin turishni o'ylamay... o'sha kuygan daraxtga qadalib qarab qolgan, rangi quv o'chib borar edi.

- Ha, aka?- dedim bolani tushirib yuboriboa.

U o'ziga keldi:

- Yashin tushgan shunaqa daraxtni xo'v o'sha mamlakatdayam bir ko'rib edim. Bu yerda ham ko'rib... gb'balati bo'lib ketdim.

Buniyam... yashin qilganmi? - dedi u.

Men bosh chayqadim:

- Yo'q, buni odamlar yoqib yuborishgan.

- Ha-a, - dedi u zo'rgb'ha o'ziga kelib. Nimaga mengzadi, tushuna olmadim.

Tusha boshladik. Bungacha oldingi mashinadagilar tushib bo'lishgan:

- Qani-qani, toy bola, ichkariga xabar qilib, suyunchiga choping, bir yo'la shuncha mehmonni ko'rib, hayron qolishmasin, - deb turishar, bunga sari kennoyim xijolatlanib, ichkariga qistar edilar:

- Voy, shunchasi bormu, yuravuringlar, kelsanguz kimnu deb kepsuz?..

Ammo shu vaqt yolgb'iz tavaqa eshik shitob ochilib, ostonada ikki hovluqqan bolakay - ichkaridan chiqayotganiyu kirayotgani - to'qinib ketay degancha achenlashib qoldilar.

Oq yoqali ohorli ko'yak-shim kiyib, jajjigina yigitcha bo'lib olib, (bu albatta, To'ra buvaning ishlari shekilli!) ayasini opchiqishga borgan va olib kelayotgan Yodgor-ku o'zini qo'yarga joy topolmay ichkariga chopgan edi. Ammo mashina ovozini eshitib tashqariga yugurgan bolakayning hayratiyu yasan-tusani bundan zo'r, bir qarashda uni to'y bolami demoq mumkin edi!

Uning boshidagi ukparli do'ppisiyu, ustidagi zar to'nii, hatto oyoqchalaridagi etikchalari bu diyorniki emas, hov bizning bolalik yillarimizdag'i kabi rosa ixtimat-la tikilgan, po'rimdan po'rim, zar to'nii ning uqalariyu pistonlari undan-da yaltirab yonar edilar.

- Iy, Yodgor, voy qochqoq! Bormisan?! - dedi unisi - to'y bola.

- O'zuz qochqoq! Kelarkansiz-ku?! - dedi buni- si - toy bola.

Toy bilan to'y bola achenlashib chirmashib ketishgan, ukparli tikrogb'bi bunisini azza-bazza ko'tarib olib, chir aylantirar, yerga oyogb'ini qo'yar-qo'yemas, yana qaytadan quchib, yuzlarini yuzlariga suykar edi. Bu yoqda biz mutaassir:

- Ana, qanday sogb'ünishib qolishibdu!

- Ichikkanlari rost bo'lsin, topishganlari rost bo'lsin.

- Birpas qo'yib beringlar o'zlariga, - deymiz, kulamiz. Kulamiz-u, ko'zlarimizda yosh aylanib, bir gb'balati tortib boryapmiz.

Ular esa, biz kattalarni, nainki bizni, butun dunyonи unutib, yalashib-yulqashadi, allanimalarni so'rashib to'yishmaydi.

Toychogb'bu qo'zichoqlardek sakrab-irgb'ishlashadi:

- Rosttan qayttuzmu? - der edi Yodgor, o'zi uning bo'yninga osilib olib.

- Keldum-keldum, - deb ishontirmoqqa urinardi bunisi.

- Butunlay-a?

- Butunlay!

- Ur-re, chopdik, opoqbuvimlarga. Ayamam keluttilar! - deb yengidan tortqilay turib, birdan Yodgor to'xtab qoldi. Uning boshidagi ukparli do'ppisiyu zar to'nini endi ko'rayotgandek, bir qadam tisarilib tomosha qilmoqqa, yengining uqalarini ushlab silamoqqa boshladi. So'ng boshidagi ukpardon ko'z uzolmay:

- Zo'r-ku, - dedi, u yogb'ini esa so'ray olmasdi, balki xayoliga ham kelmasdir. To'y bola irgb'ishladi:

- Bilasanmi, buni qaerda kiydirishdi? O'sha yoqda kiydirishdi! Sening chin buvang, u yoqdagi buvang kiydirdilar. - So'ng sal bo'shashib, irgb'ishlashdan tiyilib, Yodgorning bilaklarini ushlab silkiladi. - Senga-da opkelayotgan edilar. Bundan-da zo'rini. Bilasanmi, o'zlarini kiydirmoqchi edilar. Ammo... yetib kelolmadilar... Dovon ogb'bir ekan.

Chap kuragimning tagida bir nima jiz achishib, tilib o'tdi.

Men bolani tanib ulgurgan, gap nima haqda bora-yotganini ham elas-elas anglayotgandek edim. U, adashmasam, o'sha Saritoy, Asal opaning yo'qolgan asrandisi edi.

O'gb'irlab olib ketishgan bo'lsa, uni Yodgurmurod deb o'ylashgan bo'lsa, qanday qaytdi, kim bilan qaytdi - kallamga sigb'hdilmasdim. Bu yoqda esa...

Bu yoqda bizni ichkariga qistay-qistay ostonaga borib qolgan kennoyim negadir birdan qalqib-tisarilib ketdi. Rangi quv o'chib bora boshlaganini ko'rib, o'qday otildim. U rangida rang golmagan, xushi boshidan uchib, qo'llari nimagadir talpingancha havoda

bir tayanch topmay, o'zi ogbrib bormoqda edi.

Kimdir "Voy, ushlang!", deb qichqirib yubordi. Menga qaerdan shuncha kuch kirib ketdi, buncha joyni qanday ikki hatlashda o'tib, kennoyijonimni tutib qoldim - o'zim bilmayman. Xudo asrayman desa shu ekan. U boshi bilagimda-yu, asta qaddini ko'tarib olyapman-u, yoshli ko'zlarini ochmay mungligib din-mungligib shivirlar edi:

- Dadajonum, dadajonum, shuning uchun tushlarumdan ketmay qolubmu ediz? Diydor qiyomatga qolibmu edu?..

Shu kuni chip-chip obi hayot eltib oqib yotgan o'sha Kalkovuz bo'yidagi tanish xonadonda kelinoyimning o'z diyoriga yetib kelolmagan padari buzrukvorlariga aza ochilib, qo'ni-qo'shni, tanish-bilishlar fotihaga kela boshladilar.

To'ra buva quyosh ogbrib, ufqqa bosh qo'yungunga qadar Qur'on tilovat qilib berib o'tirdilar.

U kishi goh "Yosin"dan, goh "Taborak"dan o'qib o'tirgan bo'lalar-da, axiyrida savobi ulugrib debmi, boshqa sababdanmi, "Moida" surasining oxirgi o'n oyatini yigriblab-yigriblab o'qidilar va uzoq duo qildilar. Nega, biz buning sirini hech tushunib yetmasdik. Tushunib yetishimizga necha qovun pishigbi va qancha sinoatlar bor, buni-da, bilmasdik.

Ikkinci kitob bitdi.

Rushdi Hidoyat

Uchinchi kitobdan ilk bob

Omonat (yoxud tangritogbidan panoh topgan mujohiddan mujdalar)

Kalkovuzdan - katta suv bo'yalarida bo'ladigandek, namxush yel esar, buloq hidlariga monand muanbar hidlar, suv o'tlarining tanish islari gurkirab-gurkirab ketar edi. Ana shu yellarga qo'shilib, tol soyasi shunaqangi xush yoqmoqda ediki, o'rnimdan jilgim kelmasdi.

Men, akam, shu ko'chalik bir necha qo'shnilar fotihaxonlikda hassakash bo'lib turibmiz. Ular orasida o'ng betidagi nozik noriyu qosh-ko'zları o'ziga yarashgan Chaman akam tengi bir yigit ham o'tiribdi. U Chaman akamning qiz o'rtogbi, mashhur shoir emish.

Allohning xohlashiyu chevarligini ko'ringki, bir kunda shuncha voqealarning shohidi bo'lib turibmiz. Bo'lmasa, kim o'yabdi, biz bu xonadonga xursandchilik olib kela turib, bunday alamli xabar ustidan chiqamiz deb?! Qolaversa, kennoyimning tuzalib chiquvi, uning jujugribi Yodgortoyning boshi osmonga yetib qaytuvi, shuning ustiga Akbarning osmondan tushgandek kirib keluvi - qay xursandchilikdan kam edi! To'yxonaga aylanib ketsa kerak bu xonadon devdim. Lekin qaerdadir ko'z tegib ulgurgan ekan.

Balki, o'sha yarim yo'lda uchrashib qolib, ko'rishib turganimizdayoq ko'z tegib, xursandchiligidim poyoniga yetib qolgan, bu xonadonga Saritoyning qaytuv shodligi bilan birga kennoyimga tegishli shum xabar ham yetib ulgurgan ekanmi! Chindan bu hayot quvonch va gbhamdan, shakkar va zaqqumdan, hayot va mamotdan iborat, qorishiq shekilli. Bo'lmasa, dovon oshganlar shunday kunda yetib keladilarmi? Kennoyimning aziz padari, uni bir ko'ray, nevaramni bagribrimga bosib armondan chiqay deb kela-yotgan Mirzahoji buva yetdim deganda yiqiladimi? Vatanlarini tashlab, diyorlaridan chiqarilganlarning o'z diyorlariga qaytmogrib yetmoqlari shunchalar dushvoru mushkul ekanmi? Yoxud Alloh o'z rahmatiga shu tariqa doxil etgay ekanmi?

Tagribinam inson boshi toshdan, o'zi tamomi bardoshdan yaralgan ekan.

Ostonada toy va to'y bolalar ko'rinishdi. Endi Yodgormurod ham Saritoya o'xshab yasanib olgan, akasidan bir qadam jilmas edi. Hoji buvaning ota yurtdagi nevarasiga atab olvolgan ko'rmana sovgribalarini avvaliga irim qilib kiydirishmay turib edilar. Keyin Hoziq buva urishib berdilar. Islomda irim yo'q, niyatni chiroyluv qilib kiydiraveringlar, buvasidan yodgor, o'sha kishining yoshlariga yetib yursin, ilohim, dedilar.

Ayollar Yodgorni kiyintirishga kiyintirib, o'zları yigriblab olishdi: zar to'n ham, do'ppiyu etikchalar ham - barcha-barchasi quyib qo'yandek edi, niyat xolis ekan-u, faqat ko'rish - o'zlariga nasib etmabdi. (Mahfuz kennoyim esa, o'ziga atalgan narsalarni ko'rish u yoqda tursun, tugunni yecholmayotgan emish. Ko'rdi deguncha o'zini tutolmay yigribiga berilardi).

Bolalar ham tabarruk deb yasantirib qo'yishgani bilan boyagidan ancha sipo tortib qolishgan, hech bir-birlaridan ajralmay ichkari bilan elchilik qilib turishardi. Mana, hozir ham Yodgor bilan Akbar o'tirgan joyimizga kelib, bir narsa demoqchidek yonimga yopishib, yelkamga suykaldi.

- Xo'sh? - dedim men qulogribimni tutib, Akbar qolib, Yodgormurod shivirladi:

- Siznu chaqirishoptu.

- Ichkaridami? - dedim yuragim jiz etib. - Kim, ayanglarmi?

- Yo'q, opoqbuvum.

- Ko'rinib ketarkansiz, - dedi Akbar-saritoy kattalardek.

Tushundim. Halidan beri so'rolmayotgan narsamni aytalar kerak. Qolaversa, o'zim ham ketolmasdim. Kennoyim tuzalib chiqib, bolalar topilgani bilan hali bu uyga xotirjamlik indi, hamma murod-maqsdiga yetdi degani emasdi. Oyo'ra buvining ko'ngillari hamon alabgribdayu, faqat buni birovga sezdirmaganday o'sha o'z uylarida, oq poshshoning davridan qolgan oq ruh karavotlarida (uning qubbalari hamon yarqirar, aslligidan sira qilt etmagan edi, tavba) o'sha-o'sha, oq-oppoq bo'lib o'tirar edilar. Ichlari mahzunu, tashlaridan bilintirgilari, birovga malol keltirgilari yo'q. Menga shunday tuyulayapti. Balki men u kishining dardidan jindek xabardor ekanligimdir bu.

- Yaxshi, - dedim toy bolalarga javob berib, ammo o'zim ichim qurib yotsa-da, o'rnimdan tura olmasdim. Harqalay ta'ziyali joy, oshiqmagan, hovliqmagan ma'qul. Yana so'ritok tagida o'tirishgan qariyalar oldidan o'tib borish lozim. Ayniqsa, Hoziq to'ramning salobatlari bosadi odamni. Choy yangilash bahonasida kirib bordim, alohal. Buvi intiq, yo'limga ko'z tikib o'tirgan ekanlar, karavotlarini gribijirlatib, jindek qo'zgribolmoqqa, tavozelanmoqqa harakat etib edilar, xijolatlarga botib ketdim:

- Urinmang-urinmang. Men mana shu yerga cho'ka qoldim. O'z uyimdek bo'lib qoldi-ku, axir, - deb deraza tagidagi ko'rpachaga cho'kkaladim.

Ammo u kishi qo'ymadilar:

- O'ting-o'ting, odam o'z qadrini bilmogribi kerak. Ayniqsa, erkak kishi, - deb qistay-qistay to'rga suriltirdilar. So'ngina duoga qo'l ochdilar:

- Iloho omin, ogrib kunda mazlumlaru yolgribizlarga esh bo'lgan ekansiz, sizni Ollo o'zi qo'llasin. Yaxshiyam Siz borakansiz. Akaginangizning hurmatidan bizga shuncha qayishdiz. Siz tufayli mana, bagribrimiz to'lib qoldi. Kennoyingiz tuzalib chiqib, bagribrimizga qaytdi. Saritoyim keldi.

Men battar xijolatlanib, yer suzdim, tizzalarimni uqalab, xush yoqayotgan maqtovdan o'zimni chalgbitmoqqa urindim.

- Avvalo Ollohning xohlashi.
 - O'ziga shukr, hazor-ming shukr. Shunchalik rahm etti. Ishqilib bu yog'biini ham, qolgan mushkullarimizni ham oson etsin. Chamanim qaytib, sizning akaginangizning yo'llari ham ochila qolsin, ilohim. Oh, qaniydi, deyman ich-ichimdan bir g'bürur tuyib va ham bir munglig'i hislar uygb'bonib, ko'zlarim esa, namlanib kela boshlaydi. Yuzlariga to'yib-to'yib termulgim bor-u, (axir yolgb'biz o'g'b'billari kimning g'b'hami bilan yuribdi o'sha uzoq yurtlarda?)
 !) ammo qaray olmayotirman ko'zlariga.

- O'sha kunlarga yetkazsin, - dedim.
 - Ilohim,- dedilar u kishi, - ertayu kech O'zidan suraganimiz shu. Ammo bandamiz - issiq jon - qachon omonatini oladi, bilmaymiz. Bu yoqda esa, undan darak yo'q. Aytgan hamma muddatu muhlatlari o'tib bitdi.
 - Uzoqning ishi, ko'pam qaygb'buraver mang, - dedim taskin berib.
 - Shunday-ku, bu yoqda aytgan gapiyu qoldirgan omonati bor, bolam.
 - Omonatki, xatlarmi?- dedim ichim g'burmishlab. Chunki avvalgi gal bir chekkasini ochganday bo'lib edilar.
 - Shunga o'xshashroq... O'g'b'lim boyaqish unga ko'rsatolmay Sizga qoldirgan narsalar shekilli. - Buvi mahzun tortib, yenglarini mijjalariga bosdilar va shu o'tirgan kuylari sal qayrilib yostiqlari qatidan ro'molchaga o'rog'b'liq bir narsa oldilar. - Mana, o'sha narsa, o'qisangiz bilarsiz. Faqat boyaqishginaga bildirmay turaqoling. O'zining g'b'hami o'ziga yetarli.
 - Bo'lmasa-chi, sekinroq aytasizmi, - deya oldim men shoshib. Ammo o'zim, ich-ichimdan bir qaltiroq turib, ayozda qolgan odamday titrab boryapman: nima balo, akamning kennoyimga atalgan maktublari ekanmi, deyman nuqul. Omonatni ham qo'lism titrab, zo'rg'b'a oldim. Qanday turib, qanday chiqdim, nimalar deb u kishiga tasallli berdim, yodimda yo'q. Es-hushim akamdayu sochmi, mushk isimi o'tirib qolgan qo'limgagi narsada edi. Uni kissamga solib-da, Olim akamgayu boshqalarga xotirjam ko'rinishga urinsam-da, o'zimga kelolmasdim. Ming urinmay xayolim u omonat xatlarga qochib-qochib ketaverar, bedarak akamnuyu manavi musofir kennoyimning taqdiri ko'z oldimga aylanib-aylanib kelaverar edi.

Uyga keliboq, xazina topgan odamdek ichkariga kirib olib, omonatni ochsam... chindan ichim quriganicha!.. Ular - Chaman akamning ikki o'g'b'biz iltimosiyu Sultonmurod akamning Mahfuz kennoyimga atalgan xati bo'lib chiqdi.

- Hah, - dedim ichim yonib, - bu omonatning egasi shunday yonginasida yashab turib, nechuk o'ziga berolmabdi? Ayaganmi va yo azbaroyi achinganidan bermay qo'ya qolganmi? Nimaga lozim ko'rmabdi? Yutoqib o'qiy boshladim. Chaman akam o'sha bir enlikkina xatida yozardi:

"Maqsud, o'zing ko'p farosatli yigitsan. Bu omonat xatlarni avval boshdayoq o'zingga tashlab ketavermaganimni tushunib olarsan. Har narsaning davosi vaqt. Shu jumladan, ayriliqning ham. Yana Ollo biladi, bularning taqdirini ro'zi azalda qanday bitganini. Lekin baribir, xatni mushfiqa kennoyingga berolmadim. Mavridi emas, o'z dardi o'ziga yetadi, deb o'yladim. Tuzalib olgunicha yarasini yangilamaganimiz ma'qul. Agar safarim cho'zilib ketsa, bu narsa o'zingda turatursinmi, deb o'yladim. Balki omadim chopib, akang-ning izini topsam (yangi ma'lumotlar ham yo'q emas) u xatni ko'rsatish kerak ham bo'lmay qolar. Oollohdan umidim ko'p, shoyad yaxshi xabarlar bilan qaytsam.

Chaman akang"

"Aytmoqchi, akangning yolgb'biz yodgoriga ko'z-quloq bo'lib tur. Dogb'nda qola ko'rma. Ularni senga, seni Xudoga topshirdim". Oq-oppoq (yon daftarmi, taqvimmi, ishqilib to'rt tomon hoshiyasiga islimiy naqsh urilgan, harqalay xorijniki - biznikimas) qog'b'ozga tanish imloda bitilgan xatni o'qimoqqa intiqman-u, ammo yetishganimda andesha ustun kelib, (harqalay birovga atalgan!) jur'at etolmay turibman. Bosh-ketini o'girib, har varaqning boshlamasidagi jadvalu o'ngdan chapga bitilgan bejirim bosma yozuvu raqamlarni tomosha qilyapman-u, tishim o'tsa o'lsin agar. Harqalay har betning boshlamasiga shunaqa jadvalu yozuvlar urilgan, bismillosi shunday. Lekin bularning hammasi ham meni xatdan chalgb'bitayotgani yo'q, qaytaga ichimni g'b'urmishlatgandan g'b'urmishlatyaptiki, u yog'b'i yo'q.

O'rtada andisha bo'lmasa, allaqachon uni bir chekkadan yutoqib o'qiy ketardim. Ammo o'zimni tutib, ko'zimni yumib o'tiribman. O'z-o'zimdan so'rayman:

- Haqqim bormi bu bitiklarni o'qimoqqa?
 - Ijozatsiz birovning xatini o'qimoq - gunohi azim, - deydi ichimda o'tirib olgan va men tasavvur etib-etolmayotgan mitti bolakay. Ko'zimni yumib, rosa tikilsam - o'zim, faqat Yodgordekmi, Saritoydek paytim! (Judadym luqmon ekanman-ku!)
 Unga e'tiroz bildirmoqchidek so'rayman:

- Kennoyim, o'sha Mahfuz kennoyim akamga atalgan bitiklarini menga ishonganda - o'z akam, Sultonmurod akam ishonmaydimi? Nima, men begonamanmi? Bu tarixlardan bexabar bo'lsam ekanki?..

Mitti bolakay o'ra barmog'b'ini nuqib po'pisanamo qaraydi:

- Ha, shum! Ha, quv! O'zingizcha, yo'l (fatvo) qi-diryapsizmi? Ketmaydi shumliging!
 - Bo'lmasa, nima qilay? Ichim qurishib o'tiravuraymi shunday?
 - Elchi-Chaman aka nima depti? O'qib boq. Ijozat etsa, boshqa gap.

Yutaqib Chaman akaning xatiga yopishaman va deganlarini qayta boshdan o'qiy boshlayman.

Voh, yana qanaqa ruxsat kerak?! Chaman akamning o'zi o'qib bo'lgan ekan-ku. O'qimasa ko'rsata ko'rma, dermidi?

Ikkalasi ikkimizgayam birday aziz-ku?! Kerak bo'lsa, jonimizni berishga tayyormiz-ku! Nega bu tarixning miridan-sirigacha bilmasligimiz kerak?!

Shuurimdag'i mitti bolakay endi bosh chayqab-chayqab kula boshlagandi. Go'yo quvsan desam, farosating ham balo-ku, demoqchi bo'lardi. Shundan so'nggina akamning bitiklarini yutaqib o'qimoqqa boshladim. U yozar edi:

"Mening Ka'bam - diyorim tomon yuzlanib, buvalarining yurtida ko'hlik kelin bo'lib o'tirgan jamilam Mahfuzaga. Bu men. Sizning chin orqadoshu taqdirdoshingiz Sultonmurodman. Meni qon va olov jang-gohidan ortmoqlab benajot va behush bir ahvolda olib chiqishgan kezda Siz va siznikidagilar najot farishtasidek tepamda paydo bo'lib, qirq kun duoi-jonimni qilib o'tirgan edingizlar. Endi esa, mening diyorimda o'chmas chirogb'lim bo'lib o'tiribsiz ekan. Ko'rib ko'nglim joyiga tushdi. Shukrki, yetib boribsiz. Oollohning o'zi qo'llabdiki, dadangiz aytgan odamlar qolib, bizning ishonchlув orqadoshlarimiz - xolajonlarimnikiga borib tushibsiz. Yig'b'blamang ham, siqtamang ham. O'zingizni yolgb'biz-notavon his etmang ham. Ular mening onam o'nida onajonlarimdu. Sizni hech qachon yolgb'bizlatib qo'ymaslar.

To'gb'ri, Tangritogb'nda adajonisining erka va oydin qizi bilib yurgan Sizday o'g'b'bacha xonim, bor-yo'g'b'i bir xafatalik kelinpushshaga boshqa yerda tutmoq, musofirinaga aylanib qolmoq oson emas. Lekin siz qay yurtga kelin bo'lib tushganingizni unutmang. Siz u diyorga begona ham, musofir ham emassiz. O'z ota-buvalaringiz yurti u. U yurt, u diyorga

yetolmayotganlar qancha, tushlarida ko'rishga zor-intizor vatanjudolar qancha! Shukr qiling xudovandi karimga, qolgan duolaringizni ham ijobat etsin.

Men esam, men esam bu olis yurtga - Siz tugb**T**ilib, otalaringiz panoh topgan diyorga shon yoxud shavkat izlab kelmaganman. O'z elimdan topmagan erkuadolatni shu yerdan toparmanmi deb, jilla qursa, shu togb**T**ilar oralig**T**ida, dinimiz dushmanlarining qo'li yetmas bir joy - bir diyorda odamdek emin-erkin, o'z haq-huquqini tanib, Olloho rizoligini topib yashash imkonini berguvchi bir jamiyat qura olarmizmi deb kelganman. Shu niyatda Hoziq to'ram janoblarining lashkarlariga bu tomondan qo'shilishga urinib yotgan edik. Ammo qay bir harakat va fe'lizim Ollohgaga xush kelmadi, o'sha qo'li kalta deb o'ylagan battol dushmanlarimiz u kishini bir kechada o'gb**T**irlab ketib, biz ko'z tikkan lashkar hamda ozod Vatan kishilarini yetim qilib ketdilar. Bir xonadon o'z egasini yo'qotsa, oilani otadan judo etsalar qancha odam alam-armonda qoladi-ku, bu yerda xalq, lashkar o'z sarbonini yo'qotib qo'ygan edi. Ular shunaqqib ozodlikning yuragiga xanjar urdilar. Unga qo'shib iymonimizni sugg**T**irib olmoqchi bo'lildilar.

Va biz ham bir kecha yetti otliq - yetti botur Ollohgaga tavakkul aylab, dovon oshmoqqa va sarhaddan o'tmoqqa jazm etdik. Niyatimiz yolgb**T**iz Ollohgaya o'zimizga ayon edi.

Ko'zi bogb**T**lanib, otga o'ngarilgan asirimiz esa o'zi qaerga olib ketilayotganini bilmas, tipirchilab shovqin ko'taray desa, qo'l-oyogb**T**i chandib tashlangan, ogb**T**zida latta edi.

Uni togb**T** oralig**T**idagi o'rmonliqqa qadar shu alpozda olib borib, so'ng buloq suvidan ichmoqqayu tahorat olmoqqa ruxsat etdik. Asir titrab-qaqshar, go'yo biz hukmni ijro etgani kelganmiz-ku, dor oldidan unga ikki rakat namoz o'tamoqqa ijozat etiladigandek. O'ziga kelsin deb imkoniyat berdik:

- Hozir peshinni o'qigaymiz, Siz ham bizning imomga iqtido qilib namozga o'tgaysiz. Sizga zulm qilmoqchi emasmiz, - dedik. Shundagina uning yuziga qon yugurdi.

Namozdan so'ng tamaddi qilib olib, yana yo'l tadorigini ko'ra boshladik. Va shu asno bandimizga niyatni ma'lum etdik.

- Tanlang, - dedim men shart qo'yib, - yo biz bilan ketib, shartimizga ko'nib, tirik qolasiz, yo alvido aytib, loshingiz shu o'rmonda qolgay! Ikkisidan biri. Qaybiri ma'qul?

Asirimiz muqaddam to'ramning xos tabiblari edi, u janobga bir tomchi suvdek o'xshab, ba'zan u kishi betob paytlarida qo'shshoq - o'rindoshlik vazifasini o'tar, bilmaganlar to'ram deb qulqoq tutaverar ekanlar. Bizga xuddi shunisi kerak edi. U yogb**T**i sir edi.

- O'lguncha esdan chiqmaydigan bir ish qilaylik. Shunga siz ko'nib bersangiz, bas. Bir odamning o'rniga bir kecha-kunduz uy qamogb**T**ida turib berasiz. Keyin orqamizdan yetib olasiz, - dedik.

G'ururi o'ziga yetguncha ekan:

- Millatim uchun, u kishi uchun lozim bo'lsa, jonom fido bo'lsin. Axiyrigacha ham turib bergum. Jihod-ku bu! - dedi.

Biz desak, bizdan yovqurroq chiqib qoldi u. Ha, Mahfuzam, har ish niyatga bogb**T**iliqdир. Bo'y-bastda, suvratda, shakl-shamoyilda Marshal to'ramdan bir tuki kam bo'limgan o'sha odam yolgb**T**iz shu so'zi ila Olloho roziligini topgan, jannat bogb**T**chalaridan o'ziga joy hozirlab qo'ya olgan edi. Unga havas qilmoq mumkin edi. Negaki jihodni sidq ila niyat etmoqning o'zi - ilohiy jannatga kirmoq huquqini bergay. Rafiqam, biz ham ana shunday jihodga - togb**T**ilar oralig**T**ida sarbonidan ayrilib yetim qolgan mamlakatni asramoqqa, sarboni bilan birga o'gb**T**irlangan erki-imonini qaytarib olmoqqa otlangan edik. Mahfuzam, hayotda shunday onlar bo'ladi, hamma narsa - umr, mol-mulk, dunyo hoyu havaslari barchasi o'tkinchi ekan, foniq ekanani aniq-ravshan ko'rinish qolgay. Yolgb**T**iz bir narsagina yashashga arzirli ekanini anglab qolgaysan, bilib qolgaysan, kishi. U ham bo'lsa jihoddir - Olloho rizoligini topib yashamoqdir. Shuning uchun ham biz ajdaho komiga qo'rqlay kirib bormoqqa jazm etgandik va bunda yolgb**T**iz Ollohgaga tavakkul qilib, sarhad oshib borgandik.

To'rttamiz sarhadda qolib, to'rttamiz (biz endi sakkiz kishi edik, asrimiz-da, bizning safimizga qo'shilgan edi!) manzilga - to'ramning ziyyoratlari- ga - u kishini uy qamogb**T**iga joylashtirishgan joyga qarab bormoqda edik. Tun-kechalab otliq yurib, tong-sahar Qibrayga kirib bordik va otlarimizni ishonchluv joyda qoldirib, u yogb**T**iga bozorga tushgan anjanlik dehqonlar siyoqida - hammamizning qiyofamiz bir xil - qora las choponu chuqur "anjan" nusxa do'ppida va ham belbogb**T** - chorsida edik. Yana uzoqdan kasal ko'rgani kelayotgan odamlardek bir olam bozor-o'char qilib olganmiz.

Qo'ymasliklari ham mumkin ekan. Lekin to'ramning anjanlik xeshlariga muruvvat qilishdi. Harqalay uzoqdan kelibsizlar deb. Albatta, eshik ogb**T**asi - qorovul amakining oldiga mozorbosdi narsalar to'kib tashlangach, u ham iyib keta qoldi.

Shunday qilib, Olloho mushkullarimizni oson etib, to'ramning oldilariga kirib borsak, u janob niyatimizni eshitib, o'z soyai-chehradoshlarini tanib ("ie, hoziq to'ram, men-ku noiloj qoldim, Sizga nima bor bu diyorda?!" deb) quchoq ochib ko'rishdilar-u, ammo taklifga kelganda... ko'nmadilar.

- Men o'zim kimmanki, asl murshidlikni da've etsam?! Haqiqiy hazratni ko'rmoqchimisiz, yuring, - deb meni ichkari bir bo'limga boshladilar va bir oq-oppoq xona eshigini qiya ochdilar.

Vo ajabki, xonaning o'tasiga joynamoz tashlangan va o'shal gilamcha ustida oq-oppoq bo'lib, to'ramdan bir tuki kam bo'limgan bir odam - hazratning o'zlari nur to'kib (tasbeh o'girib) o'tirar edilar.

- Ana, asl boshchi, biz ham xos tabib... qo'shshoqmiz, suvratmiz, xolos,- dedilar.

Ana shunday, habibam! Ne niyatda kelib, quruq qo'l ila qaytmoqqa majbur qolgandik.

Alohal chor-nochor xayrlashib chiqdik. Yigit kishining avvalo sazasi o'lmasin, sazasi o'lsayam, o'ylagan ishi puchga chiqmasin. Holimizni tasvirlashga tilim ojiz. Hammamiz bir ogb**T**izdan shuncha jur'at topib kelganda nahot bo'sh qaytamiz, derdik. Axiyri subhi sodiqda otlarimizni qoldirgan yerda uchrashmoqqa ahndlashib tarqalishdik. Kim takya-choyxonaga vaqt o'dirishga, kim to'yib uxlab - kuch yigb**T**omoqqa ketdi. Men esam, otimning boshini avval Kalkovuz tomon, so'ng ona diyor Kattabogb**T** tomon burdim. Har narsadan voqif mening qiyomatlari oshnam - Chaman (ha, o'sha men Sizga qiyin kunda qidirib bormoqni lozim ko'rgan oshnam!) Siz qay go'shada ekaningiz xabarini berdi. Va men o'sha sutdek oydin kechada oydan tushgandek huzuringizga kirib bordim. Buni o'sha kecha shuncha so'ranganingizda ham aytmagandim. Endi aytmoqdamani. Negaki, o'sha kechagi tashrifimdan hech kim voqif emasligiga va bundan keyin ham voqif bo'lmasligiga ishontirmaq edimi, hozir o'zim ham yaxshi bilmayman. Balki Sizga erkalik qilgim kelgandir, yalintirmoqchi, shu bilan yodingizda ko'proq qolmoqchi bo'lgandirman. O'shanda... o'zim Siz bilanman-u, arshi a'lodaman-ku, ora-chira turib-turib ich-ichimdan alammi, bir narsa qaynab kela boshlardi. Bir chekkasi shundan-shu yoqqa behuda kelmagan ekanmiz, deb, Sizni topganidan Ollohgaga shukronalar aysam, bir chekkasi alam g'bashligi o'tardi. Ne niyatda kelib, bo'sh qo'l ila qaytajagimiz esimga tushib, o'zimni o'zim yomon ko'riblar keta boshlardim. Mahfuz, meni tushuning: Biz yolgb**T**iz Olloho roziligini istab, shu ishga jahd etgandik. Shu yo'lda qurban bo'lib ketishga ham tayyor edik. Lekin na qurban bo'lidik, na bir narsaga erishdik! Bundan boshdan-da ayrilganimiz avlo edi! Negaki, u holda ham, bu holda ham niyatga

This is not registered version of TotalDocConverter.

yetaqqa Ollohgaga qolishni keti, bu holida esa, emas qolishni qaytarib olib! Hozir-chi, nimaga ega bo'lmoqda edik?! O'sha subhi sodiqda - Siz bilan pinhon xayrashgan chog'hd'a tilim Siz uchun shirin so'zlar marjonini termakda bo'lsa-da, dilim alamdan sim-sim achishar va qon yig'hd'lar edi. Biz Tangritog'hd'a qay yuz bilan borishni bilmasdik. Bizning niyatimizdan hech kim voqif bo'lmasa-da, u Ollohgaga ayon edi-ku. Jihodni tilga olib, nega uning uchun jonniga jabborga berib bo'lsa-da, uni poyoniga yetkazmadik?! Mana shugina - Olloh rizoligini topadigan ishni uddalamay qaytayotganimiz yurak-bag'hd'rimizni o'rtab bormoqda edi.

Oy "Aka diydor qiyomatga qoldi, men Makkaga o'tib ketgayman" deb ketgancha daragi ham, xabari ham kelmagan Islom tog'hd'amning boloxonalari ustida osmonning yolgb'hdiz ko'zidek kumush nuqlalarini bearmon sochib yotar, jindek kechiksam, bozorchilar ham uyg'hd'onib qolishar, men esam, kelishilgan mazgilimga yetib borolmasdim. Ammo oy nurlariga cho'mib yotgan Izza soylariyu uning ikki yoq betlaridan, Kattabog'hd'ning bir sirli mudragan olachalpoq bog'hd'lar - nokzoru yong'hd'boqzorlaridan, anhor yoqalab ketgan tuproq ko'chasidan, sizlar qolayotgan hovlining tuproq tomlaridan ko'z uzolmasdim. Ketmasam bo'lmasdi. Yuragimning bir chekkasi uzilib qolayotgandek edi. Yana qachon qaytaman? Umuman, qaytish nasib etadimi-yo'qmi, yolgb'hdiz Olloh biladi.

Menden bo'lak odam bo'lsa, balki ketishdan ham ko'ra qolishni afzal ko'rib qolarmidi. Lekin men... ketmasam bo'lmasdi! Jihod deb sarhad oshib kelgan sheriklarim bor, subhi-sodiqa ko'rishgaymiz degan va'damiz bor, so'zim bor edi! Yetib bormasligim mumkin emasdi! U yoqda esa, Tangritog'hd'a esa, bizga ko'z tikanlar qancha edi. Biz boturlarki, tinchimizni ko'zlab har yon tarqab-tarqab ketaversak, arning erligi qolgaymi? Bizki o'z huzuri-jonimizni o'ylab keta boshlasak, elning holi ne kechgay?

Bu niyatimiz Ollohgaga xush kelmagan esa, boshqasi xush kelgay! Maqsad Olloh rizoligini topmoq ekan, nega qayta boshdan o'ziga tavakkul qilmaylik. Biron yo'l - najot yo'lini o'zi ko'rsatar, axir?!

Yetib borsam, sheringim tipirchilab turibdi.

- Qani boshqalar?

- Ketishdi, otingni qista, omad chopdi, - deydi.

- Qanday omad?! - dedim bir o'rtanib.

(Mahfuz, eshityapsizmi, bizga omad kulib boqibdi!)

Sherigim otini qistab, kalta javob qildi:

- Ular qilgan ishni biz qilolmaymizmi? To'ramni o'gb'hdirlab chiqdik. Elchin botur u kishini olib, jo'nab ketdi! - deydi.

- Tabib-chi, To'ramning yalakatlari? - dedim ichim shig'hd'-gb'hd sidirilib.

- Qoldi, erta-indin orqamizdan yetib borgay.

Men pandavaqi shu gapga ishonib o'tiribman! Ular men yo'l daligimdayoq boshqa rejani tuzib qo'yishgan ekan!

To'ramning yalakatlarini "sen to'ramdan qaering kam, o'zing lashkarga bosh bo'lsan, qolgan viloyatlarni ham ozod etamiz, ana shu yo'l bilan Olloh rizoligini topamiz", deb ishontirib qo'yan ekanlar.

E, vohki, menga buni juda keyin, gb'hdish qolipdan ko'chgandan so'nggina aytishdi.

Yolg'b'on - yolg'b'on-da, qachon rostning o'rniga o'tibdi!

Soya - soya-da, asl asl-da! Hamma ham to'ram bo'laveribdimi!

Mana bugun yog'b'hdidan zarba yeb, to'zigancha to'zib, yetti do'st - yetti botur arang Muztoqqa bosh olib chiqib ketmoqdamiz.

Yalakat "to'ram"-da biz bilan...

Mahfuzam, Siz mening yo'qotib topganimsiz. Najot farishtamsiz. Tirik qolsam, Ollohnning yolg'b'hdiz Sizga rahmat-marhamati tufayligina omon qolmog'hd'im mumkin bu mashaqqatli dovon - Muztoga'hd'an oshib o'tmakda. Har ne bo'lganda ham saharlarda yolg'b'hdiz O'zidan so'-rangki, bizni ora yo'lda qoldirmasin. Yo gb'hdolib etsin, yo shahid!.. Biz diyorlaridan quvilganlar yo gb'hdolib bo'lib, dinimizni, shariatimizni bu tog'hd'larda laxcha cho'gb'hddek asrab qolaylik, yo shahidlik sharobini totib ketgayluk-da, janobi Haqning rizoligiga erishayluk.

Mahfuzam, yolg'b'hdiz o'tinchim, o'gb'hdil ko'rsangiz o'shal va'dangizga binoan, ismini - Yodgurmurod qo'ygaysiz. Yana bir rijom: yolg'b'hdiz qolganda Kalomullohning bizga atalgan oyatlarini (Oli Imron-195) o'qib turgaysiz. U sizga yupanch va madad bergay, inshaalloh!"

Maktub mana shu varaqda uzilgan edi.

Chaman akamning topgani va hech kimga ko'rsatmay kelayotgan narsasi shuginamidi yoki yana bormi - buni bilmasdik.

U akamning xasmini yomon ko'z-yomon so'zlardan, tuhmatchiyu malomatchilarning malomatlaridan asrab, Oyo'ra buvining bag'hd'rida olib o'tirganining o'zi har qancha tahsinga loyiqidir. Ogb'hdir kunda dardiga malham bo'layotgani kamdek yana oshnamning daragini topdim deb izlab ketgani-chi? Biz ham yurgan ekanmiz-da. Jigarimizning taqdiriga achinishdan nariga o'tmay! Axir mendan lozim emasmidi, ishxonamdan o'sha yurtlarga ruxsatnomaga olish, Sultonmurod akaginamning daragini izlab ko'rish?!

Boshiga ne ko'rgiliklar tushganda ham tosh kelsa kemirib, suv kelsa simirib, miq etmayin hamon uni kutib o'tirgan kennoyim haqqi-hurmati, Yodgurmurodimiz - tomirimizning tomiri o'sha toy bola uchun ham men safarga otlanmog'hd'im kerak emasmi?!

Chaman akachalik hamiyatim, gb'hdurim yo'qmi?

Olim akam-chi, u nega jim?

Qachon odam bo'lamiz?..

Umuman, biz bechoralarga xorijga yo'l bormi? Yoki haj yo'li singari u ham berkmi?..

Murod doram - umidim bor Sultonmurod akamdan darak topmoqqa, o'zini ko'rmoqqa. Ollohdan yolg'b'hdiz so'ranganim shu.

Shoyad, baroyad yo rab, javobi berilsa...

5 o'ktabir, 2002 yil.

AvvalgiIII- qismB Keyingi